

ALIQUL RAHMONOV



**O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASINING  
KONSTITUTSIYASINI  
O'RGANISH**


)

**Aliqul Rahmonov**

# **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganish**

(noyuridik oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun  
sxemali o'quv qo'llanma)

*To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr*



UDK: 342.4(575.1)  
KBC: 67.488.1(90\*)  
R – 33  
Rahmonov A.Iqbal

•

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganish: noyiridk o'liy o'quv yurtlarining talabalari uchun sxemali o'quv qo'llanma / A.Rahmonov, mas'ul muharrir. R.T.Hakimov – Toshkent Yangi asr avlodi, 2014 – 144 br

ISBN 978-9943-27-109-8

Mazkur sxemali o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganishga bag'ishlangan. Muallif Konstitutsiyaning moddolari va ularning qismlarini tegishli bog'liqlik va o'zaro aloqadorlik asosida tahlil etib, ma'lum bir tartibda tasvir va chizmalarda ifodalagan. O'quv qo'llanmaning oxirida egallangan bilimlarni tekshirish maqsadida testlar taklif etilgan, tushunchalarga izohlar berilgan va eng so'nggi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasining matni keltirilgan. O'quv qo'llanma kitobxonlarning Konstitutsiya bilan bog'liq siyosiy-buquqiy bilimlarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

O'quv qo'llanma o'quvchilar, noyiridk o'liy o'quv yurtlarining talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

*Mas'ul muharrir:*

**Ravshan Te'iqunovich Hakimov,**

“O'zbek xalqaro huquq assotsiatsiyasi”ning raisi, yuridik fanlari nomzodi, dotsent.

*Taqrizchilar:*

**Olism Xohmatovovich Narzullayev,**

Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlari nomzodi

**Saidahmad Akramovich Ishaxmedjayev,**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” kafedrasining dotsenti, yuridik fanlari nomzodi

ISBN 978-9943-27-109-8

© A.N. Rahmonov O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganish “Yangi asr avlodi”, 2014-yil

## MUNDARIJA

Mualliflar.....	5
Shartli qisqartmalar.....	6
O'zbekiston Konstitutsiyasi: qabul qilinishi va o'zgartirilishi.....	7
O'zbekiston Konstitutsiyasining tuzilishi.....	8
O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti.....	9
O'zbekistonning davlat tili va poytaxti.....	10
O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi.....	12
O'zbekistonning ichki va tashqi siyosati.....	13
O'zbekistonning davlat ramzlari.....	14
O'zbekistonning Davlat bayrog'i.....	15
O'zbekistonning Davlat gerbi.....	17
O'zbekistonning Davlat madhiyasi.....	19
Davlat hokimiyatining bo'linish prinsipi.....	20
O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi.....	22
Referendum tushunchasi.....	25
O'zbekiston xalqi nomidan.....	26
Davlat faoliyatining asoslari.....	27
Konstitutsiya va qonunning ustunligi.....	28
Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari (umumiy qoidalar).....	29
Insonning shaxsiy huquq va erkinliklari.....	30
Siyosiy huquq va erkinliklar.....	31
Iqtisodiy huquq va erkinliklar.....	32
Ijtimoiy huquq va erkinliklar.....	33
Fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatlari.....	34
Fuqarolarning burchlari.....	35
Jamoat birlashmalari.....	36
Taqiqlanadigan jamoat birlashmalari.....	37
Davlat organlari va jamoat birlashmalari.....	38
Nikoh va oila.....	39
Ommaviy axborot vositalari.....	40
O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi.....	41
Qoraqalpog'iston Respublikasi.....	43
Oliy Majlis palatalarining mutaq vakoatlari.....	44
Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakoatlari.....	46
Oliy Majlis palatalarining a'zolari soni.....	48
Parlament palatalari a'zolari va majlislar o'tkazish.....	49
Oliy Majlis palatalari rahbarlarining vakoatlari.....	50
Qonun chiqarish jarayoni.....	51
Kelishuv komissiyasi.....	53
Palatalar qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar.....	55
Oliy Majlis palatalarining qo'mitalari.....	56
Oliy Majlis palatalarining komissiyalari.....	57
Prezident qasamyodi.....	58
Prezident vakoatlari.....	59
Xalq - davlat hokimiyatining manbai.....	62
Parlamentni tarqatib yuborish.....	63

Prezident chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlar.....	64
Saylov tizimi.....	65
Saylov huquqi.....	66
Deputat, senator va Prezident: nomzodlarga qo'yiladigan talablar.....	67
Prezident vazifasini bajaruvchini saylash.....	68
Prezident vazifasini vaqtincha bajaruvchi.....	69
Vazirlar Mahkamasi.....	70
Bosh vazir nomzodini taqdim etish va tasdiqlash (birinchi holat).....	72
Bosh vazir nomzodini taqdim etish va tasdiqlash (ikkinchi holat).....	73
Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish.....	74
Vazirlar Mahkamasi iste'foga chiqqanidan so'ng.....	75
Mahalliy davlat hokimiyati.....	76
Mahalliy ijroiya hokimiyat rahbarlari.....	77
O'zini o'zi boshqarish organi.....	78
Sud hokimiyati.....	79
Sud tizimi hokimiyatlar bo'linishida.....	80
O'zbekiston Respublikasining sud tizimi.....	81
Konstitutsiyaviy sud vakolatlari.....	82
Advokatura.....	83
Prokuratura.....	84
Moliya va kredit.....	85
Mudofaa va xavfsizlik.....	86
Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi.....	87
O'zbekiston Konstitutsiyasi bo'yicha test savollari.....	88
O'zbekiston Konstitutsiyasi bo'yicha test savollarining to'g'ri javoblari.....	102
Glossariy.....	103
Tavsiya etiladigan adabiyotlar.....	116
Ilova.....	119



## Muallifdan

Aziz kitobxon!

Mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasi qabul qilingan kun – 8-dekabr mamlakatimizda har yili bayram kuni sifatida keng nishonlanadi. Mamlakatimizning Asosiy qonuni – Konstitutsiyani har tomonlama o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu sxemali o'quv qo'llanma ana shu maqsad yo'lida xizmat qiladi.

“O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganish” o'quv qo'llanmasi to'ldirilgan va qayta ishlangan holda ikkinchi marta, lotin alifbosida nashr etilmoqda.

O'quv qo'llanmaning mavzulari aksariyat holda O'zbekiston Konstitutsiyasi boblarining ketma-ketligiga muvofiq keladi. O'zbekiston Konstitutsiyasining butun matni mazmunan qo'llanmada tegishli va yoki bu o'rinda o'z ifodasini topgan. Ba'zi o'rinlarda tegishli qonunlarning matnidan ham foydalanildi. O'quv qo'llanmadan foydalanishda shuni nazarda tutish kerakki, ba'zi sxemalar yuqoridan pastga qarab, boshqa birlari esa pastdan yuqoriga qarab o'qiladi. Har qanday holda ham ko'rsatkich (срелка)ning yo'nalishiga e'tibor berish lozim. Konstitutsiya matnidan olingan ba'zi so'zlarning kursivda yoki to'q rangda yoxud tagiga chizilgan holda berilishi muallif tegishli ma'lumotni alohida ta'kidlash istagining ifodasi deb tushunmoq kerak.

O'quv qo'llanmaning oxirida Konstitutsiyaning matni doirasida yuzdan ortiq test savollari, Konstitutsiyaning matnida va uni o'rganish jarayonida duch kelinadigan tushunchalar, atamalar va iboralarning izohli lug'ati – glossariy, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati berildi. Ilovada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining eng so'nggi tahrirdagi matni ham keltirildi.

Ushbu sxemali o'quv qo'llanmadan o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning o'quvchilari, noyuridik oliy o'quv yurtlarining talabalari, shuningdek, o'zining huquqiy bilimlari saviyasini yanada boyitmoqchi bo'lgan kitobxonlar foydalanishlari mumkin. Uni o'qish jarayonida xato va kamchiliklarni to'g'ri anglagan kitobxonlardan o'z fikr-mulohazalari va takliflarini quyidagi elektron pochталardan biriga yo'llashlarini so'raymiz:

ran69@mail.ru

alikul.rakhmonov@yandex.ru

*Toshkent shahri,  
2014- yilning mart oy*

## Shartli qisqartmalar

b.	bet, boshqalar
BMT	Birlashgan Millatlar Tashkiloti
boshq.	boshqalar
FHDYO	fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish
fr.	franzuzcha
b. k.	hokazo
IIV	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
ing.	inglizcha
JK	Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi
lot.	lotincha
MB	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
MSIV	O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi
MSK	O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi
MCX	O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati
OAV	Ommaviy axborot vositalari
OO'MTV	O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
QK	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
QorR	Qoraqalpog'iston Respublikasi
QP	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qomunchilik palatasi
T.	To'liqkent
TIV	O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi
VK	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
VM	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
XTV	O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
y.	yil
yun.	yunoncha
O'zR	O'zbekiston Respublikasi
sh.	shahar, shahri
sh. k.	shu kabi(lar)
min.	lotin tilidagi <i>minimum</i> ("kamida") so'zi

## O'zbekiston Konstitutsiyasi: qabul qilinishi va o'zgartirilishi

1992-yil 8-dekabr kuni XII chaqiriq O'zR Oliy Kengashining XI sessiyasida Konstitutsiya loyihasi moddama-modda muhokama etilganidan so'ng qabul qilingan.



2 1993-yil 28-dekabrda O'zbekiston Konstitutsiyasiga birinchi o'zgartirish kiritildi: "150 nafar deputatdan" degan so'zlar (77-moddada, 1-qism) "deputatlardan" degan so'z bilan almashirilgan (O'zR Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1994, 1-son, 5-moddada).

3 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumi natijalariga ko'ra hanuda uning asosida qabul qilingan 2003-yil 24-apreldagi O'zRning Qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan.

O'zRning 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan Qonuni bilan O'zRning Konstitutsiyasi 89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilgan.

4  
5 O'zRning 2008-yil 25-dekabrda qabul qilingan Qonuni bilan O'zRning Konstitutsiyasi 77-moddasining birinchi qismiga o'zgartirish kiritilgan.

6 2011-yilning 18-aprelda O'zRning "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (78-, 80-, 93-, 96- va 98-moddalariga) o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni ("Xalq so'zi", 2011-yil 19-aprel, № 76) qabul qilindi. U 2011-yil 4-martda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilindi, 2011-yil 25-martda esa Senat tomonidan ma'qullandi. 2011-yil 18-aprelda O'zbekiston Prezidenti tomonidan imzolangan (36 O'zRQ - 184) Qonun, uning oxirgi - 2-moddasiga binoan rasmiy e'lon qilingan kundan (19-apreldan) e'tiboran kuchga kirdi.

7 O'zRning 2011-yil 12-dekabrda qabul qilingan Qonuni bilan O'zRning Konstitutsiyasi 90-moddasining ikkinchi qismiga tuzatish kiritilgan.



## O'zbekiston Konstitutsiyasining tuzilishi

### **Muqaddima**

#### **1- bo'lim. Asosiy prinsiplar**

- I bob. Davlat suveraniteti (1-6)<sup>1</sup>
- II bob. Xalq hokimiyatchiligi (7-14)
- III bob. Konstitutsiya va qonunning ustunligi (15-16)
- IV bob. Tashqi siyosat (17)

#### **2- bo'lim. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari**

- V bob. Umumiy qoidalar (18-20)
- VI bob. Fuqarolik (21-23)
- VII bob. Shaxsiy huquq va erkinliklar (24-31)
- VIII bob. Siyosiy huquqlar (32-35)
- IX bob. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar (36-42)
- X bob. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari (43-46)
- XI bob. Fuqarolarning burchlari (47-52)

#### **3- bo'lim. Jamiyat va shaxs**

- XII bob. Jamiyatning iqtisodiy negizlari (53-55)
- XIII bob. Jamoat birlashmalari (56-62)
- XIV bob. Oila (63-66)
- XV bob. Ommaviy axborot vositalari (67)

#### **4- bo'lim. Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi**

- XVI bob. O'zRning ma'muriy-hududiy tuzilishi (68-69)
- XVII bob. Qoraqalpog'iston Respublikasi (70-75)

#### **5- bo'lim. Davlat hokimiyatining tashkili etilishi**

- XVIII bob. O'zR Oliy Majlisi (76-88)
- XIX bob. O'zRning Prezidenti (89-97)
- XX bob. Vazirlar Mahkaması (98)
- XXI bob. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari (99-105)
- XXII bob. O'zRning sud hokimiyati (106-116)
- XXIII bob. Saylov tizimi (117)
- XXIV bob. Prokuratura (118-121)
- XXV bob. Moliya va kredit (122-124)
- XXVI bob. Mudofaa va xavfsizlik (125-126)

#### **6- bo'lim. Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi (127-128)**

### **O'zbekiston Konstitutsiyasining tuzilishi:**

Muqaddima

6 ta bo'lim

26 ta bob

128 ta modda

<sup>1</sup> *Izoh* Konstitutsiyaning moddalari shartli ravishda arab raqamlari bilan, ularning tegishli qismlari esa Rim raqamlari bilan belgilandi: 4-II (4-moddaning ikkinchi qismi), 21-IV (21-moddaning to'rtinchi qismi) va sh. k. Agar arab raqamlari bilan ifodalangan ikkita son chiziqcha orqab ketma-ket kelgan bo'lsa, masalan 80-14 shaklida, demak, birinchi sonni moddaga ishora deb, ikkinchisini esa uning bandi deb tushunish kerak. Aytaylik, 80-14 yozilgan bo'lsa, buni "80-moddaning 14-bandini" deb o'qish kerak. Agar, deylik, 78-1,13 deb ko'rsatilgan bo'lsa, buni "78-moddani 1-qismning 13-bandini" deb o'qish kerak.

## O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti

"O'zbekiston - suveren demokratik respublika".  
(1)

O'zbekiston - suveren respublika.	O'zbekiston - demokratik respublika.
<i>"O'zbekiston xalqi [...] davlat suvereniteti g'ovalariga sodiqligini tantanali ravishda e'ton qilib Konstitutsiyani qabul qiladi". (Muqaddimadan)</i>	<i>"O'zbekiston xalqi [...] demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab Konstitutsiyani qabul qiladi". (Muqaddimadan)</i>

(1)  
Davlatning nomi:  
"O'zbekiston Respublikasi" = "O'zbekiston"  
(Bu nomlar bir ma'noni anglatadi.)

*Masalan*

O'zbekiston Respublikasi - suveren respublika.

=

O'zbekiston - suveren respublika

### "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MUSTAQILLIGI ASOSLARI TO'G'IRISIDA" O'zRning Qonuni (1991.31.08.)

O'zRning Mustaqillik deklaratsiyasiga va O'zRning Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonotga asoslanib, O'zRning Oliy Kengashi ushbu Qonunni qabul qiladi.

#### 1-modda.

O'zR o'z tarkibidagi QorR bilan birga mustaqil, demokratik davlatdir.

#### 2-modda.

O'zRning xalqi suverendir va u respublikada davlat hokimiyatining birdan-bir sohibidir, u o'z hokimiyatini ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshiradi

#### 7-modda.

O'zR Davlat mustaqilligining moddiy asosi uning mulkidir.

Respublika hududidagi yer, yer osti boyliklari, suv va o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma'naviy boyliklari O'zRning milliy boyligi, mulki hisoblanadi.

## O'zbekistonning davlat tili va poytaxti

### O'zbekiston Respublikasi

(4-1)  
Davlat tili:  
O'zbek tili

O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'anasalarining hurmat qilinishi ta'minlanadi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi.

(4-11)

"O'zRning Davlat tili to'g'risida"gi O'zRning yangi tahrirdagi Qonuni 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan.

(6)  
Poytaxti:  
To'shkent sh.

Uning chegarasini o'zgartirish Oliy Majlisning roziligi bilan amalga oshiriladi

(69)

"O'zbekiston xalqi [...] fuqarolar tinchligi va milliy tatarvligini ta'minlash maqsadida [...] Konstitutsiyani qabul qiladi".  
(*Ataqadimadan*)

Xatti-harakat yoki faoliyatning nomi	Amalga oshirish	
	Davlat tilida	Boshqa tillarda
<i>Korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda, jamoat birlashmalarida ish yuritish</i>	✓	Ishlovchilarining ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda
<i>Hisob-kitob, statistika, moliya hujjatlari</i>	✓	Ishlovchilarining ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda
<i>No'jalik nizolari</i>	✓	Tarafdarning roziligi bilan
<i>Notarial harakatlar</i>	✓	Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni notarius yoki notarial harakati bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda - boshqa maqbul tilda beriladi.

<i>Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar</i>	✓	Zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasini takrorlanishi mumkin.
<i>Sudlov ishlarini yuritish</i>	✓	O'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida.
<i>Qonunlar, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlarini qabul qilish va e'lon etish</i>	✓	Tarjimalari e'lon qilinadi.
<i>Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlarini qabul qilish va e'lon etish</i>	✓	Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda hujjatlar davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi.
<i>O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlar</i>	✓	Qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar
<i>Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish</i>	✓	Zaruriyatga qarab tarjima qilinishi ta'minlanadi.
<i>Televidenie va radio eshittirishlari</i>	✓	Mumkin.
<i>Noshuriy faoliyati</i>	✓	Ehtiyojlarni hisobga olgan holda.
<i>Pochta-telegraf jo'natmalari</i>	✓	Fuqarolarning xohishiga ko'ra.
<i>Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot yorliqlari, yo'riqnomalari, etiketalari</i>	✓	Mumkin.
<i>Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari</i>	✓	—
<i>O'zbekiston hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarining, shuningdek milliy madaniyat jamiyatlari va markazlarining muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlari</i>	✓ (tarjimasini davlat tilida takrorlanadi)	Mumkin.
<i>Lavhalar, e'lonlar, naxxonalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlarini rasmiylashtirish va e'lon qilish</i>	✓	Tarjimasini berilishi mumkin.
<i>Ma'muriy-hududiy birliklarning, maydonlarning, ko'chalarning, geografik obyektlarning nomlari</i>	✓	—
<i>O'zbekistonning xalqaro shartnomasi matnlari (agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa)</i>	✓	Ahdlashuvchi tomon(lar)ning tilida.

## O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi

O'zbekiston Respublikasi

**Davlat chegarasi**  
daxsiz va bo'linmas. (3-II)

**Davlat hududi**  
daxsiz va bo'linmas. (3-III)

"O'zRning Davlat chegarasi to'g'risida"gi O'zRning Qonuni 1999-yilning 20-avgustida qabul qilingan, 46 moddadan iborat.

O'zRning Davlat chegarasi - bu O'zR hududi doirasini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo'shlig'ida) belgilovchi chiziq va bu chiziq bo'ylab o'tuvchi vertikal sathdir

Davlat chegarasini belgilash va o'zgartirish paytida O'zR milliy xavfsizlikni ta'minlash zaruratidan kelib chiqadi hamda quyidagi prinsiplarga amal qiladi:

- davlatlarning suvereniteti, hududiy yaxlitligi, davlat chegaralari daxsizligi va buzilmasligini o'zaro hurmatlash;
- chegara masalalarini tinch yo'l bilan hal etish;
- chet el davlatlari bilan har tomonlama, teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish,
- qo'shni davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik,
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmastik.

Davlat chegarasini belgilash va o'zgartirish O'zRning xalqaro shartnomalariga asosan O'zR Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat chegarasi quyidagicha belgilanadi.

Quruqlikda	O'ziga xos nuqtalar, relyefning chiziq-lari yoki aniq ko'rinib turadigan joylar bo'yicha.
Kema qatnaydigan daryolarda	Daryoning asosiy farvateri yoki talvogi o'rtasi bo'ylab.
Kema qatnamaydigan daryolarda, jilg'alarda	U-larning o'rtasi yoki daryoning asosiy o'zaning o'rtasi bo'ylab.
Ko'llar yoki boshqa suv havzalarida	Davlat chegarasi ko'l yoki boshqa suv havzasi qirg'oqlariga chiqqan joylarni tutashiruvchi to'g'ri yoki boshqacha chiziq bo'yicha.
Suv omborlarida va boshqa sun'iy suv havzalarida	U-lar suv bilan to'ldirilgunga qadar Davlat chegarasining mazkur joydan o'tgan chizig'iga muvofiq ravishda.
Daryolar, jilg'alar, ko'llar va boshqa suv havzalari orqali o'tuvchi ko'priklarda, to'g'onlar va boshqa inshootlarda	Davlat chegarasi suvdan o'tish-o'tmasligidan qat'iy nazar, shu inshootlarning o'rtasi yoki ularning texnologik o'qi bo'ylab.

## O'zbekistonning ichki va tashqi siyosati

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI...

... o'z ichki siyosatini amalga oshiradi.

(3-1)

... o'z tashqi siyosatini amalga oshiradi.

(3-1)

"O'zbekiston xalqi [...] hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda [...] O'zRning Konstitutsiyasini qabul qiladi".

(Aduqaddimadan)

"O'zbekiston xalqi [...] xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalarini ustunligini tan olgan holda [...] Konstitutsiyani qabul qiladi".

(Aduqaddimadan)

O'zbekistonning tashqi siyosati xalqaro huquqning quyidagi va boshqa umum e'tirof etilgan qoidalarini va normalariga asoslanadi:

(17-1)

- davlatlarning suveren tengligiga;
- kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslikka;
- chegaralarning daxlsizligiga;
- nizolarni tinch yo'l bilan hal etishga;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslikka;
- xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalarini va normalariga.

O'zR - xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir.

(17-1)

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, faroyonligini va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin.

(17-11)

# O'zbekistonning davlat ramzlari

## O'zbekistonning DAVLAT RAMZLARI (5)

Davlat ramzlari qonun bilan tasdiqlanadi.  
(5)

(5)  
Davlat bayrog'i

"O'zRning Davlat bayrog'i to'g'risida"gi O'zRning Qonuni 1991-yilning 18-noyabrda qabul qilingan, 13 moddadan iborat.

(5)  
Davlat gerbi

"O'zRning Davlat gerbi to'g'risida"gi O'zRning Qonuni 1992-yilning 2-iyulida qabul qilingan, 8 moddadan iborat.

(5)  
Davlat madhiyasi

"O'zRning Davlat madhiyasi to'g'risida"gi O'zRning Qonuni 1992-yilning 10-dekabrda qabul qilingan, 12 moddadan iborat.

### "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MUSTAQILLIGI ASOSLARI TO'G'RISIDA" O'zRning Qonuni (1991.31.08.)


O'zRning Mustaqillik deklaratsiyasiga va O'zRning Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonotga asoslanib, O'zRning Oliy Kengashi ushbu Qonuni qabul qiladi.

#### 16-modda.

O'zR o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini aniqlaydi, o'z davlat ramzlarini: gerbi, bayrog'i, madhiyasini ta' sis etadi, o'z davlat tilini belgilaydi.

O'zR davlat mustaqilligining ramzlari muqaddasdir va ularni har qanday tahqirlash qonun bilan jazolanadi.

## O'zbekistonning Davlat bayrog'i



O'zRning Davlat bayrog'i O'zR Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida 1991-yil 18-noyabr kuni tasdiqlangan. O'zRning Davlat bayrog'i xalqaro munosabatlarda O'zRning timsoli bo'ladi.

O'zRning Davlat bayrog'i — bayroqning butun uzunligi bo'ylab o'tgan to'q moviy rang, oq rang va to'q yashil rangli uchta endan tarkib topgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi matodir. O'zR Davlat bayrog'ining uzunligi 250 santimetrga, kengligi 125 santimetrga teng. Moviy rang, oq rang va yashil rangli enlarning kengligi bir xil. Har bir en 40 santimetrga tengdir. O'zR Davlat bayrog'ining o'rtasidagi oq rangli enning chetlaridan kengligi 2,5 santimetrga teng qizil hoshiyalar o'tkazilgan. O'zR Davlat bayrog'ining yuqori qismidagi moviy rangli enning yuz tomoni va orqa tomonida dastaga yaqin joyida oq rangli yangi oy va uning yonida 12 ta oq rangdagi besh qirrali yulduz tasvirlangan.


Oq rangli yangi oy va 12 ta oq rangli besh qirrali yulduzning tasviri moviy rangli yuqori enning o'rtasidan 70x30 santimetrga teng to'g'ri to'rtburchakka sig'adigan qilib joylashtirilgan. Oq rangli yangi oy vertikal holatda do'ng tomoni dastaga qaratilgan, dastadan 20 santimetr masofada joylashtirilgan bo'lib, diametri 30 santimetrli doiraga sig'adi. 12 ta oq rangli 5 qirrali yulduz diametri 6 santimetrli doiraga sig'adi. Doiralalar orasidagi masofa 6 santimetr. Yulduzlar uzumasiga va tikkasiga quyidagi tartibda joylashadi: yuqori qatorda 3 ta, o'rta qatorda 4 ta va quyi qatorda 5 ta yulduz. Quyi qatordagi yulduzlar yangi oyning pastki uchidan 3,5 santimetr masofada joylashadi.

Bayroqdagi *moviy* rang – tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Timsollar tilida bu – yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog'ining rangi ham moviy rangda edi. Bayroqdagi *oq* rang – muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritkichlari bilan uyg'unlashib ketadi. Oq rang poklik, bog'uborlik, soflik, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsolidir. *Yashil* rang – tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumolik timsoli hisoblanadi. *Qizil* chiziqlar vujudimizda jo'shib oqayotgan bayotiy qudrat irmoqlaridir.

Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq. Ayni paytda, qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzidir.

O'zRning Davlat bayrog'i va uning tasviri katta-kichikligidan qat'iy nazar, hamma vaqt "O'zRning Davlat bayrog'i to'g'risida"gi O'zRning Qonuniga ilova qilingan rangli va sxematik tasviriga aniq mos bo'lishi kerak.





O'zRning Davlat bayrog'i doimiy ravishda - O'zR Prezidentining, Oliy Majlis QP Spikerining va Senati Raisining, Bosh vazirning, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi raislarining, respublika davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining, Bosh prokurorning, MXX raisining, MB boshqaruvi raisining, Hisob palatasi raisining, MSK raisining, QorR JK va VK raislarining, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlarining, O'zRning diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalari boshliqlarining xizmat xonalarida; O'zR qonun hujjatlari bilan belgilangan bayram kunlarida QorR VKning, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlarining qarorlari bilan belgilangan markaziy ko'chalarda, maydonlarda, boshqa jamoat joylarida va obyektlarda (soat 6 da ko'tariladi va soat 22 da tushirib qo'yiladi); O'zR Prezidenti saylovi, O'zR Oliy Majlisi QP deputatlari, Senati a'zolari, xalq deputatlari Kengashlarining deputatlari saylovi yoki referendum kunlarida ovoz berish o'tkazilayotgan binolar va xonalarda (ovoz berish yoki referendum o'tkazish davrida ko'tarib qo'yiladi); O'zRning diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalari binolarida yoki hududlarida va transport vositalarida - xalqaro huquq normalariga, diplomatik protokol qoidalariga hamda vakolatxonalar va muassasalar joylashgan davlatning qonun hujjatlariga muvofiq, xorijiy davlatlar davlat va hukumat boshliqlarining, boshqa rasmiy delegatsiyalarining xalqaro huquq normalariga, diplomatik protokol qoidalariga, shuningdek, O'zRda bo'lishining tasdiqlangan dasturiga muvofiq transport vositalarida, vokzallarda, aeroportlarda, yuriah yo'nalishi bo'yicha va boshqa tashrif obyektlarida (xorijiy davlatlar davlat va hukumat boshliqlarining, boshqa rasmiy delegatsiyalarining tashrif buyurishidan 24 soat oldin ko'tariladi va ular jo'nah ketganidan keyin 24 soat mobaynida tushirib qo'yiladi); sport maydonlarida O'zR chempionatlarini, milliy terma komandalar ishtirokida xalqaro sport musobaqalarini o'tkazish vaqtida hamda xalqaro sport musobaqalarining O'zR sport terma komandalarning vakillari bo'lgan g'oliblarini mukofotlash marosimlarini o'tkazish vaqtida va qonunda ko'zda tutilgan boshqa hollarda ko'tariladi.




O'zbekistonning Davlat gerbi O'zR Oliy Kengashining X sessiyasida 1992-yil 2-iyul kuni tasdiqlandi. "Gerb" so'zi nomisha "Erbo" so'zidan olingan bo'lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va boshqa nasldan-naslga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi. Bundan 2500 yil muqaddam Erondan Oltoyga qadar cho'zilgan ulkan sarhadda hukm surgan O'g'uzxon davrida ham turkcha "tamg'a" so'zi aynan shu ma'noni bildirar edi. XII asrning mashhur tarixchisi Rashiddin Hamadoni "Tanlangan tarixlar" nomli kitobida shahodat berishicha, O'g'uzxon o'z mol-mulkini o'g'illariga ulus sifatida kichik davlatlarga bo'lib, in'om etgan. Ushbu davlatlar hukmdorlari ham o'zlarining xonlik tamg'alariga ega edi.

O'zR Davlat gerbi respublika davlat mustaqilligining ramzidir. O'zR Davlat gerbining tasviri O'zR Prezidenti devonining binosida, Oliy Majlis palatalarining binolarida, O'zR Hukumati binosida, davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarining binolarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari, O'zR VMga qarashli boshqa organlarning binolarida, sudlarning binolarida, prokuratura idoralarining binolarida, O'zR diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalarining binolarida, O'zR Oliy Majlisi QP va Senatining qo'shma majlislari, O'zR Oliy Majlisining QP va uning Kengashi majlislari, O'zR Oliy Majlisining Senat va uning Kengashi majlislari, O'zR VMning majlislari, xalq deputatlari Kengashlarining sessivalari o'tkazilayotgan zallarda, sudlarning sud majlislari zallarida, shuningdek, tug'ilish va nikoh tantanali suratda ro'yxatga dinadigan xonalarda, O'zR Oliy Majlisining QP, uning Kengashi, qo'mitalari va O'zR Oliy Majlisi QPning devoni, O'zR Oliy Majlisining Senat, uning Kengashi, qo'mitalari va O'zR Oliy Majlisi Senatining devoni, O'zR VM, O'zR diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalari, O'zR vazirliklari va davlat qo'mitalarining, O'zR VMga qarashli boshqa organlarning, sudlarning, O'zR MSK, O'zR prokuratura organlari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining, davlat notarial idoralarining, O'zR bank muassasalari va tashkilotlarining, shuningdek, O'zR qonun hujjatlari bilan muhrlari va hujjat blankalarida gerbning tasvirini tushirish huquqi berilgan respublika va mahalliy bo'ysunuvdagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning muhrlari va hujjat blankalarida, O'zR Prezidentining, Oliy Majlis palatalarining, VMning rasmiy nashrlarida, O'zRning pul birliklarida, qimmatli qog'ozlarida, obligatsiyalarida, pochta markalarida, pul-buyum lotereyasi biletlarida, O'zR fuqarosining pasportida, shuningdek, O'zR fuqarolariga beriladigan diplomatiya va o'zga chet el pasportlarida, O'zRning davlat chegaralarida o'rnatiladigan sarhad stolbalarida o'rnatib qo'yiladi.

O'zR Davlat gerbining takrorlanayotgan tasviri, uning katta-kichikligidan qat'iy nazar, Qonunga ilova qilingan rangli va oq-qora tasviriga aniq mos bo'lishi kerak.

O'zRning fuqarolari, shuningdek, respublikada turgan o'zga shaxslar O'zRning Davlat gerbini burmat qilishlari shart.



O'zR Davlat gerbi quyidagi ko'rinishga ega: tog'lar, daryolar va so'l tomoni bug'doy boshqlaridan, o'ng tomoni esa chanoqlari ochilgan g'o'za shoxlaridan iborat chambarga o'ralgan gullagan vodi' uzra zarrin nurlarini sochib turadi. Gerbning yuqori qismida respublika hurrligining ramzi sifatida sakkizburchak tasvirlangan bo'lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasvirlangan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi – qanotlarini yozgan Xumo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida respublika Davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chamber lentasining bantida "O'zbekiston" deb yozib qo'yilgan.

## O'zbekistonning Davlat madhiyasi

O'zRning Davlat madhiyasi *(Mutal (Mutavakkil) Burhonov musiqasi, Abdulla Oripov so'zi)* O'zRda nishonlanadigan umumxalq bayramlariga bag'ishlangan tantanali yig'ilishlar va majlislarning ochilishi hamda yopilishi vaqtida, Yangi yil kechasi Toshkent vaqti bilan soat 24 da respublika televideniyesi va respublika radiosi orqali; O'zRda nishonlanadigan umumxalq bayramlari kunlarida respublika televideniyesi orqali – dasturlarning boshlanishida; har kuni O'zbekiston radiosi respublika ichki radioeshittirishlar orqali dasturlarning boshlanishi va tugallanishi oldidan, respublika hayotidagi muhim tarixiy voqealarni nishonlash yuzasidan, atoqli siyosiy, davlat va harbiy arboblari, xalq qahramonlari, fan, adabiyot va san'at arboblari sharafiga o'rnatilgan haykallar, shuningdek, monumentlar, yodgorliklar va boshqa inshootlarning ochilishi vaqtida, davlat idoralari, korxonalar, muassasalar va jamoat birlashmalari tomonidan o'tkaziladigan marosimlar va boshqa tantanali tadbirlarda O'zRning Davlat bayrog'ini ko'tarish chog'ida, rasmiy safar bilan O'zRga tashrif buyurgan xorijiy mamlakatlarning davlat boshliqlari va hukumat boshliqlarini kutib olish va kuzatish vaqtida - tegishli xorijiy davlatning Davlat madhiyasi aytib bo'linganidan keyin ijro etiladi.

O'zRning Davlat madhiyasi orkestr, xor, ham orkestr, ham xor tomonidan yoki o'zga vokal va cholg'u asboblari bilan ijro etilishi mumkin. Bunda ovoz yozib olish vositalaridan foydalanilishi mumkin. O'zRning Davlat madhiyasi vokal hamda vokal-cholg'u asboblari bilan ijro etilgan taqdirda to'liq ijro etiladi, cholg'u asboblarning o'zida ijro etilgan taqdirda esa madhiya qisman ijro etilishiga yo'l qo'yiladi – asbubning boshlanishi va naqarat bir martadan aytiladi.

Serquyosh, bur o'lkam, elga baxt, najot,  
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, qehribon!  
Yashnagay to' abad ilmu fan, ijod,  
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

**Naqarat:**

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona rubi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,  
Erkin yosh avlodlar senga zo'r qanot!  
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,  
Haqsevar ona yurt, mangu bo'l obod!

**Naqarat:**

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona rubi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

## Davlat hokimiyatining bo'linish prinsipi


### "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MUSTAQILLIGI ASOSLARI TO'G'IRISIDA"


O'zRning Qonuni  
(1991.31.08.)

O'zRning Mustaqillik deklaratsiyasiga va O'zRning Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonotga asoslanib, O'zRning Oliy Kengashi ushbu Qonunni qabul qiladi.

#### 5-modda.

O'zRda O'zRning Konstitutsiyasi va uning qonunlari ustundir. O'zR davlat idoralarning tizimi hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida quriladi.





## O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi

### "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MUSTAQILLIGI ASOSLARI TO'G'IRISIDA" O'zRning Qonuni (1991.31.08.)

O'zRning Mustaqillik deklaratsiyasiga va O'zRning Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonotga asoslanib, O'zRning Oliy Kengashi ushbu Qonunni qabul qiladi.

#### 15- modda.

O'zR hududida Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq holda O'zR fuqaroligi joriy etiladi.

O'zRning barcha fuqarolari millatidan, elatidan, ijtimoiy chiqishidan, qaysi dinga mansubligidan va e'tiqodidan qat'iy nazar bir xil fuqarolik huquqlariga egadirlar. respublika Konstitutsiyasi hamda uning qonunlari himoyasida bo'ladilar.

O'zRning fuqarolari respublikadan tashqarida ham O'zRning himoyasida bo'ladilar.

#### O'zbekiston Konstitutsiyasi bo'yicha:

- O'zbekistonning butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi. (21-I)
- Fuqarolik hamma uchun tengdir (unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'iy nazar). (21-II)
- Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekistonning fuqarosi hisoblanadi. (21-III)

Quyidagilar qonun bilan belgilanadi:

(21-IV)

Fuqarolikka ega bo'lish  
asoslari va tartibi

Fuqarolikni yo'qotish asoslari  
va tartibi

O'zRning fuqaroligi shaxs bilan davlatning doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi, bu aloqa ularning o'zaro huquqlari va burchlarida ifodalanadi. O'zRda har bir kishi fuqaro bo'lish huquqiga egadir. Hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas. O'zR o'z idoralari va mansabdor shaxslari orqali O'zR fuqarolari oldida mas'uldir, O'zRning fuqarosi esa davlat oldida mas'uldir. O'zR O'zbekiston hududida va uning tashqarisida o'z fuqarolarining huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qiladi.

Quyidagilar O'zRning fuqarolari bo'ladilar:

1) kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tili, siyosiy qarashlari, diniy e'tiqodi, mashg'ulotining turi va sariyasidan qat'iy nazar, "O'zRning fuqaroligi to'g'risida"gi Qonun kuchga kirgan vaqtida<sup>1</sup> O'zRda doimiy yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'lmagan hamda O'zRning fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslar.

<sup>1</sup> "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi Qonun 1992-yil 28-ryildan e'tiboran kuchga kirgan.

2) davlat yo'llanmasi bilan O'zRdan tashqarida ishlayotgan, harbiy xizmatni o'tayotgan yoki o'qiyotgan shaxslar, agar ular O'zRning hududida tug'ilgan bo'lsalar yoki doimiy yashaganliklarini isbot qilgan bo'lsalar, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'lmasalar va "O'zRning fuqaroligi to'g'risida"gi Qonun kuchga kirganidan keyin kechi bilan bir yil ichida O'zRning fuqarosi bo'lish istagini bildirgan bo'lsalar,

3) "O'zRning fuqaroligi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq O'zRning fuqaroligini olgan shaxslar

O'zR fuqarosining pasporti, pasport olingunga qadar esa — tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma yoki shaxsning fuqaroligiga doir ma'lumotlar bo'lgan o'zga hujjat — O'zRning fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatlar deb hisoblanadi.

O'zR fuqarosining chet elda yashashi O'zR fuqaroligining to'xtatilishiga olib kelmaydi. Chet elda O'zRning fuqarolari O'zRning himoyasi va homiyligidan foydalanadilar O'zR fuqarosi bo'lgan shaxsning chet davlat fuqaroligiga mansubligi tan olinmaydi.

O'zR hududida yashab turgani holda O'zR fuqarosi bo'lmagan va chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo'lmagan shaxslar *fuqaroligi bo'lmagan shaxslar* deb hisoblanadi.

O'zR fuqaroligi quyidagi hollarda olinadi:

1) tug'ilganda,

2) O'zR fuqaroligiga qabul qilinishi natijasida,

3) O'zRning xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha,

4) "O'zRning fuqaroligi to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha

O'zRning fuqaroligiga qabul qilish shartlari quyidagilardan iborat

1) chet el fuqaroligidan voz kechish,

2) so'nggi 5 yil davomida O'zR hududida doimiy yashaganlik

Ushbu qorda O'zRning fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslarga, basharti ular shu yerda tug'ilgan va hech bo'lmasa ota-onasidan biri, buvasi yoki buvasi O'zR hududida tug'ilganligini va boshqa davlatlarning fuqarosi emasligini isbotlasa, taaliuqli bo'lmaydi,

3) qonuniy trikchilik manbalarining mavjudligi,

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olish va bajarish

1-, 2- va 3- bandlarda qayd etib o'tilgan talablar alohida hollardagina O'zR Prezidentining qaroriga binoan O'zR oldida buyuk xizmatlari yoki fan, texnika va madaniyat sohasida katta yutuqlari bo'lgan, shuningdek, O'zRni qiziqiradigan kash yoxud malakaga ega bo'lgan ayrim shaxslarga nisbatan hisobga olinmasligi mumkin.

O'zR fuqaroligi quyidagi hollarda to'xtatiladi:

1) O'zR fuqaroligidan chiqish oqibatida,

2) O'zR fuqaroligini yo'qotish oqibatida,

3) O'zRning xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslarga binoan;

4) "O'zRning fuqaroligi to'g'risida"gi O'zRning Qonunida ko'zda tutilgan boshqa asoslarga binoan

O'zR fuqaroligining to'xtatilishi QorR fuqaroligining to'xtatilishiga sabab bo'ladi.



**Ota va onaning fuqaroligi bo'yicha bolaning fuqaroligini aniqlash**  
 ("O'zRning fuqaroligi to'g'risida"gi O'zRning Qonuni asosida)

Tartib raqami	 Ota	 Ona	 Bola	Shartlar yoki holatlar
1.	Noma'lum	Noma'lum	O'zR fuqarosi	Bola O'zbekiston hududida yashayotgan bo'lsa
2.	Fuqaroligi bo'lmagan, O'zRda doimiy istiqomat joyiga ega	Fuqaroligi bo'lmagan, O'zRda doimiy istiqomat joyiga ega	O'zR fuqarosi	Bola O'zR hududida tug'ilgan bo'lsa
3.	O'zR fuqarosi (bola tug'ilgan paytda)	Fuqaroligi yo'q shaxs	O'zR fuqarosi	Bola qayerda tug'ilgan bo'lishidan qat'iy nazar
4.	Fuqaroligi yo'q shaxs	O'zR fuqarosi (bola tug'ilgan paytda)	O'zR fuqarosi	Bola qayerda tug'ilgan bo'lishidan qat'iy nazar
5.	O'zR fuqarosi (bola tug'ilgan paytda)	Noma'lum	O'zR fuqarosi	Bola qayerda tug'ilgan bo'lishidan qat'iy nazar
6.	Noma'lum	O'zR fuqarosi (bola tug'ilgan paytda)	O'zR fuqarosi	Bola qayerda tug'ilgan bo'lishidan qat'iy nazar
7.	O'zR fuqarosi (bola tug'ilgan paytda)	O'zR fuqarosi (bola tug'ilgan paytda)	O'zR fuqarosi	Bola O'zR hududida yovud O'zRdan tashqarida tug'ilgan bo'lishidan qat'iy nazar
8.	O'zR fuqarosi (bola tug'ilgan paytda)	Chet el fuqarosi	O'zR fuqarosi	Bola O'zR hududida tug'ilgan bo'lsa
9.	Chet el fuqarosi	O'zR fuqarosi (bola tug'ilgan paytda)	O'zR fuqarosi	Bola O'zR hududida tug'ilgan bo'lsa
10.	O'zR fuqarosi (bola tug'ilgan paytda)	Chet el fuqarosi (O'zRda doimiy istiqomat joyiga ega)	O'zR fuqarosi	Bola O'zR hududidan tashqarida tug'ilgan
11.	Chet el fuqarosi (O'zRda doimiy istiqomat joyiga ega)	O'zR fuqarosi (bola tug'ilgan paytda)	O'zR fuqarosi	Bola O'zR hududidan tashqarida tug'ilgan
12.	Bola tug'ilgan paytda O'zR fuqarosi (O'zRda doimiy istiqomat joyiga ega)	Chet el fuqarosi	O'zR fuqarosi	<b>Bola O'zR hududidan tashqarida tug'ilgan</b>
13.	Chet el fuqarosi (O'zRda doimiy istiqomat joyiga ega)	Bola tug'ilgan paytda O'zR fuqarosi (O'zRda doimiy istiqomat joyiga ega)	O'zR fuqarosi	Bola O'zR hududidan tashqarida tug'ilgan
14.	Bola tug'ilgan paytda O'zR fuqarosi (O'zRda doimiy istiqomat joyiga ega)	Chet el fuqarosi (O'zRda doimiy istiqomat joyiga ega)	O'zR fuqarosi	<b>Bola O'zR hududidan tashqarida tug'ilgan</b>
15.	Chet el fuqarosi (O'zRda doimiy istiqomat joyiga ega)	Bola tug'ilgan paytda O'zR fuqarosi (O'zRda doimiy istiqomat joyiga ega)	O'zR fuqarosi	Bola O'zR hududidan tashqarida tug'ilgan
16.	Bola tug'ilgan paytda O'zR fuqarosi (O'zRdan tashqarida doimiy istiqomat joyiga ega)	Chet el fuqarosi (O'zRdan tashqarida doimiy istiqomat joyiga ega)	Ota-onaning yozma tarzda ifodalangan kelishuvi asosida	<b>Bola O'zRdan tashqarida tug'ilgan</b>
17.	Chet el fuqarosi (O'zRdan tashqarida doimiy istiqomat joyiga ega)	Bola tug'ilgan paytda O'zR fuqarosi (O'zRdan tashqarida doimiy istiqomat joyiga ega)	Ota-onaning yozma tarzda ifodalangan kelishuvi asosida	Bola O'zRdan tashqarida tug'ilgan

## Referendum tushunchasi

### REFERENDUM

- jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalarini xalq muhokamasiga taqdim etish, umumiy ovozga qo'yish. (9)

O'zRning fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqartishda bevosita referendumlar o'tkazish yo'li bilan ishtirok etish huquqiga egadirlar. (32)

QorR O'zR tarkibidan QorR xalqning umumiy referendumini asosida ajralib chiqish huquqiga ega. (74)

O'zRning referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish O'zR Oliy Majlisi QP va Senatining birgalikdagi vakolatlariga kiradi. (79-1,3)

O'zRning Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar O'zRning referendumini bilan kiritilishi mumkin. (127)

Konstitutsiyada belgilangani (9) bo'yicha "O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida" O'zRning Qonuni (1991-yilning 18-noyabrda) qabul qilingan. Hozirgi kunda mazkur Qonunning yangi tahriri amalda.

**O'zRning referendumini** - O'zRning qonunlarini va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumiy xalq ovoz berishi. ("O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida"gi Qonun 1-madda, 1-qism)

O'zbekiston xalqi nomidan...

O'ZBEKISTON XALQI  
nomidan ish olib borishi mumkin:  
(10-1)

OLY MAJLIS

PREZIDENT  
(93-1,3)

Ular xalq tomonidan saylanadi. (77, 90)

Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy  
barakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli  
emas. (10-11)

O'zbekistonda demokratiya asosi  
(13-1)

Umuminsoniy prinsiplar

Insonning sharafigi

Inson va uning hayoti

Insonning qadr-qimmatini

Insonning erkinligi

Oliy  
qadriyat

Insonning boshqa daxlsiz huquqlari

## Davlat faoliyatining asoslari

### Davlat faoliyatining asoslari

(14)

Inson va jamiyat farovonligini ko'zlab ushbu prinsiplar asosida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy adolat prinsipi

Qonuniylik prinsipi

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart. (18-11)

"O'zbekiston xalqi [...] demokratiya va ijtimoiy adolatlga sadoqatini namoyon qilib, [...] o'zining muxtor vakillari siyosida O'zRning [...] Konstitutsiyasini qabul qiladi". (Muqaddimadan)

### IJTIMOY HAYOT TARAQQIYOTINING ASOSLARI

(12-1)

Siyosiy institutlar  
xilma-xilligi

Mafkuralar xilma-xilligi

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi  
sifatida o'rnatilishi mumkin emas.

(12-11)

Fikrlar xilma-  
xilligi

# Konstitutsiya va qonunning ustunligi

O'zbekiston Respublikasida...

... Konstitutsiyaning ustunligi

so'zsiz tan olinadi.

(15-1)

... qonunlarning ustunligi

so'zsiz tan olinadi.

(15-1)

Davlat Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radi.

(15-II)

(16-I)

Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zR huquq va manfaatlariga zarur yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

(72)

O'zR qonunlari QoRning hududida ham majburiydir.

(16-II)

Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari  
(Umumiy qoidalar)

- "O'zbekiston xalqi inson huquqlariga [...] sodiqligini umumanl ravishda o'z jon qilib [...] Konstitutsiyam qabul qiladi" (*shog'udim-asalom*)
- "O'zbekiston xalqi [...] respublika fuqarolarining umumiy hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib [...] Konstitutsiyam qabul qiladi" (*shog'udim-asalom*)
- "O'zbekistondagi ebot-oid fuqarolarni va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari zahiraro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi." (23)
- Inson, uning hayoti, erkligi, shu sh, qadr-qimmat va boshqa darduz huquqlari — oliy qadriyat (*O'zbekistonda demokratik va insonimushofiy prinsiplarga asoslanadi*), (13-1)
- Barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega. (18-1)  
— Insiyofalar qonunida belgilanadi va g'ijimofiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart (18-1b)
- Barcha fuqarolar qonun oldida tengdirlar (jinn, irq, millat, til, dini, g'ijimofiy kelib chiqishi, e'iqof, shaxsiy va g'ijimofiy manoyishidan qat'iy nazar), (18-1)  
— Insiyofalar qonunida belgilanadi va g'ijimofiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart (18-1b)
- Fuqaro va davlat bir-biriga mas'uldar bo'lgan huquqlari hisso o'zaro bog'lanadir (19)
- Fuqarolarning Konstitutsiyaga va qonunlarda tashkilatlanib qo'yilgan huquq va erkinliklari davlatida, ulardan sud qarorlariz mahrum etilgaga yuldi ilarni davlatda qo'yilgaga hech Kim huqfi emas (19)

## Insonning shaxsiy huquq va erkinliklari

### SHAXSIY HUQUQLAR

(24) **Yashash huquqi.** Bu har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

(25-1) **Shaxsiy daxlsizlik huquqi.** (25-II) Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

(27-1) **Turar joy daxlsizligi huquqi.**

(27-II) Hech kim bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

**Ishtisno:** Qonunda nazarda tutilgan hollar va tartib.

(25-1) **Shaxsiy erkinlik huquqi.**

(28) O'zbekiston hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish huquqi (cheklashlar qonunda belgilanadi).

(28) **O'z Rga kelish va undan chiqib ketish huquqi** (cheklashlar qonunda belgilanadi).

(26-1) Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsning ishi sudda qonunfy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha, uning aybdor deb hisoblanmaslik huquqi.

(26-II) Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'rvonlikka, shavqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. (26-III) Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

(26-1) **Ayblanuvchining himoyalanih huquqi.** (26-1) Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi. (116-II) Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi.

(27-1) **O'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan himoyalanih huquqi.**

(27-1) **Shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanih huquqi.**

(29-1) **O'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqi.**

**Ishtisno:** amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar.

(44) **Huquq va erkinliklarni sud orqali himoya qilish huquqi.**

(44) Davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi.

(31) **Xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqi.**

(115) Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi.

### SHAXSIY ERKINLIKLAR

(29-1) **Fikrlash erkinligi.** (29-II) **Qonuniy cheklashning asosi:** Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirda.

(29-1) **So'z erkinligi.** (29-II) **Qonuniy cheklashning asosi:** Erkinlik davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirda.

(31) **Vijdon erkinligi.** (31) Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

(29-1) **E'tiqod erkinligi.**

## Siyosiy huquq va erkinliklar

### SIYOSIY HUQUQLAR

• (117-I, II) 18 yoshga to'lgan fuqaroning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash (saylovda ovoz berish) huquqi. Har bir saylovchi bir ovozga ega.

• Davlat hokimiyati vakillik organlariga saylanish huquqi. (117-I)

Bir vaqtning o'zida ikkidan ortiq vakillik organining deputati bo'lish mumkin emas. (117-IV)  
Istisno hollar (117-IV):

1. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro;
2. Sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joyida saqlanayotgan shaxs

(117-IV): Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

• Jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda (bevosita va o'z vakillari orqali) ishtirok etish huquqi (o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan). (32)

• Mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlarda (bular ijtimoiy faollik shakllaridir) ishtirok etish huquqi. Bunday tadbirlarni o'tkazish hokimiyat organlari tomonidan xavfsizlik nuqtayi nazaridan to'xtatilishi yoki taqiqlanishi mumkin. (33)

• Kasaba uyushmalariga uyushish huquqi. (34-I)

• Siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish huquqi. (34-I)

Siyosiy partiyalarda ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas. (34-II)

• Ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi. (34-I)

Ommaviy harakatlarda ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas. (34-II)

• Bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalarga yoki xalq vakillariga murojaat qilish (ariza, taklif va shikoyatlar shaklida) huquqi. (35-I)

Murojaat qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart. (35-II)

### SIYOSIY ERKINLIKLAR

• Saylovda o'z xohish-irodasini bildirish erkinligi. (117-I)

Istisno hollar (117-IV):

1. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro;
2. Sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joyida saqlanayotgan shaxs.



## Iqtisodiy huquq va erkinliklar

### IQTISODIY HUQUQLAR

*(36-I) Mulkdor bo'lish (xususiy mulk) huquqi.*

*(53-II) Xususiy mulk davlat himoyasida.*

*(54) Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.*

*(36-II) Meros huquqi.*

*(37-I) Mehnat qilish huquqi.*

*(37-II) Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.*

*(37-I) Adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqi.*

*(37-I) Ishsizlikdan himoyalarda huquqi.*

*(38) Yollanib ishlayotgan fuqaroning dam olish huquqi.*

*(38) Ish vaqti va mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi.*

### IQTISODIY ERKINLIKLAR

*(53-I) Tadbirkorlik erkinligi.*

*(37-I) Kasb tanlash erkinligi.*

*(53-I) Mehnat qilish erkinligi.*

*(37-II) Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.*

*(53-I) Iqtisodiy faoliyat erkinligi.*

## Ijtimoiy huquq va erkinliklar

### *IJTIMOIY HUQUQLAR*

*(39-I) Ijtimoiy ta'minot olish huquqi:*

- qariganda;
- mehnat layoqatini yo'qotganda;
- hoquqchisidan mahrum bo'lganda;
- qonunda belgilangan boshqa hollarda.

*(39-II) Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan birlikchilik uchun zarur eng kam miqdordan o'z bo'lishi mumkin emas.*

*(41-I) Bilim olish huquqi.*

*(41-III) Maktab tahlari davlat nazoratidir.*

*(40) Makalali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi.*

*(42-I) Madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi.*

*(42-II) Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.*

### *IJTIMOIY ERKINLIKLAR*

*(42-I) Ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi.*

*(42-II) Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.*

## Fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatlari

(93-I,1) Prezident fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilishining kafolidir. Prezident qasamyodidan (92): "[...] fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga [...] tantanali qasamyod qilaman".

(13-II) Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi

(43) Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini ta'minlaydi.

(46) Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

(45) Ushbular davlat himoyasida:

- voyaga yetmaganlarning huquqlari;
- mehnatga layoqatsizlarning huquqlari;
- yolg'iz keksalarning huquqlari.

(53-I) Barcha mulk shakllari teng huquqlidir. Xilma-xil shakllardagi mulk – bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizidir.

(53-I) Iste'molchilarning huquqi ustunligi hisobga olinib, barcha mulk shakllari huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etiladi.

(53-II) Barcha mulk shakllari (xususiy mulk ham) daxtsizdir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

(121-II) Qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko'rsatishlari mumkin.

### DAVLAT TOMONIDAN BERILADIGAN KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLAR

Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi (36-II)

Bepul umumiy ta'lim olish (41-II)

Huquq va erkinliklarni sud orqali himoya qilish huquqi (44)

O'zbekiston o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qiladi va ularga homiylik ko'rsatadi. (22)

Davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi (44)

## Fuqarolarning burchlari

(47) Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarni bajaradilar.

(48) Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish.  
(15-II) Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.  
→ (93-I,1) Prezident Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir.

(48) Boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadriyatini hurmat qilish.

Xalqning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash. (49-I)  
Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir. (49-II)

(50) Atrof tabiiy muhitga chiyotkorona munosabatta bo'lish.

(51) Soliqlar va mahalliy yig'inlarni to'lash.

(52) O'zini himoya qilish. Harbiy yoki muqobil xizmatni o'tash.

(19) Fuqaro va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar.

(23) O'zbekistondagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar Konstitutsiya, qonunlar va xalqaro shartnomalar bilan belgilangan burchlarni ado etadilar.

(55) Umummilliy boylik bo'lgan yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish. Ular davlat muhofazasidadir.

(66) Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlarning o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishi.

(64-I) Ota-onalarning o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqishi va tarbiyalashi.

(65-I) Farzandlar qonun oldida tengdirlar (ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar).

(20) O'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur etkazmaslik.

(54) Muлкдорning o'z muлкidan foydalanishda ekologik muhitga zarar etkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi.

## Jamoat birlashmalari

*Qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, quyidagilar jamoat birlashmasi sifatida e'tirof etiladi.*

<b>(56) Kasaba uyushmalari</b>	<p>(59) Xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadi va himoya qiladi. A'zo bo'lish - ixtiyoriy.</p> <p>(10-II) O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.</p>
<b>(56) Siyosiy partiyalar</b>	<p style="text-align: center;">(60)</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifoda etadi.</li> <li>• O'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar.</li> <li>• O'z faoliyatlarini moliyaviy ta'minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga (yoki u vakil qilgan organga) oshkora hisobotlar berib turadi.</li> </ul> <p>(10-II) O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.</p>
<b>(56) Olimlarning jamiyatlari</b>	<p>(10-II) O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.</p>
<b>(56) Xotin-qizlar tashkilotlari</b>	
<b>(56) Faxriylar tashkilotlari</b>	
<b>(56) Yoshlar tashkilotlari</b>	
<b>(56) Ijodiy uyushmalar</b>	
<b>(56) Umumiy harakatlar</b>	
<b>(61) Diniy tashkilotlar va birlashmalar</b>	<p style="text-align: center;">(61)</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Davlatdan ajratilgan.</li> <li>• Qonun oldida teng.</li> <li>• Davlat ularning faoliyatiga aralashmaydi.</li> </ul> <p>(10-II) O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.</p>
<b>(56) Fuqarolarning boshqa uyushmalari</b>	<p>(10-II) O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.</p>

## Taқиqlanadigan jamoat birlashmalari

*(57-1) Quyidagilarning tuzilishi va faoliyat ko'rsatishi taқиqlanadi:*

• Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi birlashmalar.

• O'z Rning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga qarshi chiquvchi birlashmalar.

• Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi birlashmalar.

• Urushni targ'ib qiluvchi birlashmalar

• Ijtimoiy adovatni targ'ib qiluvchi birlashmalar.

• Milliy adovatni targ'ib qiluvchi birlashmalar.

• Irqiy adovatni targ'ib qiluvchi birlashmalar.

• Diniy adovatni targ'ib qiluvchi birlashmalar.

• Xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi birlashmalar.

• Harbiylashtirilgan birlashmalar.

• Milliy ruhdagi siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari.

• Diniy ruhdagi siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari.


• (57-II) Maxfiy jamiyatlar.

• (57-III) Maxfiy uyushmalar.

• (121-1) Jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha *terkor-qidiruv* vazifasini mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy, kooperativ tashkilotlar va jamoat birlashmalari hamda ularning bo'linmalari.

• (121-1) Jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha *tergov va boshqa* vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy, kooperativ tashkilotlar va jamoat birlashmalari hamda ularning bo'linmalari.

## Davlat organlari va jamoat birlashmalari



## Nikoh va oila

### OILA

(63-1)  
Jamiyatning asosiy bo'g'ini

### (63-11) NIKOH ASOSLARI

Tomonlarning ixtiyoriy roziligi

Tomonlarning teng huquqliligi

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi. (64-11)

Ushbular davlat muhofazasida:

**ONALIK**  
(65-11)

### OILA

(63-1)  
Oila jamiyat muhofazasida bo'lish  
huquqiga ega.

**BOLALIK**  
(65-11)



OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

- (67-I) Ular erkindir, qoʻnunga muvofiq ishlaydi va axborotning toʻgʻriligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar.
- (67-II) Senzuraga yoʻl qoʻyilmaydi.

OʻzRda OAVni senzura qilishga yoʻl qoʻyilmaydi. Eʼlon qilinayotgan xabarlar va materiallar oldindan kelishib olinishini, shuningdek, ularning maʼni oʻzgartirilishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishini (efirga berilmasligini) talab qilishga hech kimning haqqi yoʻq.

**OAV** — ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega boʻlgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video, kinostronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb-saytlar) 6 oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari.

OʻzRda OAV oʻz faoliyatini “Davlat tili haqida”gi OʻzR Qonuniga muvofiq amalga oshiradi.

OAV orqali fuqarolarning shaʼni va qadr-qimmatini yoki ishchanlik obroʻsini tahqirlash, shaxsiy hayotiga aralashish taqiqlanadi. Yuridik yoki jismoniy shaxs OAVda eʼlon qilingan, haqiqatga mos kelmaydigan hamda oʻzining shaʼni va qadr-qimmatini yoki ishchanlik obroʻsini tahqirlovchi maʼlumotlar uchun raddiya berishni tahririyatdan talab qilishga haqlidir. OAV raddiyani, javobni eʼlon qilishdan boʻyin tovlasa yoxud ularni eʼlon qilish uchun belgilab qoʻyilgan muddatni buzsa, yuridik yoki jismoniy shaxs daʼvo arizasi bilan sudga murojaat qilishga haqlidir.

# O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi

O'zbekiston  
Respublikasi

(3-1) Quyidagilarni belgilaydi:

O'z milliy-  
davlat  
tuzilishini

O'z ma'muriy-  
hududiy  
tuzilishini

O'z davlat  
hokimiyati  
organlarining  
tizimini

O'z boshqaruv  
organlarining  
tizimini

O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi  
(68)

Viloyat

Tuman

Qishloq

Ovul

Shahar

Shaharcha

Qoraqalpog'iston  
(75) O'z ma'muriy-hududiy  
tuzilishi masalalarini  
mustaqil hal etadi.

(69)  
Ularni tashkil qilish va tugatish  
(viloyatlarning chegaralarini o'zgartirish  
ham) Oliy Majlisning roziligi bilan  
amalga oshiriladi.

(70-1)  
Suveren  
Qoraqalpog'iston  
O'zbekiston  
tarkibiga kiradi.

(74)  
Qoraqalpog'iston  
xalqining umumiy  
referendumi  
asosida ajralib  
chiqish huquqiga  
ega.

### O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishi<sup>3</sup>

	Qishloq tumanlari	Shaharlar	Shaharchalar	Qishloqlar (ovullar)
O'zbekiston	159	120	117	1459
Qoraqalpog'iston	14	12	17	124
Andijon viloyati	14	11	5	95
Buxoro viloyati	11	11	3	120
Jizzax viloyati	12	7	8	95
Navoiy viloyati	8	7	8	55
Namangan viloyati	11	8	12	99
Samarqand viloyati	14	11	12	125
Sirdaryo viloyati	8	5	6	75
Surxondaryo viloyati	14	8	7	114
Toshkent viloyati	15	16	18	146
Farg'ona viloyati	15	9	10	164
Xorazm viloyati	10	3	7	100
Qashqadaryo viloyati	13	12	4	147



- 1 - Qoraqalpog'iston Respublikasi
- 2 - Xorazm viloyati
- 3 - Buxoro viloyati
- 4 - Navoiy viloyati
- 5 - Samarqand viloyati
- 6 - Qashqadaryo viloyati
- 7 - Surxondaryo viloyati
- 8 - Jizzax viloyati
- 9 - Sirdaryo viloyati
- 10 - Toshkent viloyati (Toshkent sh.)
- 11 - Namangan viloyati
- 12 - Farg'ona viloyati
- 13 - Andijon viloyati

<sup>3</sup> Ushbu mabla asosida: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 12- jild. Tahrir hay'ati. A. Azizko'jayev, B. Alimov, M. Aminov va b. - T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 591- b.

Qoraqalpog'iston Respublikasi

O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI

(75-1)  
O'zR bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari O'zR va QorR o'rtasida O'zR Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar va bitimlar bilan tartibga solinadi.

(75-II)  
O'zR va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasidagi nizolar murosaga keltiruvchi vositalar yordamida hal etiladi.

QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI

(71-I)  
O'z Konstitutsiyasiga ega.

QorRning fuqarosi ayni vaqtda  
O'zbekistonning fuqarosi hisoblanadi.  
(21-III)

O'zR qonunlari QorRning hududida ham  
majburiydir. (72)

Qoraqalpog'iston Respublikasining  
suvereniteti O'zbekiston tomonidan  
muhofaza etiladi. (70-II)

(73)  
QorRning hududi va chegaralari  
uning roziligsiz o'zgartirishi  
mumkin emas.

(69)  
QorRning chegarasini  
o'zgartirishi Oliy Majlisning  
roziligi bilan amalga oshiriladi.

## Oliy Majlis palatalarining mutlaq vakolatlari

### Oliy Majlis

(ohiy davlat vakillik organi)

(76-I)

(76-II)

Ikki palatasi

(76-II) Yuqori palata

Senat

(76-III) Vakolat muddati:

5 yil

(76-II) Quyi palata

Qonunchilik palatasi

(76-III) Vakolat muddati:

5 yil

### Mutlaq vakolatlari

(80-1) Senat Raisini va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash.

(80-13) O'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalarini bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish.

(80-14) Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish.

#### *Prezident taqdimiga binoan:*

(80-2) Konstitutsiyaviy sudni saylash.

(80-3) Oliy sudni saylash.

(80-4) Oliy xo'jalik sudini saylash.

(80-5) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisini tayinlash hamda uni lavozimidan ozod etish.

(80-8) O'zRning chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish.

(80-9) O'zR MB boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish.

(80-10) Amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish.

(79-1) Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash.

(79-3) O'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalarini bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish.

(79-4) Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish.

## Oliy Majlis palatalarining mutlaq vakolatlari

### Oliy Majlis

Senat

Qonunchilik palatasi

### Mutlaq vakolatlari

#### *Prezident farmonlarini tasdiqlash*

- (80-6) Bosh prokuror va Hisob palatasi raisini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlar;
- (80-7) MXX raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlar.

#### *Bosh prokuror taqdimiga binoan:*

(80-11)

Senat a'zosini daxsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish.

(79-2)

QP deputatini daxsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish.

#### *Hisobotlarni eshitish:*

(80-12)

- Bosh prokurorning hisobotini;
- Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisining hisobotini;
- MB boshqaruvi raisining hisobotini.

**Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlari**

**O l i y M a j l i s**

**SENAT**

(81-1)

Vakolat muddati tugagach, yangi chaqiruv Senati ish boshlagunga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

(81-1)

**QONUNCHILIK  
PALATASI**

Vakolat muddati tugagach, yangi chaqiruv Qonunchilik palatasi ish boshlagunga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

**(78) BIRGALIKDAGI VAKOLATLARI**

(78-11) Masalalarni ko'rib chiqish:

Ooida tariqasida, avval Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatda ko'rib chiqiladi.

(78-1,1) Konstitutsiyani qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

(78-1,2) Konstitutsiyaviy qonunlarni, qonunlarni qabul qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

(78-1,3) Referendum o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish.

(78-1,4) Ichki va tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish.

(78-1,5) Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarni belgilash.

(78-1,6) O'zbekiston tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning respublika tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash.

(78-1,7) Boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish.

(78-1,9) Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish. (123) O'zR hududida yagona soliq tizimi amal qiladi; soliqlar joriy qilishga faqat Oliy Majlis haqli.

(78-1,10) O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish.

(78-1,11) Tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirish.

(78-1,12) Davlat mukofotlari va unvonlarini ta'xis etish.

(78-1,14) MSKNi tuzish.

(78-1,15) Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish.

(78-1,16) Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarini saylash.

(78-1,17) Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish.

(78-1,20) Xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish.

(78-1,21) Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

**Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlari**

**Oliy Majlis**

**QONUNCHILIK  
PALATASI**

**SENAT**

**BIRGALIKDAGI VAKOLATLARI**

(78)

*Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan:*

(78-1,8) Davlat budgetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish.

*Prezident farmonlarini tasdiqlash:*

(78-1,13) Vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlar.

(78-1,18) O'zRga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonlar.

(78-1,19) Umumiy va qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlar.

*Prezident taqdimiga binoan:*

(78-1,15) Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash.



**Oliy Majlis palatalarining a'zolari soni**

	<b>QONUNCHILIK PALATASI</b>	<b>SENAT</b>
<b>A'zolarining soni</b>	<p>(77-I) 150 deputat (Ular qonunga muvofiq saylanadi.)</p>	<p>Hududiy vakillik palatasi (77-II) (77-III)</p>
		<p>6 kishi - Qorʻdan, 6 kishi - Toshkent viloyatidan, 6 kishi - Sirdaryo viloyatidan, 6 kishi - Jizzax viloyatidan, 6 kishi - Fargʻona viloyatidan, 6 kishi - Andijon viloyatidan, 6 kishi - Namangan viloyatidan, 6 kishi - Qashqadaryo viloyatidan, 6 kishi - Surxondaryo viloyatidan, 6 kishi - Samarqand viloyatidan, 6 kishi - Navoiy viloyatidan, 6 kishi - Buxoro viloyatidan, 6 kishi - Xorazm viloyatidan, 6 kishi - Toshkent shahridan, 16 kishi - Prezident tomonidan tayinlanadi (fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan).</p>
		<p>Vakolati tugashi munosabati bilan <b>iste'foga chiqqan Prezident umrbod Senat a'zosi</b> lavozimini egallaydi (97)</p>
	<p>(77-V) Ayni bir shaxs bir paytning o'zida deputat va senator bo'lishi mumkin emas.</p>	
<b>Majlislarning vakolatliligi</b>	<p>(81-V) Majlis ishida barcha deputatlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo'lsa.</p>	<p>(81-V) Majlis ishida barcha senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo'lsa.</p>
<b>Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilish</b>	<p>(81-VI) Barcha deputatlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.</p>	<p>(81-VI) Barcha senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.</p>

**Parlament palatalari a'zolari va majlislar o'tkazish**

	<b>QONUNCHILIK PALATASI</b>	<b>SENAT</b>
<b>A'zolarining atafisli</b>	(77-I) Deputat (Qonunchilik palatasi deputati)	(77-II) Senator (Senat a'zosi)
<b>A'zolarini saylash yoki tayinlash tartibi</b>	(77-I) 150 nafar deputat	(77-III; 117-III) QorR JK, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarda mazkur deputatlar saylanganidan so'ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan (84 kishi) saylanadi hamda Prezident tomonidan (16 kishi) tayinlanadi.
<b>Nomzodlarga qo'yiladigan talablar</b>	(77-IV) 1) saylov kuni 25 yoshga to'lgan O'zRning fuqarosi, 2) kamida 5 yil O'zR hududida muqim yashayotgan O'zRning fuqarosi. (77-IV) Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.	
<b>Birinchi majlisni chaqirish (81-II)</b>	(81-II) Birinchi majlis MSK tomonidan chaqiriladi.	
	(81-II) Saylovdan keyin ikki oydan kechiktirmay.	(81-II) Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay.
<b>Majlislar o'tkazish</b>	(81-III) Sessiyalar davrida o'tkaziladi. <i>Sessiyalar o'tkazish:</i> qoida tariqasida, sentabrning 1-ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar.	(81-IV) Zaruratga qarab o'tkaziladi (lekin bir yilda kamida 3 marta).
	(81-VIII) Palatalar alohida-alohida majlis o'tkazadilar.	
(81-VII) <b>Ushbu palatalar va ularning organlari majlislarida ishtirok etishi mumkin:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Prezident;</li> <li>• Bosh vazir;</li> <li>• Vazirlar Mahkamasining a'zolari;</li> <li>• Konstitutsiyaviy sud raisi;</li> <li>• Oliy sud raisi;</li> <li>• Oliy xo'jalik sud raisi;</li> <li>• Bosh prokuror;</li> <li>• Markaziy bank boshqaruvining raisi.</li> </ul>	
	• Senat Raisi.	• QP Spikeri.

**Oliy Majlis palatalari rahbarlarining vakolatlari**

<b>QONUNCHILIK PALATASI</b>	<b>SENAT</b>
Palata boshlig'i: <b>S P I K E R</b> (Qonunchilik palatasining Spikeri)	Palata boshlig'i: <b>R A I S</b> (Senat Raisi)
<i>Saylash:</i>	
Palata o'z tarkibidan (Spikerning o'rinbosarlarini ham) saylaydi (85-I): <ul style="list-style-type: none"> <li>• yashirin ovoz berish orqali; (85-II)</li> <li>• deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan; (85-II)</li> <li>• 5 yilga (palata vakolati muddatiga). (85-II)</li> </ul>	Senat o'z tarkibidan Rais (Rais Prezident taqdimiga binoan) va uning o'rinbosarlarini (86-II: bulardan biri QorRning vakili bo'ladi) saylaydi (86-I): <ul style="list-style-type: none"> <li>• yashirin ovoz berish orqali; (86-III)</li> <li>• senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan; (86-III)</li> <li>• 5 yilga (Senat vakolati muddatiga). (86-III)</li> </ul>
<i>Muddatidan ilgari chaqirib olish:</i>	
(85-III) Spiker: yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan palata qaroriga binoan.	(86-IV) Rais: yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Senat qaroriga binoan.
<i>Palata boshlig'ining vakolatlari:</i>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• (85-IV.1) palata majlislarini chaqirish, ularda raislik qilish;</li> <li>• (85-IV.2) palata muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qilish;</li> <li>• (85-IV.3) palata qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib borish;</li> <li>• (85-IV.4) O'zbekiston qonunlarining va palata qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish;</li> <li>• (85-IV.5) parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq palata guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qilish.</li> <li>• (85-IV.6) Senat, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va o'zga tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda palata nomidan ish ko'rish;</li> <li>• (85-IV.7) palata qarorlarini imzolash;</li> <li>• (85-IV.8) Konstitutsiya va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• (86-V.1) palata majlislarini chaqirish, ularda raislik qilish;</li> <li>• (86-V.2) palata muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qilish;</li> <li>• (86-V.3) palata qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib borish;</li> <li>• (86-V.4) O'zbekiston qonunlarining va palata qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish;</li> <li>• (86-V.5) parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq palata guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qilish;</li> <li>• (86-V.6) Qonunchilik palatasi, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va o'zga tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda palata nomidan ish ko'rish;</li> <li>• (86-V.7) palata qarorlarini imzolash;</li> <li>• (86-V.8) Konstitutsiya va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.</li> </ul>
(85-V) Spiker farmoyishlar chiqaradi.	(86-VI) Rais farmoyishlar chiqaradi.

## Qonun chiqarish jarayoni

2004-yilning 26-dekabrda bo'lib o'tgan saylovlar (2005-yil 9-yanvarda amalga oshirilgan takroriy ovoz berish) natijasida O'zRda ilk bor ikki palatali parlamentning quyi palatasi Qonunchilik palatasi shakllantirildi. 2005-yilning 17-20-yanvar kunlari O'zR mahalliy hududlarida O'zR Oliy Majlisining yuqori palatasi – Senatiga saylov o'tkazildi. Shu bilan birga, Senatning 16 nafar a'zosi O'zbekiston Prezidenti tomonidan tayinlandi. 2005-yilning 28-yanvarda O'zR Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Shunday qilib, O'zbekistonda ikki palatali parlament tashkil etildi.

Ikki palatali Oliy Majlis O'zbekistonda qonunchilik jarayonini (qonun chiqaruvchi hokimiyatni) amalga oshiradi. Qonunchilik jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: (1) qonunchilik tashabbusi ko'rsatish, (2) qonun loyihasini muhokama qilish, (3) qonunni qabul qilish va (4) qonunni e'lon qilish.

Qonunni yaratish jarayoni qonunchilik tashabbusi ko'rsatilishdan boshlanadi (1-bosqich). Qonunchilik tashabbusi deganda, qonunni qabul qilish bilan bog'liq taklifni Qonunchilik palatasiga kiritish faoliyati tushuniladi. Demak, bu tashabbus Qonunchilik palatasida (Oliy Majlisda emas!) ro'yobga chiqariladi. Qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan subyektlarning nomi va soni keyingi sahifada ko'rsatilgan. Shunday qilib, tegishli subyekt taklifni Qonunchilik palatasiga kiritadi. Bu taklif palataning sessiyasi kun tartibiga qo'yiladi (2-bosqich). Shu o'rinda aytish kerakki, o'ta muhim masalalarni tartibga soluvchi qonun loyihalari xalq muhokamasi (referendum)ga (bu qonunlarni qabul qilishning ikkinchi yo'li hisoblanadi) qo'yiladi, qolganlari esa palata majlislarida muhokama etiladi. Qonunchilik palatasiga kelib tushgan taklif (qonun loyihasi) palata Spikeri tomonidan qonun loyihasini dastlabki tarzda ko'rib chiqadigan qo'mitaga topshiriladi. Bu qo'mita o'z xulosasini palata Kengashiga beradi. Kengash qarori asosida loyiha, agar u talablarga muvofiq bo'lsa, quyi palatada ko'rib chiqiladi (aks holda taklifni kiritgan subyektga qaytariladi). Loyiha, qoida tariqasida, palatada uch o'qishda ko'rib chiqiladi. Qabul qilingan qonun 10 kun ichida Senatga yuboriladi. Senat qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Senat rad etgan qonun quyi palataga qaytariladi. Agar deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismi qonunni yana ma'qullasa, mazkur qonun Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi va to'g'rida: to'g'ri O'zbekiston Prezidentiga (imzolash va e'lon qilish uchun) yuboriladi. Agar Senat qonunni rad etsa, ikki palata o'rtasida (har bir palata a'zolari orasidan teng asosda) kelishuv komissiyasi tuziladi. Kelishuv komissiyasi Senatning e'tirozini ko'rib chiqadi. Kelishuv komissiyasining taklifi esa quyi palata tomonidan ko'rib chiqiladi. Agar quyi palata qonunni kelishuv komissiyasining tahririda qabul qilsa, u ma'qullash uchun Senatga yuboriladi. Senat tomonidan ma'qullangan qonun Prezidentga yuboriladi. O'z navbatida, Prezident ham qonunni qaytarishi mumkin. Bu holda qonun quyi palataga qaytadi.

Qonun ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi (3-bosqich). Ovoz berish 3 xil shaklda amalga oshiriladi: moddama-modda, bo'lim yoki bob bo'yicha alohida-alohida, loyiha to'lig'icha ovozga qo'yiladi.

Senat ma'qullangan qonunni imzolash va e'lon qilish uchun O'zbekiston Prezidentiga 10 kun ichida yuboradi. Qonun 30 kun ichida Prezident tomonidan imzolanadi va e'lon qilinadi (4-bosqich). Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi ularni qo'llashning majburiy shartidir.

### Mathbot (rasmiy nashrlarda e'lon qilinish)

(84-X) Bu qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qo'llanishining majburiy shartidir.  
(84-I) Qonun QP tomonidan qabul qilib, Senat tomonidan ma'qullanib, Prezident tomonidan imzolanganach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi.

7

11

### PREZIDENT

(84-IV) Qonun 30 kun ichida imzolaniadi va e'lon qiliniadi.

(84-VIII; 93-1,17) Prezident qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga haqli.

6

10

### OLYI MAJLIS

(84-III) 10 kun ichida

(84-V) SENAT

Qonun ma'qullandi.

5

Qonun ma'qullanmadi.

8

### QONUNCHILIK PALATASI

(84-II) Qonun qabul qilingan kundan e'tiboran 10 kundan kechiktirmay Senatga yuboriladi.

4

Qonun qabul qilindi.

3

(84-VI)

#### Qonunni qayta ko'rib chiqish:

Agar deputatlar umumiy sonining 1/3 qisminan iborat ko'pchilik ovozi bilan qonun yana ma'qullansa, bu qonun Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan hisoblanadi va imzolash haqida e'lon qilish uchun Prezidentga yuboriladi.

9

Qonunchilik tashabbusi huquqi qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi. (82)

2

1

(83) Qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari:

- Prezident;
- Qoraqalpog'iston (Jo'qorg'i) Kenges orqali;
- Qonunchilik palatasi deputatlari;
- Vazirlar Mahkamasi;
- Konstitutsiyaviy sud;
- Oliy sud;
- Oliy xo'jalik sudi;
- Bosh prokuror.

Kelishuv komissiyasi

(84-VII)  
SENAT TOMONIDAN RAD ETILGAN QONUN  
yuzasidan palatalar o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchilikni bartaraf etish

Oliy Majlis

QONUNCHILIK PALATASI

SENAT


Deputatlar va senatorlar orasidan tenglik  
asosida tuzilishi mumkin.

KELISHUV KOMISSIYASI

Kelishuv komissiyasi takliflar beradi.

Palatalar takliflarni qabul qilsalar, qonun odatdagi tartibda ko'rib chiqiladi.

**QONUNNING AVVALGI QABUL QILINGAN TAHRIRIDA  
PALATALAR TOMONIDAN MA'QULLANISHI**



Palatalar qabul qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar

OLIV MAJLIS PALATALARI QABUL QILADIGAN  
NORMATIV-HUQUQIY HUIJAT

SENAT

QONUNCHILIK PALATASI

(82-I)  
QAROR

(82-II) Senatorlar umumiy sonining  
ko'pchilik ovozi bilan qabul  
qilinadi.

(82-II) Deputatlar umumiy sonining  
ko'pchilik ovozi bilan qabul  
qilinadi.

(82-III)  
*Istisno hollar.*  
(Ular Konstitutsiyada nazarda tutilgan.)

(86-IV)  
Senatorlar umumiy sonining  $\frac{1}{3}$   
qismidan ko'prog'ning ovozi bilan  
qabul qilinadi.  
Senat Raisini muddatidan ilgari  
chaqirib olish.

(85-III)  
Deputatlar umumiy sonining  $\frac{1}{3}$   
qismidan ko'prog'ning ovozi bilan  
qabul qilinadi.  
palata Spikerini muddatidan ilgari  
chaqirib olish.



## Oliy Majlis palatalarining qo'mitalari

### Oliy Majlis palatalarining qo'mitalari

#### (87-1) Qonunchilik palatasi qo'mitalari

Deputatlar orasidan saylanadi.

Vakolat muddati 5 y.

#### (87-11) Senat qo'mitalari

Senatorlar orasidan saylanadi.

Vakolat muddati 5 y.

### QO'MITALARNING VAZIFALARI

Palata tomonidan qabul  
qilinadigan qarorlarning ijrosini  
nazorat qilish.

O'zR qonunlarining ijrosini  
nazorat qilish.


Palata muhokamasiga  
kiritiladigan masalalarni dastlabki  
tarzda ko'rib chiqish va  
tayyorlash.

Qonun loyihalarini tayyorlash  
ishini olib borish.

Senat tomonidan qabul  
qilinadigan qarorlarning ijrosini  
nazorat qilish.

O'zR qonunlarining ijrosini  
nazorat qilish.

Senat muhokamasiga kiritiladigan  
masalalarni dastlabki tarzda  
ko'rib chiqish va tayyorlash.



## Prezident qasamyodi

### PREZIDENT QASAMYODI

*"O'zbekiston xalqiga sodiqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman". (92)*

### Oliy Majlis

QONUNCHILIK  
PALATASI

SENAT

#### (81-IX) QO'SHMA MAJLISLAR O'TKAZISH:

- 1) (81-IX: 92) Prezident qasamyod qilganda;
- 2) (81-IX: 93-17) Prezident mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda;
- 3) (81-IX) chet davlatlarning rahbarlari nutq so'zlaganda;
- 4) (81-IX) palatalar kelishuviga binoan boshqa masalalar yuzasidan;
- 5) (98-XII) Bosh vazir va Oliy Majlisning QP o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda QP deputatlari umumiy sonining kamida 1/5 qismi tomonidan O'zR Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritilganda.

Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida qasamyodni qabul qilgan paytdan boshlab Prezident o'z lavozimiga kirishgan hisoblanadi. (92)

*(93-11) Prezident o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.*

**O'zbekiston Prezidenti quyidagi vakolatlarga ega:**

- *(93-1.1)* fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafalidir;

- *(93-1.10; 98-II; 78-I,15)* Oliy Majlisga Bosh vazir nomzodini taqdim etish va lavozimidan ozod qilish (Bu masala Oliy Majlis palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.);

- *(93-1.11; 98-II)* Bosh vazir taqdimiga binoan VM a'zolarini tasdiqlash va lavozimlaridan ozod qilish;

- *(93-1.17)* qonunlarni imzolash va e'lon qilish;  
*(84-VIII)* Prezident qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga haqli;

- *(93-1.2)* O'zR suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish. milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rish;

- *(93-1.3)* mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston nomidan ish ko'rish;

*(10-I)* O'zbekiston xalqi nomidan faqat Prezident (va Oliy Majlis) ish olib borishi mumkin;

- *(93-1.4)* muzokaralar olib borish hamda O'zRning shartnoma va bitimlarini imzolash, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlash;

- *(93-1.5)* o'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qilish;

- *(93-1.6)* O'zRning chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni Senatga taqdim etish; *(80-8)*

- *(93-1.7)* Oliy Majlisga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan ma'ruzalar taqdim etish *(81-IX)* Bunda Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisga yig'iladilar;

- *(93-1.8)* respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlash; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish va tugatish *(78-1.13)*, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik Oliy Majlisning palatalari tasdig'iga kiritish;

- *(93-1.9)* Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni Senatga taqdim etish; *(86-1)*

- *(93-1.12)* Bosh prokuror va Hisob palatasi raisini tayinlash va ularni lavozimidan ozod qilish, keyinchalik bu masalalarni Senat tasdig'iga kiritish; *(80-6)*

- *(93-1.13)* Senatga Konstitutsiyaviy sud raisi va sudyalari *(80-1)*, Oliy sud raisi va sudyalari *(80-3)*, Oliy xo'jalik sudi raisi va sudyalari *(80-4)*, MB boshqaruvining raisi *(80-9)*, Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining raisi *(80-5)* lavozimlariga nomzodlarni taqdim etish;

- *(93-1.14; 107-I)* viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo'jalik sudlarining sudyalari tayinlash va lavozimidan ozod etish;

- *(93-1.15)* Bosh vazirning taqdimiga binoan viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini tayinlash va lavozimidan ozod etish *(102-1)*. Konstitutsiyani, qonunlarni

buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;

- (93-1.16) respublika davlat boshqaruvi organlarining, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to'xtatish, bekor qilish (Prezident VM majlislarida rajslik qilishga haqli);

- (93-1.18) O'zRga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish va qabul qilgan qarorini (78-1.18) farmonini 3 kun ichida Oliy Majlis palatalarining tasdig'iga kiritish;

- (93-1.19) favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zRning butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etish va qabul qilgan qarorini (78-1.19) farmonini 3 kun ichida Oliy Majlisning palatalari tasdig'iga kiritish (Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi);

- (93-1.20) QKning Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, QKning oliy qo'mondonlarini tayinlash va vazifasidan ozod qilish, oliy harbiy unvonlar berish;

- (93-1.21) O'zRning ordenlari, medallari va yorlig'i bilan mukofotlash, O'zRning malakaviy va faxriy unvonlarini berish;

- (93-1.22) O'zRning fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etish;


- (93-1.23) amnistiya to'g'risidagi hujjatlarini qabul qilish haqida Senatga taqdimnoma kiritish (80-10) va O'zRning sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etish;

- (93-1.24) MXXni tuzish. MXX raisini tayinlash va lavozimidan ozod etish, keyinchalik bu masalalarga doir farmonlarni Senat tasdig'iga (80-7) kiritish;

- (93-1.25) Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.



Xalq – davlat hokimiyatining manbai




## Parlamentni tarqatib yuborish

Quyidagi hollarda parlamentni tarqatib yuborish mumkin (95-1):

1. Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda;
2. Palatalar bir necha marta Konstitutsiyaga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda;
3. Ikki palata o'rtasida Oliy Majlisning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda

**Istisno:**

(95-III) Favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emas.





Prezident chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlar

PREZIDENT

Davlat boshlig'i  
(89)

Davlat hokimiyati organlarning kelishilgan holda faoliyat yuritishini va hankorligini ta'minlaydi.  
(89)

(93-1,20)  
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni

PREZIDENT  
chiqaradigan  
normativ-huquqiy hujjatlar  
(94)

(94) Respublikaning butun hududida  
majburiy kuchga ega:

FARMON  
(94)

QAROR  
(94)

FARMOYISH  
(94)

Ijrosini Vazirlar Mahkamasi ta'minlaydi.  
(93-11)

## Saylov tizimi

### SAYLOVLAR O'TKAZISH

O'tkazish tartibi *(90-II) Prezidenti saylash tartibi ham/ qonun bilan belgilanadi (117-VI)*

Yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi.  
*(90-II; 117-II)*

Umumiy saylov huquqi  
*(90-II; 117-II)*

Teng saylov huquqi  
*(90-II; 117-III)*

To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi  
*(90-II; 117-II)*

### *(117-II) Saylov kuni:*

Tegishli organlarning konstitutsiyaviy vakolat muddah tugaydigan yilning dekabr oyi uchinchi 10 kunligining birinchi yakshanbasida:

- O'zR Prezidenti saylovi;
- O'zR Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengisiga saylov;
- viloyat davlat hokimiyati vakillik organiga saylov;
- tuman davlat hokimiyati vakillik organiga saylov;
- shahar davlat hokimiyati vakillik organiga saylov.

**O'ZBEKISTON XALQI**  
**nomidan ish olib borishi mumkin:**  
*(10-I)*

**OLY MAJLIS**

**PREZIDENT**  
*(93-LS)*

*(77; 90)*  
Xalq tomonidan saylanadi.  
(Shuning uchun ular xalq nomidan ish olib borishi mumkin.)

## Saylov huquqi

### SAYLOV HUQUQINING PRINSIPLARI

Umumiy saylov  
huquqi

To'g'ridan-to'g'ri  
(bevosita) saylov  
huquqi

Erkin saylov  
huquqi

Teng saylov  
huquqi

Yashirin ovoz berish  
huquqi

### O'ZBEKISTONNING SAYLOV TIZIMI

#### Aktiv saylov huquqi

Saylovda ko'rsatilgan nomzodni saylash huquqi (saylash huquqi).

- 18 yoshga to'lgan fuqaro saylash huquqiga ega.

#### Passiv saylov huquqi

Saylovda O'zR fuqarosining o'z nomzodini ko'rsatish huquqi (saylanish huquqi):


- 21 yoshdan — xalq deputatlari mahalliy Kengashiga saylanish;
- 25 yoshdan — Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatiga saylanish (bevosita saylovgacha kamida 5 yil O'zR hududida muqim yashaganlik).
- 35 yoshdan — Prezident lavozimiga saylanish (bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zR hududida muqim yashaganlik, davlat tilini yaxshi bilish).

**Deputat, senator va Prezident:  
nomzodlarga qo'yiladigan talablar**

	DEPUTAT	SENATOR	PREZIDENT
Daxlsizlik huquqi	(88-III) Daxlsizlik huquqidan foydalanadilar		(91-II) Shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi.
	(88-III) QPning rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazo choralari-ga tortilishi mumkin emas.	(88-III) Senatning rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazo choralari-ga tortilishi mumkin emas.	
Boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanmaslik	(88-II) Deputat o'z vakolati davrida haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas. <i>Istisno:</i> Ilmiy va pedagogik faoliyat.	(88-II) Senatda doimiy asosda ishlovchi senator o'z vakolati davrida haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas. <i>Istisno:</i> Ilmiy va pedagogik faoliyat.	(91-I) O'z vazifasini bajarib turgan davrda mumkin emas: ▪ boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallash; ▪ vakillik organining deputati bo'lish; ▪ tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish.
Nomzodlarga qo'yiladigan talablar	(77-IV) Saylov kuni <b>25 yoshga</b> to'lgan bo'lishi		(90-I) <b>35 yoshdan</b> kichik bo'lmagan fuqaro
	(77-IV) <b>Kamida 5 yil</b> O'zbekiston hududida muqim yashayotgan bo'lishi		(90-I) Bevosita saylov-gacha <b>kamida 10 yil</b> O'zbekiston hududida muqim yashayotgan bo'lishi. (90-I) <b>Davlat tilini</b> yaxshi bilishi.
Saylanish (tayinlanish) muddati	(76-III) <b>5 yil.</b> (88-I) Ularning faoliyati bilan bog'liq xarajatlar belgilangan tartibda qoplanadi.		(90-II) <b>5 yil.</b>
	(77-V) Ayni bir shaxs <b>bir paytning o'zida deputat va senator</b> bo'lishi mumkin emas.		Ayni bir shaxs <b>surunkasiga ikki muddatdan ortiq</b> Prezident bo'lishi mumkin emas. (90-I)


## Prezident vazifasini bajaruvchini saylash

**Prezident vazifasini vaqtincha bajaruvchini saylash tartibi**  
(2011-yilning 19-apreliga qadar o'ralgan konstitutsiyaviy tartib)



## Prezident vazifasini vaqtincha bajaruvchi

**Prezident vazifasini vaqtincha bajaruvchi**  
(2011- yilning 19- aprelidan keyingi amaldagi konstitutsiyaviy tartib)  
(yangi 96- modda asosida)



	2011- yilning 19- apreligacha	2011- yilning 19- aprelidan e'tiboran
(96)	<p>“O‘zRning Prezidenti betobligi sababli o‘z vazifasini bajara olmaydigan holatda O‘zR Oliy Majlisining palatalari qo‘shma qaroriga ko‘ra tuzilgan davlat tibbiy komissiyasi xulosasi bilan tasdiqlangan taqdirda 10 kun muddat ichida palatalarning qo‘shma favqulodda yig‘ilishida deputatlar, senatorlar orasidan 3 oygacha bo‘lgan muddatga O‘zR Prezidenti vazifasini vaqtincha bajaruvchi saylanadi. Bu holda 3 oy muddat ichida O‘zR Prezidentining umumxalq saylovi o‘tkazilishi shart”.</p>	<p>“O‘zRning amaldagi Prezidenti o‘z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O‘zR Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda 3 oy muddat ichida “O‘zR Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonunga to‘liq muvofiq holda mamlakat Prezidenti saylovi o‘tkaziladi”.</p>

## Vazirlar Mahkamasi

### VAZIRLAR MAHKAMASI

(98-1)

(ijro etuvchi hokimiyat)

(98 II) Iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, qonunlar, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi


(98 III) Qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

(O'zbekistonning butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir.)

(98-1)

### Vazirlar Mahkamasining tarkibi

<p>(98-1) <b>Bosh vazir</b></p>	<p>(98-1) <b>Bosh vazirning o'rinbosarlari</b></p>	<p>(98-1) <b>Vazirlar</b></p>	<p>(98-1) <b>Davlat qo'mitalarining raislari</b></p>	<p>(98-1) <b>Qo'R hukumatining boshlig'i</b> (O'z lavozimi bo'yicha kiradi.)</p>
<p>(98 IV) <i>Vakolatlari</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ VM faoliyatini tashkil etish,</li> <li>▪ VMga rahbarlik qilish,</li> <li>▪ VMning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar,               <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ VMning majlislariga raislik qilish, (93 I.16) Prezident VM majlislarida raislik qilishga haqli</li> <li>▪ VMning qarorlarini imzolash,</li> <li>▪ xalqaro munosabatlarda VM nomidan ish ko'rish (Prezident topshirig'iga binoan),</li> <li>▪ qonunlarda, Prezidentning farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajarish</li> </ul> </li> </ul>				<p>(98 XI; 93 I.11)</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ Bosh vazir taqdimiga binoan,</li> <li>▪ Prezident tomonidan tasdiqlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.</li> </ul>



**VAZIRLAR MAHKAMASI**

Faoliyatini tashkil etish va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.  
(98-VII)


(98-V) O'z faoliyatida ushbular oldida javobgar:

**PREZIDENT**

**OLY MAJLIS**

(98-VI)  
**Vazirlar Mahkamasi**  
yangi saylangan Oliy Majlis  
oldida o'z vakolatlarini  
zimmasidan soqit qiladi.

**Bosh vazirni saylash va Vazirlar Mahkamasi ning tarkibini shakllantirish**  
(2011-yilning 19-apreligacha bo'lgan konstitutsiyaviy tartib bo'yicha)





**Bosh vazir nomzodini taqdim etish va tasdiqlash  
(birinchi holat)**

**G'zR Prezidenti**

Ko'rib chiqqach: (93-Z) 10 kun muddat ichida Oliy Majlisga.

(98-VIII) Bosh vazir nomzodini Prezidentga taqdim etadi.

(98-VIII) Eng ko'p o'rinni qo'lga kiritgan siyosiy partiya

**OLIIY MAJLIS**

**QONUNCHILIK PALATASI**

**150 ta o'rin**

*Siyosiy partiyalar (va ular qo'lga kiritgan o'rinlar soni):*

A 50	B 45	D 40	E 15
---------	---------	---------	---------

SENAT

Saylovchilar

**OLIIY MAJLIS**

**QONUNCHILIK  
PALATASI**

*Deputatlar umumiy sonining yarmidan ko'pi /50% + 1/ (150 : 2 = 75 + 1 = 76, demak, kamida 76 nafar deputat) Prezident taqdim etgan Bosh vazir nomzodi uchun ovoz bersa:*

**SENAT**

*Senatorlar umumiy sonining yarmidan ko'pi /50% + 1/ (100 : 2 = 50 + 1 = 51, demak, kamida 51 nafar senator; iste'foga chiqqan Prezident ham Senat a'zosi bo'lishini unutmang) Prezident taqdim etgan Bosh vazir nomzodi uchun ovoz bersa:*

(93-Y) Ana shunday holda Bosh vazir nomzodi tasdiqlangan hisoblanadi.

**Eslatmalar:**

1. Chap tomondan pastdan yuqoriga qarab ko'rsatkich (срелка) bo'yicha o'qing.
2. Haqiqiy normani yaqqolroq tushuntirish maqsadida Qonunchilik palatasidagi 150 ta o'rinning shart ravishda belgilangan siyosiy partiyalar bo'yicha taqsimoti farazlan olindi.

**Bosh vazir nomzodini taqdim etish va tasdiqlash**  
(Ikkinchi bosqich)

O'zB Prezidenti

Ko'rib chiqqach, 150 ta 10 kun muddat ichida Oliy Majlisga:

198-171b) Bosh vazir nomzodini Prezidentga taqdim etadi

**OLY MAJLIS**

**QONUNCHILIK PALATASI**

150 ta o'rin

Siyosiy partiyalar (va ular qo'lga kiritgan o'rinlar soni):

A	B	D	E
48	48	39	15

SENAT

Saylovchilar

198-121j) Teng miqdordagi eng ko'p o'rinlarni qo'lga kiritgan siyosiy partiyalar

**OLY MAJLIS**

**QONUNCHILIK PALATASI**

Deputatlar umumiy sonining yarmidan ko'pi 50% + 1 / (150 : 2 = 75 + 1 = 76, demak, kamida 76 nafar deputat) Prezident taqdim etgan Bosh vazir nomzodi uchun ovoz bersa.

**SENAT**


Senatorlar umumiy sonining yarmidan ko'pi 50% + 1 / (100 : 2 = 50 + 1 = 51, demak, kamida 51 nafar senator; iste'foga chiqqan Prezident ham Senat a'zosi bo'lishini unutmang) Prezident taqdim etgan Bosh vazir nomzodi uchun ovoz bersa.

198-17) Ana shunday holda Bosh vazir nomzodi tasdiqlangan hisoblanadi.

**Eslatmalar:**

1. Chap tomondan pastdan yuqoriga qarab ko'rsatkich (сретенка) bo'yicha o'qing.
2. Haqiqiy normani yebqalroq muhimmatlash maqsadida Qonunchilik palatasidagi 150 ta o'rinning shartli ravishda belgilangan siyosiy partiyalar bo'yicha taqsimoti farazlan olindi.

**Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish**



Vazirlar Mahkamasi iste'foga chiqqanidan so'ng...

PREZIDENT

1

(98-XIV)

Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazadi.

2

(98-XIV)

Ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun yangi Bosh vazir nomzodini Oliy Majlisga taklif etadi.

OLYI MAJLIS

Qonunchilik palatasi

Senat

(98-XV)

PREZIDENT

Bosh vazir lavozimiga nomzodini taklif etadi.

1

1- taklif

1- rad etish

2

2- taklif

2- rad etish

3

Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi.

Oliy Majlisi tarqatib yuboradi.

OLYI MAJLIS

QONUNCHILIK PALATASI

SENAT

## Mahalliy davlat hokimiyati

### (100) Vakolatlari:

- Qonuniyligni ta'minlash.
- Huquqiy tartibotni ta'minlash.
- Fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash.
- Hududlarni iqtisodiy rivojlantirish.
- Hududlarni ijtimoiy rivojlantirish.
- Hududlarni madaniy rivojlantirish.
- Mahalliy budjetni shakllantirish.
- Mahalliy budjetni ijro etish.
- Mahalliy soliqlarni belgilash.
- Mahalliy yig'implarni belgilash.
- Budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish.
- Mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish.
- Atrof-muhitni muhofaza qilish.
- Fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash.
- Normativ hujjatlarni qabul qilish.
- Konstitutsiya va qonunlarga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

### (101-I)

- O'zR qonunlarini amalga oshirish.
- Prezident farmonlarini amalga oshirish.
- Davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshirish.

(101-II) Yuqori organlarning qarorlari quyi organlar ijro etishi uchun majburiydir.

- Respublika ahamiyatiga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashish.
- Mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashish.

(102-I) Hokimlar [(101-III) vakolat muddati – 5 yil] tegishli vakillik [yu'ni xalq deputatlari Kengashi; (101-III) vakolat muddati – 5 yil] va ijroiya hokimiyatni boshqaradilar. (99) Tumanga bo'ysunadigan shahar hokimi va shahar tarkibidagi tuman hokimi faqat tegishli ijroiya hokimiyatni boshqaradi.

	Kim tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi?	Kim tomonidan tasdiqlanadi?
Viloyat hokimi (102-II)	O'zR Prezidenti	
Toshkent shahar hokimi (102-II)	(102-II)	
Tuman hokimi (102-III)	Tegishli viloyat hokimi (102-III)	Xalq deputatlari tuman Kengashi (102-III)
Shahar hokimi (102-III)	Tegishli shahar hokimi (102-IV)	(102-III, IV) Xalq deputatlari shahar tarkibidagi tuman Kengashi mavjud emas.
Shahar tarkibidagi tuman hokimi (102-IV)	Tegishli shahar hokimi (102-IV)	Xalq deputatlari shahar Kengashi. (99) Xalq deputatlari shahar tarkibidagi tuman Kengashi mavjud emas.
Tumanga bo'ysunadigan shahar hokimi (102-V)	Tuman hokimi (102-V)	(102-V) Xalq deputatlari tuman Kengashi. (99) Xalq deputatlari tumanga bo'ysunadigan shahar Kengashi mavjud emas.



## Mahalliy ijroiya hokimiyat rahbarlari



Mahalliy ijroiya hokimiyat rahbarlari	Hokimlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi.
<i>(103-1) Hokimlar o'z vakolatlarini <b>yakkaboshchilik</b> asosida amalga oshiradilar.</i>	
Viloyat hokimi	
Toshkent shahar hokimi	
Tuman hokimi	<i>(102-III) Xalq deputatlari tuman Kengashi</i>
Shahar hokimi	<i>(102-III, IV)</i>
Shahar tarkibidagi tuman hokimi	Xalq deputatlari shahar Kengashi <i>(99) Xalq deputatlari shahar tarkibidagi tuman Kengashi mavjud emas.</i>
Tumanga bo'ysunadigan shahar hokimi	<i>(102-V) Xalq deputatlari tuman Kengashi (99) Xalq deputatlari tumanga bo'ysunadigan shahar Kengashi mavjud emas.</i>
<i>(103-II) Hokimlarning faoliyatini tashkil qilish va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.</i>	<i>(103-II) Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining faoliyatini tashkil qilish, vakolat doirasi va saylash tartibi qonun bilan belgilanadi.</i>
<i>(103-1) Hokimlar o'zlari rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun <b>shaxsan javobgardirlar.</b></i>	
<i>(104) Hokim o'z vakolatiga kiritilgan masalalar yuzasidan <b>qaror</b> qabul qiladi (qarorlarning tegishli bududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir).</i>	
<i>(99) Xalq deputatlari Kengashlari – <b>hokimiyatning vakillik organlaridir.</b> Ularga hokimlar boshchilik qiladilar. Ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar. (34-II) Hokimiyatning vakillik organlarida o'zchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadrigimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.</i>	

O'zini o'zi boshqarish organi

(105-1)  
O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANI

(105-II) Saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

(105-1)  
FUQAROLAR YIG'INI

(105-1)  
Quyidagilar fuqarolar yig'ini tomonidan 2,5 yilga saylanadi:

YIG'IN RAISI  
(Oqsoqol)

Yig'in raisining  
MASLAHATCHILARI

(105-1)  
Shaharcha

(105-1)  
Qishloq

(105-1)  
Ovul

(105-1)  
Shaharcha  
tarkibidagi  
mahallalar

(105-1)  
Qishloq  
tarkibidagi  
mahallalar

(105-1)  
Ovul tarkibidagi  
mahallalar

(105-1)  
Shaharlardagi  
mahallalar

## Sud hokimiyati

- (106) Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.
- (107-II) Sudlarni [shuningdek, Konstitutsiyaviy sudni (109-III)] tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.
- (107-III) Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.
- (113) Hamma sudlarda ishlar ochiq ko'riladi (qonunda belgilangan hollardagina ishlar yopiq majlisda tunganadi).
- (114) Chiqargan hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.
- (115) Sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi.


### Sudyalari...

- ... mustaqildir (faqat Konstitutsiya va qonunlarga bo'ysunadi), sudyalarning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish javobgarlikka sabab bo'ladi. (112-I; 108-IV)
- Sudyalarning faoliyati - odil sudlovni amalga oshirish. (112-I)
- ... daxlsizdir (bu qonun bilan kafolatlanadi) (112-II; 108-V)
- ... senator bo'lishi mumkin emas. (112-III)
- ... davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas. (112-III; 108-III)
- ... siyosiy partiyalarning a'zosi bo'lishi mumkin emas. (112-IV; 108-IV)
- ... siyosiy harakatlarda ishtirok etishi mumkin emas. (112-IV; 108-IV)
- ... haq to'lanadigan biron-bir faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin emas (ilmiy va pedagogik faoliyat bundan mustasno). (112-IV; 108-IV)
- Vakolat muddati tugagunga qadar sudyalik vazifasidan qonunda ko'rsatilgan asoslar bo'lgandagina ozod etilishi mumkin. (112-V)

Konstitutsiyaviy sud	Oliy sud	Oliy xo'jalik sudi va xo'jalik sudlari
(108-I) Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi.	(110-I) Fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatning oliy organidir.	(111) Mulkdchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'rtasidagi, tadbirkorlar o'rtasidagi, iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini o'z vakolatlari doirasida hal etadi.
(109-II) Qarorlari matbuotda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Ular qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas.	(110-II) Hujjatlari qat'iy va O'zbekistonning barcha hududida bajarilishi majburiydir.	
(108-II) <b>Tarkibi</b> (siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan savlanadi; tarkibida QorRning vakili ham bo'ladi): 1. Sud raisi. 2. Rais o'rinbosari. 3. Sudyalar.	(110-III) <b>Huquqi</b> : QorR oliy sudlari, viloyatlar, shaharlar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish.	



Sud tizimi hokimiyatlar bo'linishida



# O'zbekiston Respublikasining sud tizimi

## (107-1) O'zbekiston Respublikasining SUD TIZIMI

5 yil muddatga  
SAYLANADIGAN SUDLAR

5 yil muddatga  
TAYINLANADIGAN SUDLAR

O'zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyaviy sudi

Fuqarolik va jinoyat ishlari  
bo'yicha viloyat va Toshkent  
shahar sudlari

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy sudi

Fuqarolik va jinoyat ishlari  
bo'yicha tumanlararo, tuman,  
shahar sudlari

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy xo'jalik sudi

Harbiy va xo'jalik sudlari

Qoraqalpog'iston fuqarolik va  
jinoyat ishlari bo'yicha oliy  
sudlari

Qoraqalpog'iston  
xo'jalik sudi



## Konstitutsiyaviy sud vakolatlari


- (109-1,1) O'zbekiston qonunlarining **Konstitutsiyaga mosligini aniqlash.**  
(16-II) Birorta ham qonun Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.
  
- (109-1,1) Oliy Majlis palatalari qarorlarining **Konstitutsiyaga mosligini aniqlash.**  
(16-II) Birorta ham qonun Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.
  
- (109-1,1) Prezident farmonlarining **Konstitutsiyaga mosligini aniqlash.**  
(16-II) Birorta normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.
  
- (109-1,1) Hukumat qarorlarining **Konstitutsiyaga mosligini aniqlash.**  
(16-II) Birorta normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.
  
- (109-1,1) mahalliy davlat boshqaruvi organlari qarorlarining **Konstitutsiyaga mosligini aniqlash.**  
(16-II) Birorta normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.
  
- (109-1,1) O'zbekistonning davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining **Konstitutsiyaga mosligini aniqlash.**  
(16-II) Birorta normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.
  
- (109-1,2) QorR Konstitutsiyasi O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida **xulosa berish.**  
(71-II) QorR Konstitutsiyasi O'zbekiston Konstitutsiyasiga zid bo'lishi mumkin emas.
  
- (109-1,2) QorR qonunlari O'zbekiston qonunlariga muvofiqligi to'g'risida **xulosa berish.**  
(16-II) Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.
  
- (109-1,3) **Konstitutsiya va qonunlar normalariga sharh berish.**
  
- (109-1,4) Konstitutsiya va qonunlar bilan berilgan vakolat doirasida **boshqa ishlarini ko'rish.**

## Advokatura

(116-II)

U fuqarolarga, korxonalar, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun faoliyat ko'rsatadi. Advokaturani tashkil etish va uning ish tartibi qonun bilan belgilanadi.

**ADVOKATURA** – huquqiy institut bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. Advokatura O'ZR Konstitutsiyasiga muvofiq O'ZR fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi



## Prokuratura

### PROKURATURA

(120-III) Prokuratura organlarini tashkil etish, ularning vakolatlari va faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.

(118)  
Qonunlarning aniq bajarilishi ustidan nazorat qiladi.

(118)  
Qonunlarning bir xilda bajarilishi ustidan nazorat qiladi.

(119-I) Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimi

(119-I)  
Tizim boshlig'i

	Kim tayinlaydi?	Vakolat muddati	
<b>Bosh prokuror</b>	(93-I, 12; 80-6) Prezident (Farmoni Senat tasdiqlaydi.)	(119-IV) 5 yil	(120-II) O'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a'zolikni to'xtatib turadilar.
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasining prokurori</b>	(119-II) Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy vakillik organi (Bosh prokuror bilan kelishiladi.)		
<b>Viloyat prokurori</b>	(119-III) Bosh prokuror		
<b>Tuman prokurori</b>			
<b>Shahar prokurori</b>			

(120-I) Prokuratura organlari o'z vakolatlarini davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustatil holda, faqat qonunga bo'ysunib amalga oshiradilar.




## Moliya va kredit



- O'zR o'z moliya va pul-kredit tizimiga ega. (122-1)
- Respublika bank tizimini Markaziy bank boshqaradi. (124)

<b>Prezident</b>
<b>VAKOLATI:</b>
(93 - 1,13; 80-9) Senatga MB boshqaruvining raisi lavozimiga nomzodni taqdim etish.
<b>O'zR Oliy Majlisi Senatining</b>
<b>MUTLAQ VAKOLATI:</b>
(80-12) MB boshqaruvi raisining hisobotini eshitish.

<i>(78) O'zR Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasining</i>
<b>BIRGALIKDAGI VAKOLATLARI:</b>
<i>(78-11) Masalalarni ko'rib chiqish:</i>
Qoida tariqasida, avval Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatda ko'rib chiqiladi.
<i>(78-1,7) Boj, valuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish.</i>
<i>Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan:</i>
<i>(78-1,8) Davlat budgetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish.</i>



## Mudofaa va xavfsizlik

**Davlat chegarasi va hududi (75-II) daxlsiz va bo'linmas.**

→ (125-I) Davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun **Qurolli Kuchlar** tuziladi va ular (126) O'zR xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajadadir.

(125-II) Tuzilishi va tashkil etilishi qonun bilan belgilanadi.

### Oliy Majlis

SENAT

QONUNCHILIK  
PALATASI

#### (78) BIRGALIKDAGI VAKOLATLARI:

(78-II) Masalalarni ko'rib chiqish:

Qoida tariqasida, avval Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatda ko'rib chiqiladi.

*Prezident farmonlarini tasdiqlash:*

(78-I,18)

O'zRga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonlar.

(78-I,19)

Umumiy va qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlar.

#### PREZIDENT VAKOLATLARI

(93-II) Prezident o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralari yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

- (93-I,2) O'zR suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rish.

- (93-I,18) O'zRga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish va qabul qilgan qarorini (78-I,18) farmonini 3 kun ichida Oliy Majlis palatalarining tasdig'iga kiritish.

- (93-I,20) QKning Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, QKning oliy qo'mondonlarini tayinlash va vazifasidan ozod qilish, oliy harbiy unvonlar berish.

## Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi

*Qonunchilik tashabbus huquqi subyektlari*  
(Subyektlar Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Oliy Majlisga taklif kiritadilar.)

**Oliy Majlis**  
(78-1.1) Qonunchilik palatasi va Senat birgalikda Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish vakolatiga ega.

(127) 2 usulda o'zgartirish kiritish mumkin.

(127) REFERENDUM

(9) Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

(78-1.3) Qonunchilik palatasi va Senat birgalikda O'zRning referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish vakolatiga ega.

(128) Oliy Majlis taklif kiritilgandan keyin 6 oy mobaynida Konstitutsiyaga o'zgartirish va tuzatishlar kiritish to'g'risida keng va har tarfлама muhokamani hisobga olgan holda qonun qabul qilishi mumkin.

(128) Agar Oliy Majlis taklifni rad etsa (referendumda xalq bu taklifni ma'qullamasa), bu taklif bir yil o'tgandan so'ng qayta kiritilishi mumkin.

(127) QONUN

(127) Har bir palata a'zolari umumiy sonining kamida  $\frac{3}{5}$  qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan qonun asosida Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish mumkin.

(128) Agar Oliy Majlis taklifni rad etsa (palatalar tomonidan qonun qabul qilmasa), bu taklif bir yil o'tgandan so'ng qayta kiritilishi mumkin.



O'zbekiston Konstitutsiyasi ha'yicha test savollari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?  
A. 06.12.1992- y.  
B. 07.12.1992- y.  
D. 08.12.1992- y.  
E. 09.12.1992- y.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qanday tuzilishga ega?  
A. Muqaddima, 3 ta bo'lim, 25 ta bob, 126 ta modda.  
B. Muqaddima, 6 ta bo'lim, 26 ta bob, 128 ta modda.  
D. Muqaddima, 5 ta bo'lim, 27 ta bob, 130 ta modda.  
E. Muqaddima, 4 ta bo'lim, 28 ta bob, 129 ta modda.
3. O'zbekistonning poytaxti qaysi shahar?  
A. Samarqand.  
B. Buxoro.  
D. Navoiy.  
E. Toshkent.
4. O'zbekistonning davlat tili qaysi til?  
A. Rus va o'zbek tillari.  
B. O'zbek va qoraqalpoq tillari.  
D. O'zbek tili.  
E. Rus tili.
5. O'zbekiston Respublikasi qachon BMT a'zohgiga qabul qilingan?  
A. 02.03.1992- y.  
B. 12.10.1995- y.  
D. 03.05.1992- y.  
E. 01.06.1993- y.
6. O'zbekiston Prezidentining vakolat muddati necha yil?  
A. 5 yil.  
B. 6 yil.  
D. 7 yil.  
E. 8 yil.
7. Fuqarolik, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasidagi sud hokimiyatining oliy organi nima deb ataladi?  
A. Oliy xo'jalik sudi.  
B. Oliy sud.  
D. Konstitutsiyaviy sud.  
E. Oliy hakamlar sudi.
8. O'zbekistonni mustaqil deb e'lon qilish to'g'risidagi Oliy Kengash qarori qachon qabul qilindi?  
A. 30.08.1991- y.  
B. 31.08.1991- y.  
D. 01.09.1991- y.  
E. 02.09.1991- y.
9. O'zbekiston Respublikasi parlamenti nima deb ataladi?  
A. Senat.  
B. Qonunchilik palatasi.  
D. Oliy Kengash.

- E. Oliy Majlis.
10. Davlatimizning nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?  
 A. "O'zbekiston" yoki "O'zbekiston Respublikasi".  
 B. "Markaziy Osiyo".  
 D. "O'zbekiston va Qoraqalpog'iston".  
 E. "Turkiston".
11. Qanday vaqtda parlamentni tarqatib yuborish mumkin emas?  
 A. Vazirlar Mahkamasining roziligi bo'lmasa.  
 B. Favqulodda holat joriy etilgan vaqtda.  
 D. Bosh prokuror rozilik bermasa.  
 E. Istalgan vaqtda tarqatib yuborish mumkin.
12. Saylovlarda ishtirok etish uchun fuqaro necha yoshga to'lgan bo'lishi lozim?  
 A. 17 yoshga.  
 B. 18 yoshga.  
 D. 20 yoshga.  
 E. 25 yoshga.
13. O'zbekiston Respublikasining parlamenti necha palatadan iborat?  
 A. Bir palatadan (Oliy Majlis).  
 B. Ikki palatadan (Qonunchilik palatasi va Senat).  
 D. Parlament palatasi bo'lishi mumkin emas.  
 E. Qo'shma majlis vaqtida bir palatali, alohida majlislar o'tkazilganda ikki palatali.
14. Qonunchilik palatasining majlisida Vazirlar Mahkamasining a'zolari ishtirok etishga haqlimi?  
 A. Yo'q, haqli emas.  
 B. Ha, haqli.  
 D. Agar taklif etishgan bo'lsa, ishtirok etishga haqli.  
 E. Agar Vazirlar Mahkamasining a'zosi deputat bo'lsa, ishtirok etishga haqli.
15. O'zbekiston Prezidenti qachon o'z lavozimiga kirishgan hisoblanadi?  
 A. Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida qasamyod qabul qilgan vaqtdan e'tiboran.  
 B. Xalq tomonidan saylangan vaqtdan e'tiboran.  
 D. Prezidentlikka saylovlar bo'lib o'tgandan so'ng birinchi qonun chiqqan kundan e'tiboran.  
 E. Prezidentlikka saylovlar bo'lib o'tgandan so'ng Prezident devoni tomonidan rasmiy ma'lumot e'ton qilingan kundan e'tiboran.
16. O'zbekiston Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni kim?  
 A. Mudofaa vaziri.  
 B. Milliy xavfsizlik xizmati boshlig'i.  
 D. Prezident.  
 E. Ichki ishlar vaziri.
17. Qonunchilik palatasi necha deputatdan iborat?  
 A. 120.  
 B. 130.  
 D. 150.  
 E. 200.
18. O'zbekiston Prezidenti o'z lavozimiga kirishish oldidan ...  
 A. ... parlament palatalarining qo'shma majlisida qasamyod qabul qiladi.  
 B. ... Oliy sud oldida qasamyod qabul qiladi.  
 D. ... Bosh prokuror oldida qasamyod qabul qiladi.  
 E. ... xorijlik diplomatlar oldida qasamyod qabul qiladi.
19. O'zIR Oliy Majlis Senat a'zolarining nechitasi O'zbekiston Prezidenti tomonidan tayinlanadi?

- A. 20 tasi.
- B. 16 tasi.
- D. 32 tasi.
- E. 24 tasi.

20. Oliy Majlisning Senati tomonidan ma'qullangan qonun mecha kun ichida O'zbekiston Prezidentiga jo'natilishi lozim?

- A. 5 kun.
- B. 10 kun.
- D. 15 kun.
- E. 20 kun.

21. Kim soliqlar joriy qilishga haqli?

- A. Prezident.
- B. Oliy Majlis.
- D. Bosh prokuror.
- E. Hokimlar.

22. O'zbekiston Respublikasining hukumati nima deb ataladi?

- A. Oliy Majlis.
- B. Oliy Kengash.
- D. Vazirlar Kengashi.
- E. Vazirlar Mahkamasi.

23. Parlamentning palatasi tarqatib yuborilganidan so'ng yangi saylov qancha vaqt ichida o'tkaziladi?

- A. 1 oy mobaynida.
- B. 3 oy mobaynida.
- D. 4 oy mobaynida.
- E. 6 oy mobaynida.

24. O'zbekistonning Ijro etuvchi hokimiyati boshlig'i kim?

- A. Bosh vazir.
- B. Prezident.
- D. Bosh prokuror.
- E. Toshkent shahar hokimi.

25. Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun mecha kun ichida Senatga jo'natilishi lozim?

- A. 5 kun.
- B. 10 kun.
- D. 15 kun.
- E. 20 kun.

26. Shahar tarkibidagi tuman hokimi kim tomonidan tayinlanadi?

- A. Tegishli shahar hokimi tomonidan.
- B. Viloyat hokimi tomonidan.
- D. Prezident tomonidan.
- E. Oliy Majlis tomonidan.

27. O'zbekiston xalqi nomidan kimlar ish olib borishi mumkin?

- A. Prezident va diplomatlar.
- B. Deputatlar va sudyalar.
- D. Prezident va Oliy Majlis.
- E. Konstitutsiyaviy sud raisi va senatorlar.

28. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida kimning oldida javobgar?

- A. Xalq va fuqarolar
- B. Prezident va Oliy Majlis.
- D. Prezident va Oliy sud raisi.
- E. Oliy Majlis va diplomatlar.

29. Prokurorlarning vakolat muddati necha yil?
- 4 yil.
  - 10 yil.
  - 7 yil.
  - 5 yil.
30. Kim parlamentni tarqatib yuborish huquqligga ega?
- Konstitutsiyaviy sud bilan maslahatlashgan holda Prezident
  - Bosh prokuror.
  - Oliy sud.
  - Vazirlar Mahkamasi.
31. Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z Konstitutsiyasi mavjudmi?
- Yo'q, o'z Konstitutsiyasiga ega bo'lishi mumkin emas.
  - Ha, Qoraqalpog'iston o'z Konstitutsiyasiga ega.
  - Butun O'zbekiston hududida faqat yagona Konstitutsiya – O'zbekiston Konstitutsiyasi amal qiladi.
  - Ha, mavjud, u butun O'zbekiston hududida ham kuchga ega.
32. Qonunchilik palatasi va Senatning vakolat muddati necha yil?
- 4 yil
  - 6 yil.
  - 5 yil.
  - 7 yil.
33. O'zbekistonda ijro etuvchi hokimiyat nima deb ataladi?
- Vazirlar Mahkamasi.
  - Oliy Majlis.
  - Prezident Devoni.
  - Oliy sud.
34. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining boshlig'i kim deb ataladi?
- Rais.
  - Boshqaruvchi.
  - Spiker.
  - Direktor.
35. Agar O'zbekiston va Qoraqalpog'iston o'rtasida nizolar yuzaga kelsa, bu nizolar qanday hal etiladi?
- Xorijlik mutaxassislar jalb etiladi.
  - Murosaga keltiruvchi vositalar yordamida hal etiladi.
  - Qoraqalpog'istonning qonun chiqaruvchi organi tarqatib yuboriladi.
  - Ikki o'rtada nizolar chiqishi mumkin emas.
36. Oliy Majlisning palatalari qanday normativ-huquqiy hujjat qabul qilishi mumkin?
- Qonun.
  - Qaror.
  - Farmon.
  - Farmoyish.
37. O'zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyat nima deb ataladi?
- Vazirlar Mahkamasi.
  - Qonunchilik palatasi.
  - Prezident.
  - Oliy Majlis.
38. O'zbekiston Prezidenti qonun loyihasi yuzasidan o'z e'tirozlarini bildirib qonumni orqaga – Oliy Majlisga qaytarishga haqlimi?
- Yo'q, haqli emas. Prezident qonumni imzolashi shart.
  - Agar Oliy Majlis imzolashni qat'iy talab qilsa, orqaga qaytarishga haqli.
  - Ha, orqaga qaytarishga haqli.

E. Agar Oliy Majlis qonuni imzolamasdan orqaga qaytarishni talab qilsa, qaytarishga baqli.

39. O'zbekiston Konstitutsiyasiga ko'ra, jamiyatning asosiy bo'g'inl nima?

- A. Mahalla.
- B. Oila.
- D. Qishloq.
- E. Shahar.

40. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i qachon qabul qilingan?

- A. 18.11.1991 - y.
- B. 03.06.1992 - y.
- D. 10.12.1992 - y.
- E. 05.10.1991 - y.

41. Qonunlar qo'llanilishining majburiy sharti nima?

- A. Qonunlarni matbuotda e'lon qilish.
- B. Qonunlarning Senat tomonidan ma'qullanishi.
- D. Qonunlarning Oliy Majlis tomonidan qabul qilinishi.
- E. Qonunlarni qabul qilishdan oldin keng muhokama qilinishi.

42. Senat boshlig'i kim deb ataladi?

- A. Spiker.
- B. Rais.
- D. Direktor.
- E. Ish yurituvchi.

43. O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi qachon qabul qilingan?

- A. 18.11.1991 - y.
- B. 03.06.1992 - y.
- D. 05.10.1991 - y.
- E. 10.12.1992 - y.

44. Xalq deputatlari shahar tarkibidagi tuman Keragashi mavjudmi?

- A. Yo'q, mavjud emas.
- B. Ha, mavjud.
- D. Lozim deb hisoblanganda tuziladi.
- E. Faqat Toshkent shahrida mavjud.

45. Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z fuqaroligi mavjudmi?

- A. Ha, mavjud.
- B. Yo'q, mavjud emas.
- D. O'zbekistonda faqat O'zbekiston fuqaroligi mavjud.

E. Qoraqalpog'iston hududiga kirgan har bir shaxs Qoraqalpog'iston fuqarosi hisoblanadi.

46. Kimlar qonunchilik tashabbusi huquqqa ega?

A. Prezident, Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati, Qonunchilik palatasi deputatlari, senatorlar, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi, prokurorlar.

B. Prezident, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudlari, Qonunchilik palatasi deputatlari, hokimlar, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokuror.

D. Prezident devoni, Qoraqalpog'iston Respublikasi (o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali), Senat a'zolari, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi, Markaziy bank boshqaruvining raisi.

E. Prezident, Qoraqalpog'iston Respublikasi (o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali), Qonunchilik palatasi deputatlari, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokuror.

47. Prezident o'z vakolatlarini bajara olmaydigan holatlarda zimmasiga Prezidentning vakolatlari yuklatilgan shaxs qancha vaqt ichida Prezident vazifasini vaqtincha bajarib turadi?

- A. 1 oy.
  - B. 2 oy.
  - D. 3 oy.
  - E. 4 oy.
- 48. O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi qachon qabul qilingan?**
- A. 05.10.1991- y.
  - B. 02.07.1992- y.
  - D. 18.11.1991- y.
  - E. 10.12.1992- y.
- 49. Xalq deputatlari tumanga bo'ysunuvchi shahar Kengashlari mavjudmi?**
- A. Ha, mavjud.
  - B. Zarurat bo'lganda tashkil etiladi.
  - D. Yo'q, mavjud emas.
  - E. Faqat qishloq tumanlarida mavjud.
- 50. O'zbekiston parlamentining quyi palatasi nima deb ataladi?**
- A. Senat.
  - B. Deputatlar uyushmasi.
  - D. Qonunchilik palatasi.
  - E. Oliy Majlis.
- 51. Fuqarolar yig'iniining raisi (Oqsoqol) va uning maslahatchilari necha yilga saylanadi?**
- A. 1,5 yilga.
  - B. 2 yilga.
  - D. 3 yilga.
  - E. 2,5 yilga.
- 52. O'zbekistonning Konstitutsiyasi va qonunlari...**
- A. ... barcha viloyatlar va faqat Toshkent shahrida kuchga ega.
  - B. ... O'zbekistonning butun hududida kuchga ega.
  - D. ... faqat Qoraqalpog'istonda kuchga ega emas.
  - E. ... faqat viloyatlarda kuchga ega.
- 53. Prezidentlikka nomzod oldiga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?**
- A. 30 yoshdan kichik bo'lmasligi, bevosita saylovga kamida 5 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan bo'lishi, o'zbek va rus tillarini yaxshi bilishi.
  - B. 35 yoshdan katta bo'lmasligi, bevosita saylovga kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan bo'lishi, qonunlarni yaxshi bilishi.
  - D. 35 yoshdan kichik bo'lmasligi, bevosita saylovga kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan bo'lishi, davlat tilini yaxshi bilishi, O'zbekiston fuqarosi bo'lishi.
  - E. 35 yoshdan katta bo'lmasligi, bevosita saylovga ko'pi bilan 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan bo'lishi, o'zbek tilini yaxshi bilishi.
- 54. O'zbekiston Prezidenti ayni vaqtda deputat bo'lishi mumkinmi?**
- A. Ha, Prezidenti ayni vaqtda deputat hamdir.
  - B. Yo'q, Prezident deputat bo'lishi mumkin emas.
  - D. Ha, bo'lishi mumkin, faqat Qonunchilik palatasining majlislarida ishtirok etayotgan vaqtda.
  - E. Yo'q, chunki uning o'zi deputatlarni lavozimga tayinlaydi.
- 55. O'zbekiston parlamentining yuqori palatasi nima deb ataladi?**
- A. Qonunchilik palatasi.
  - B. Oliy Majlis.
  - D. Senat.
  - E. Oliy Kengash.
- 56. Prezident qanday normativ-huquqiy hujjatlar chiqarish huquqiga ega?**
- A. Farmon, farmoyish va qaror.

- B. Qonun, farmon va qaror.  
 D. Ajrun, qonun va farmoyish.  
 E. Farmoyish, hukm va farmon.
57. O'zbekistonda davlat hokimiyati ...  
 A. ... qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatidan iborat.  
 B. ... parlament, Prezident va Oliy sudidan iborat.  
 D. ... hokimiyatlar, Oliy Majlis va Oliy xo'jalik sudidan iborat.  
 E. ... sudlar, hokimiyatlar va Qurolli Kuchlardan iborat.
58. Davlat hokimiyatining birdan-bir manbai kim?  
 A. Prezident.  
 B. Xalq.  
 D. Deputatlar.  
 E. Hokimlar.
59. Qonun loyihasi dastlab Oliy Majlisning qayal palatasida ko'rib chiqiladi?  
 A. Senatda.  
 B. Qonunchilik palatasida.  
 D. Ikkala palataning qo'shma majlisida bir vaqtda.  
 E. Istalgan palatada.
60. Kim Qonunchilik palatasining deputati yoki Senat a'zosi bo'la oladi?  
 A. Saylov kuni 23 yoshga to'lgan va kamida 10 yil O'zR hududida muqim yashayotgan O'zRning fuqarosi.  
 B. Saylov kuni 20 yoshga to'lgan va kamida 7 yil O'zR hududida muqim yashayotgan O'zRning fuqarosi.  
 D. Saylov kuni 25 yoshga to'lgan va kamida 5 yil O'zR hududida muqim yashayotgan O'zRning fuqarosi.  
 E. Saylov kuni 22 yoshga to'lgan va kamida 6 yil O'zR hududida muqim yashayotgan O'zRning fuqarosi.
61. Referendum asosida Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish mumkinmi?  
 A. Yo'q, mumkin emas.  
 B. Ha, mumkin.  
 D. Referendumning Konstitutsiyaga hech qanday aloqasi yo'q.  
 E. Konstitutsiyaga o'zgartirishni deputatlar amalga oshiradilar.
62. Iste'foga chiqqan O'zbekiston Prezidentini qayal lavozimni egallaydi?  
 A. Konstitutsiyaviy sudning a'zosi bo'ladi.  
 B. Toshkent shahar hokimi bo'ladi.  
 D. Bosh vazir bo'ladi.  
 E. Senat a'zosi bo'ladi.
63. Advokatura nima uchun xizmat qiladi?  
 A. Buzilgan qonunni tiklash uchun.  
 B. Ayblanuvchini "aybdor emas" deyish uchun.  
 D. Fuqarolarga, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun.  
 E. Shaxsning yonida dalda berib turish uchun.
64. Prokuratura tizimiga kim boshchilik qiladi?  
 A. Bosh prokuror.  
 B. Bosh vazir.  
 D. Prezident.  
 E. Adliya vaziri.
65. Oliy sud qanday organ?  
 A. U nizomi eng oxirida ko'radi.  
 B. Sudlar ichida eng oliysidir.  
 D. Fuqarolik, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir.

- E. Quyi sudlarning qarorlarini bekor qiladigan organ.
66. Deputat universitetda talabalarga dars berishi va buning uchun haq olishi mumkinmi?
- Yo'q, mumkin emas.
  - Ha, mumkin.
  - Yakshanba kunlari mumkin, chunki u qolgan kunlari ishda bo'ladi.
  - Dars berishi mumkin, biroq buning uchun haq olishi mumkin emas.
67. Senat qarorlarini kim imzolaydi?
- Prezident.
  - Qonunchilik palatasining Spikeri.
  - Bosh vazir.
  - Senat Raisi.
68. Prezident "men Yaponiyaga ketayapman" deb o'z vakolatlarini vaqtincha bajarib turtishni kimga topshirib ketishi mumkin?
- Prezident o'z vakolatlarini bajarishni hech kimga topshirishga haqli emas.
  - Bosh prokurorga topshirib ketishi mumkin.
  - Bosh vazirga topshirishi mumkin.
  - Qurolli Kuchlar oliy bosh qo'mondoniga topshiradi.
69. Kim Milliy xavfsizlik xizmatini tuzadi?
- Bosh vazir.
  - Bosh prokuror.
  - O'zbekiston Prezidenti.
  - Ichki ishlar vaziri.
70. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputatini jinoyat javobgarlikka tortish uchun kimning roziligi talab etiladi?
- Qonunchilik palatasining roziligi talab etiladi.
  - Prezidentning roziligi talab etiladi.
  - Bosh vazirning roziligi talab etiladi.
  - Saylovchilarning roziligi talab etiladi.
71. Har kim bilim olish huquqiga ega ekanligi Konstitutsiyaning nechanchi maddasida belgilab qo'yilgan?
- 14- maddada.
  - 25- maddada.
  - 41- maddada.
  - 52- maddada.
72. Qonunchilik palatasi qarorlarini kim imzolaydi?
- Prezident.
  - Qonunchilik palatasi Spikeri.
  - Qonunchilik palatasi qaror qabul qilishi mumkin emas.
  - Istalgan deputat.
73. Qaysi organ Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasining O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida xulosas beradi?
- Bosh vazir.
  - Konstitutsiyaviy sud.
  - Oliy sud.
  - Bosh prokuror.
74. O'zbekistonning bank tizimini kim boshqaradi?
- Prezident.
  - Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki.
  - Markaziy bank.
  - Adliya vaziri.



75. O'zbekiston fuqaroligini qabul qilmoqchi bo'lgan shaxs kimga murojaat qilishi kerak?

- A. Qayerda yashamoqchi bo'lsa, o'sha joyning hokimiga.
- B. O'zbekiston fuqarosi bo'lish uchun shu yerda tug'ilish kerak.
- D. O'zbekiston Prezidentiga.
- E. Xohlagan davlat organiga murojaat qilsa bo'ladi.

76. Hokimlarning vakolat muddati necha yil?

- A. 2 yil.
- B. 7 yil.
- D. Belgilanmagan.
- E. 5 yil.

77. O'zbekiston Konstitutsiyasiga qaysi organ sharh berishi mumkin?

- A. Prezident.
- B. Konstitutsiyaviy sud.
- D. Bosh prokuror.
- E. Oliy Majlis.

78. Markaziy saylov komissiyasini tuzish kimga vakolatiga kiradi?

- A. Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatiga kiradi.
- B. Prezidentning vakolatiga kiradi.
- D. Bosh prokurorning vakolatiga kiradi.
- E. Bosh vazirning vakolatiga kiradi.

79. O'zbekistonning Qurolli Kuchlari nima uchun tuziladi?

- A. O'zbekistonning xavfsizligini ta'minlash uchun.
- B. Yigitlarning armiyada xizmat qilishlarini yo'lga qo'yish uchun.
- D. Qurolli Kuchlar bu tom ma'noda davlatning kuchi ekanligini ko'rsatish uchun.
- E. Konstitutsiya buzilishining oldini olish uchun.

80. O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan XII chaqiriq Oliy Kengashning XI sessiyasida quyidagi qonunlarning qaysi biri qabul qilingan edi?

- A. O'zbekistonning "Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonuni.
- B. O'zbekistonning "Davlat madhiyasi to'g'risida"gi Qonuni.
- D. O'zbekistonning "Davlat gerbi to'g'risida"gi Qonuni.
- E. O'zbekistonning "Davlat chegarasi to'g'risida"gi Qonuni.

81. O'zbekistonning Davlat gerbidagi sakkiz qirrali burchak nimaning anglatadi?

- A. Oktabr
- B. Musamman. Hayotning barcha tomonlarini ma'lum bir g'oya, kuch birlashtiradi degan ma'nosi bor. Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarning qadimiy obidalarida hamda kitob bezatish san'atida uchraydi.

- D. O'zbekiston yer yuzining sakkiz burchagida ham mashhur.
- E. Davlat gerbi to'g'risida Konstitutsiyada 8- modda mavjud.

82. O'zbekiston Davlat madhiyasining ijodkorlari kimlar?

- A. Erkin Vohidov so'zi va Turg'un Alimatov musiqasi.
- B. Abdulla Oripov so'zi va Mutal Burhonov musiqasi.
- D. Muhammad Yusuf she'ri va Ulug'bek Musayev musiqasi.
- E. Usmon Azim she'ri va xalq musiqasi.

83. Konstitutsiyaga ko'ra, O'zbekiston qanday respublika?

- A. Suveren demokratik respublika.
- B. Jahon hamjamiyatiga qo'shilgan respublika.
- D. Qozog'istonga qo'shni bo'lgan respublika.
- E. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan respublika.

84. Konstitutsiyaning qaysi moddasida O'zbekistonning poytaxti belgilangan?

- A. 5- moddada.
- B. 8- moddada.

D. 7- moddada.

E. 6- moddada.

85. Quyidagi huquqiy norma Konstitutsiyaning qaysi moddasida belgilangan: "O'zbekiston – suveren demokratik respublika"?

A. 1- moddada.

B. 2- moddada.

D. 3- moddada.

E. 4- moddada.

86. "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi ni joriy etish to'g'risida"gi O'zRning qonuni qachon qabul qilingan?

A. 21.12.1995- y.

B. 02.09.1993- y.

D. 21.11.2000- y.

E. Bunday qonun mavjud emas.

87. Kim yoldi nima xalq inodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi?

A. Fuqarolar.

B. Barcha insonlar.

D. Davlat.

E. Mutaxassislar.

88. Kimlar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar?

A. Chet elliklar.

B. Davlat organlari va mansabdor shaxslar.

D. Xususiy korxonalar.

E. Soliqlarni to'lamagan qarzdorlar.

89. Quyidagi huquqiy norma Konstitutsiyaning qaysi moddasida belgilangan: "Davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari bir ma'noni bildiradi"?

A. 1- moddada.

B. 3- moddada.

D. 5- moddada.

E. 7- moddada.

90. O'zbekiston o'z davlat ramzlariga egaligi Konstitutsiyaning qaysi moddasida belgilangan?

A. 4- moddada.

B. 5- moddada.

D. 6- moddada.

E. 7- moddada.

91. O'zbekistonda millatlararo muomala tili qaysi tili?

A. Fuqarolar o'z xohishlariga ko'ra tanlaydilar.

B. O'zbek tili.

D. Rus tili.

E. Qoraqalpoq tili.

92. Konstitutsiyaning "Davlat suvereniteti" deb nomlangan bobni nechta moddani o'z ichiga qamrab oladi?

A. 5 ta.

B. 8 ta.

D. 7 ta.

E. 6 ta.

93. Davlat tili to'g'risidagi huquqiy norma Konstitutsiyaning qaysi moddasida belgilangan?

A. 3- moddada.

B. 4- moddada.

- D. 5- moddada.  
E. 6- moddada.
94. O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tiliari, urf-odatlari va an'analari rivojlanishi uchun sharoitni kim yaratib beradi?  
A. O'zbekiston.  
B. "Har kim o'z taqdirining duradgori"  
D. Chet el elchixonalari.  
E. Hech kim yaratib bermaydi.
95. O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi darisiz va bo'linmas ekanligi Konstitutsiyaning qaysi moddasida ko'rsatilgan?  
A. 2- moddada.  
B. 3- moddada.  
D. 4- moddada.  
E. 5- moddada.
96. O'zbekiston xalqini kimlar tashkil etadi?  
A. O'zbeklar.  
B. O'zbekiston fuqarolari.  
D. O'zRning o'z fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.  
E. Barcha insonlar.
97. Nima uchun O'zbekiston xalqi nomidan faqat Oliy Majlis va Prezident ish olib borishi mumkin?  
A. Chunki ularni xalq saylagan.  
B. Chunki ular davlat hokimiyatining yuqori organlari hisoblanadi.  
D. Chunki demokratik davlatlarda ana shunday belgilangan.  
E. Chunki boshqalar ish olib borishga qodir emas.
98. O'zbekistonda ijtimoiy hayot nima asosida rivojlanadi?  
A. Siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi asosida.  
B. Siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonunning borligi asosida.  
D. Mukammal qonunlar yaratish asosida.  
E. Har kimning o'z yo'lini topishi asosida
99. Konstitutsiyaning birinchi bo'limi nechta moddadan iborat?  
A. 15 ta.  
B. 16 ta  
D. 17 ta.  
E. 18 ta.
100. Qanday mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin?  
A. Xalq demokratik partiyasining mafkurasi.  
B. Siyosiy partiyalarning mafkuralari.  
D. Hech qaysi mafkura.  
E. Eng ilg'or mafkura.
101. "Xalq hokimiyatchiligi" Konstitutsiyaning nechanchi bobida yoritilgan?  
A. Birinchi bobida.  
B. Ikkinchi bobida.  
D. Uchinchi bobida.  
E. To'rtinchi bobida.
102. Uzunligi 250 sm ga, kengligi 125 sm ga teng. Har bir en – 40 sm ga teng bo'lib, enning chetlaridan kengligi 2,5 sm ga teng hoshiya o'tkazilgan. Gap nima haqida bormoqda?  
A. O'zbekistonning Davlat bayrog'i haqida.  
B. Toshkentdagi O'zbekiston shohko'chasi haqida.  
D. Samarqanddagi Chuqursoy boshi berk ko'chasi haqida.  
E. Ginnessning rekordlar kitobiga kirgan belbog' haqida.

103. Konstitutsiyaning "Xalq hokimiyatchiligi" bobi qaysi moddalarni o'z ichiga qamrab oladi?

- A. 5- moddadan 13- moddagacha.
- B. 6- moddadan 14- moddagacha.
- D. 7- moddadan 14- moddagacha
- E. 8- moddadan 16- moddagacha.

104. O'zbekiston fuqarosi ayni vaqtda quyidagi davlatlardan qaysi birtning fuqarosi bo'lishi mumkin?

- A. Rossiyaning.
- B. Qozog'istonning.
- D. Hech qaysi davlatning.
- E. Qoraqalpog'istonning.

105. "Tashqi siyosat" Konstitutsiyaning qaysi bobida yoritilgan?

- A. Uchinchi bobida.
- B. To'rtinchi bobida.
- D. Beshinchi bobida.
- E. Oltinchi bobida.

106. Quyidagi qonun hujjatlaridan qaysi biri Konstitutsiyaga zid kelishi mumkin?

- A. Jinoyat kodeksi.
- B. Oila kodeksi.
- D. Hech bir qonun hujjati.
- E. Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasi.

107. Konstitutsiyaning birinchi bo'limi nechta bobdan iborat?

- A. 3 ta.
- B. 4 ta.
- D. 5 ta.
- E. 6 ta.

108. O'zbekiston fuqarosi ko'p fuqarolikka ega bo'lishi mumkinmi?

- A. Yo'q.
- B. Ha.
- D. Xohlasa bo'lishi mumkin.
- E. Ha, faqat Qoraqalpog'iston fuqaroligiga ega bo'ladi.

109. Chet elda yashovchi shaxs O'zbekiston fuqaroligiga o'tmoqchi bo'lsa, nima qilishi kerak?

- A. Tegishli davlatdagi O'zbekiston elchixonasiga murojaat qiladi.
- B. O'zbekistondagi qarindosh-urug' yoki tanishlari orqali O'zbekistonning ichki ishlar idoralariga murojaat qiladi.
- D. O'zbekistonga kelib tegishli organlarga murojaat qiladi.
- E. Nima qilish kerakligini so'rashi kerak.

110. O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilish masalasini kim hal etadi?

- A. O'zbekiston Prezidenti (Farmon chiqaradi).
- B. Oliy Majlis (qaror chiqaradi).
- D. Vazirlar Mahkamasi (qaror chiqaradi).
- E. Tegishli davlatdagi O'zbekiston elchisi (qaror chiqaradi).

111. Aktiv saylov huquqligiga ega bo'lish uchun fuqaro necha yoshga to'lgan bo'lishi lozim?

- A. 35 yoshga.
- B. 21 yoshga.
- D. 25 yoshga.
- E. 18 yoshga.

112. "Konstitutsiya" so'zining lug'aviy ma'nosi qanday?

A. Lotincha "constitutio" so'zidan olingan bo'lib, "o'rnatish", "belgilash", "qurilish" degan ma'nolarni bildiradi.

B. Grekcha "consaltii" so'zidan olingan bo'lib, "Bosh Qonun" degan ma'noni bildiradi.

D. Ruscha "konstitutsiya" so'zidan olingan bo'lib, "Asosiy Qonun" degan ma'noni bildiradi.

E. O'zbekcha so'z bo'lib, "qonunlarning qonuni" ma'nosini beradi.

113. O'zbekiston fuqarolari bo'lgan er va xotin fuqarolikka ega bo'lmagan shaxsni farzandlikka oldi. Fuqarolikka ega bo'lmagan shaxs O'zbekiston fuqaroligiga ega bo'lishi mumkinmi?

A. Ha, u O'zbekiston fuqarosi bo'ladi.

B. Yo'q, u O'zbekiston fuqarosi bo'la olmaydi.

D. Fuqarolikka ega bo'lmagan shaxsning o'zi hal qiladi.

E. Qaysi davlatda farzandlikka olishlariga qarab.

114. Er – O'zbekiston fuqarosi. Xotin – fuqaroligi yo'q shaxs. Er-xotin Yaponiyada farzand ko'rishdi. Farzand qaysi davlat fuqarosi bo'ladi?

A. Hech qaysi davlat fuqarosi bo'lmaydi.

B. Yaponiya fuqarosi.

D. O'zbekiston fuqarosi.

E. Chet el fuqarosi bo'ladi.

115. Er – O'zbekiston fuqarosi, Fransiyada yashayapti. Xotin – Fransiya fuqarosi. Er-xotin O'zbekistonda farzand ko'rishdi. Farzand qaysi davlat fuqarosi bo'ladi?

A. O'zbekiston va Fransiyadan boshqa har qanday davlatning.

B. Fransiya fuqarosi.

D. Ota-onaning xohishiga ko'ra belgilanadi.

E. O'zbekiston fuqarosi.

116. "Tashqi siyosat" deb nomlangan bob necha moddadan iborat?

A. Bitta.

B. Ikki.

D. Uchta.

E. To'rtta.

117. "Konstitutsiya va qonunning ustunligi" qaysi bobda yoritilgan?

A. Ikkinchi bobda.

B. Uchinchi bobda.

D. To'rtinchi bobda.

E. Beshinchi bobda.

118. Fuqaroligi bo'lmagan shaxs deb kimga aytiladi?

A. O'zbekiston fuqaroligiga ega bo'lmagan shaxsga.

B. O'zbekistonda turgan chet el fuqarosiga.

D. O'zbekiston fuqaroligiga va biror davlat fuqaroligiga ega bo'lmagan shaxsga.

E. Pasportni ko'rsatishdan bosh tortgan shaxsga.

119. Konstitutsiyaning "Asosiy printsiplar"i qaysi bo'limga yoritilgan?

A. Birinchi bo'limga.

B. Ikkinchi bo'limga.

D. Uchinchi bo'limga.

E. To'rtinchi bo'limga.

120. Ijtimoiy faollik shakllarini aniqlang.

A. Ma'ruza o'qish, seminarlarda qatnashish va nutq so'zlash.

B. Husharlarda qatnashish, partiya faoliyatida ishtirok etish.

D. Mehnat qilish, mehnat ta'tilida bo'lish.

E. Mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar.

121. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqlimi?

- A. Ha, haqli.
  - B. Agar vakolatga ega bo'lsa, haqli.
  - D. Yo'q, haqli emas.
  - E. Faqat yakka a'zosi haqli emas.
122. Qaysi organ Bosh prokurorning hisobotini eshitadi?
- A. O'zbekiston Bosh vaziri.
  - B. O'zbekiston Prezidenti.
  - D. Oliy Majlisning quyi palatasi – Qonunchilik palatasi.
  - E. Oliy Majlisning yuqori palatasi – Senat.
123. Davlat mukofotlarini qaysi organ ta'sis etadi?
- A. O'zbekiston Prezidenti.
  - B. Oliy Majlis (masalani ikki palata birgalikda ko'rib chiqadi).
  - D. O'zbekiston Bosh vaziri.
  - E. Vazirlar Mahkamasi.
124. Viloyat sudyasini kim tayinlaydi?
- A. O'zbekiston Prezidenti.
  - B. O'zbekiston Oliy sudi Raisi.
  - D. O'zbekiston Konstitutsiyaviy sudi Raisi.
  - E. O'zbekiston Oliy Majlisi Senatining Raisi.
125. Kim Bosh vazir nomzodini taqdim etish huquqiga ega?
- A. O'zbekiston Prezidenti.
  - B. Amaldagi Bosh vazir.
  - D. Qonunchilik palatasida eng ko'p o'rinni qo'lga kiritgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p o'rinlarni qo'lga kiritgan siyosiy partiyalar.
  - E. Qonunchilik palatasining Spikeri.
126. Bosh vazir lavozimidan ozod etilsa, u bilan birga qaysi organ iste'foga chiqadi?
- A. O'zbekiston Prezidenti.
  - B. O'zbekiston Oliy Majlisi.
  - D. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi.
  - E. O'zbekiston Bosh prokurori.
127. O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qaysi organ qabul qiladi?
- A. O'zbekiston Prezidenti.
  - B. O'zbekiston Oliy Majlisi (masalani palatalar birgalikda ko'rib chiqadi).
  - D. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi.
  - E. O'zbekiston Moliya vaziri.
128. Kim va qaysi organ xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qiladi?
- A. O'zbekiston Prezidenti.
  - B. O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi.
  - D. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi.
  - E. O'zbekiston Oliy Majlisi.

**D'zbekiston Konstitutsiyasi bo'yicha test savollarning to'g'ri javoblari**

Savol raqami	To'g'ri javob	Savol raqami	To'g'ri javob	Savol raqami	To'g'ri javob	Savol raqami	To'g'ri javob
1	D	33	A	65	D	97	A
2	B	34	D	66	B	98	A
3	E	35	B	67	E	99	D
4	D	36	B	68	A	100	D
5	A	37	E	69	D	101	B
6	A	38	D	70	A	102	A
7	B	39	B	71	D	103	D
8	B	40	A	72	B	104	D
9	E	41	A	73	B	105	B
10	A	42	B	74	D	106	D
11	B	43	E	75	D	107	B
12	B	44	A	76	E	108	A
13	B	45	A	77	B	109	A
14	B	46	E	78	A	110	A
15	A	47	D	79	A	111	E
16	D	48	B	80	E	112	A
17	D	49	D	81	B	113	A
18	A	50	D	82	B	114	D
19	B	51	E	83	A	115	E
20	B	52	B	84	E	116	A
21	B	53	D	85	A	117	B
22	E	54	B	86	B	118	D
23	B	55	D	87	D	119	A
24	A	56	A	88	B	120	E
25	B	57	A	89	A	121	D
26	A	58	B	90	B	122	E
27	D	59	B	91	A	123	B
28	B	60	D	92	E	124	A
29	E	61	B	93	B	125	D
30	A	62	E	94	A	126	D
31	B	63	D	95	B	127	B
32	D	64	A	96	B	128	E

**ADVOKAT** (lot. *advocatus* - chaqirilgan, yaratilgan) - oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan, belgilangan tartibda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani olgan O'zbekiston fuqarosi.

**ADVOKATURA** (lot. *advoco* - taklif etaman) - advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga olgan huquqiy institut. Advokatura O'zbekiston fuqarolariga, chet el fuqarolariga, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalarga, tashkilotlarga, muassasalarga yuridik yordam ko'rsatadi.

**AFV ETISH** - jazodan ozod qilishning bir turi. O'zR Jinoyat kodeksining 76-moddasiga ko'ra, ma'lum bir shaxsga sodir etgan jinoyatlari uchun tayinlangan jazoni qisman o'zgartirish, boshqa jazo bilan almashtirish yoki unga tayinlangan jazoning o'talmay qolgan qismini engilroq jazo bilan almashtirish mumkin. Afv etish Prezident farmoni asosida amalga oshiriladi.

**AKKREDITATSIYA** (lot. *accredere* - ishonch bildirmoq; ing. *accreditation*) - diplomatiya va boshqa xalqaro munosabatlarga tatbiqan olganda akkreditatsiya shaxsning boshqa davlatda yoki xalqaro tashkilotda muayyan davlatning vakili etib tayinlanganini bildiradi. Tayinlash jarayoni (akkreditatsiya qilish) bir necha bosqichni o'z ichiga oladi: davlatning tashqi siyosiy idorasi tomonidan diplomatik vakil nomzodini tanlash; bu nomzodni davlatning diplomatik vakilni tayinlashga vakolati organi yoki mansabdor shaxsiga (O'zRda - O'zR Prezidentiga) tavsiya etish (taqdim etish); mazkur organ (mansabdor shaxs) tomonidan tavsiya etilgan nomzodni parlamentning tegishli qo'mitalari, komissiyalari bilan kelishib olish (O'zRda Prezident O'zRning chet davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi diplomatik vakillarini O'zR Oliy Majlisi Senatiga taqdim etadi); qabul qiluvchi davlatning roziligini olish; diplomatik vakilni tayinlash to'g'risidagi huquqiy hujjatni chiqarish; diplomatik vakil tomonidan tegishli davlat boshlig'iga yoki xalqaro tashkilot rahbariga ishonch vorlig'ini topshirish.

**AMNISTIYA** (yun. *amnestia* - kechirish, afv etish, gunohidan o'tish) - oliy davlat hokimiyati organining xususiy akti, ayrim shaxslarni jinoiy jazodan ozod qilish, jinoyat ishini bekor etish yoki jazoni engillashtirish to'g'risidagi qarori. Amnistiya akti normativ xususiyatga ega, ya'ni amnistiya akti unda belgilangan talablarga javob beradigan barcha shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. Hukm etilgan shaxs amnistiya akti yoki afv etish asosida asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazolardan ozod qilinishi yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi yoki unga tayinlangan jazoning o'talmay qolgan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin.

**ARIZA** - fuqarolar murojaatlarining bir turi bo'lib, unda fuqarolar o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimosni bayon etadilar.

**ASOSIY HUQUQ VA ERKINLIKLER** - inson va fuqarolarga yashashi, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida o'z manfaat va ehtiyojlarini qondirishi uchun imkoniyat beruvchi huquq va erkinliklar yig'indisidir.

**AXBOROT** - manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar. Har bir fuqaroning axborot olish huquqi kafolatlanadi. Har kimning axborotni izlash, olish, tadqiq etish, uzatish va tarqatish huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi. Har kim axborot olishni so'rab bevosita o'zi yoxud qonuniy vakillari orqali murojaat etish huquqiga ega.



**AYBLANUVCHI** - qonunda belgilangan tartibda ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi haqida qaror chiqarilgan shaxs. Ayblanuvchi sudda sudlanuvchi deb, hukm chiqarilganidan keyin esa mahkum yoki oqlangan deb ataladi.

**AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI** - gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz deb hisoblanishi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas. **Aybdorlikka oid barcha** shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak.

**BAYROQ** davlat yoki biror-bir tashkilotning yog'och dasta (yoki arqon)ga binktirilgan, ko'pincha biror davlat yoki tashkilot belgisi bo'lgan bir yoki bir necha rangdagi matodir. O'zRning Davlat bayrog'i - bayroqning butun uzunligi bo'ylab o'tgan to'q moviy rang, oq rang va to'q yashil rangli uchta endan tarkib topgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi matodir. O'zbekistonning Davlat bayrog'i O'zR davlat suverenitetining ramzidir. O'zbekistonning Davlat bayrog'i xalqaro munosabatlarda O'zRning timsoli bo'ladi. O'zbekistonning fuqarolari, shuningdek, O'zbekistonda turgan boshqa shaxslar O'zbekistonning Davlat bayrog'ini hurmat qilishlari shart.

**BANK** - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmumi (yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanishni, to'lovlarini amalga oshirishni) amalga oshiradigan yuridik shaxsdir. O'zbekistonda tashkil etilgan hamma banklar bank faoliyatining subyektlaridir.

**BANK OMONATI (DEPOZIT)** - talab qilinishi bilan oq yoki to'lovni amalga oshiruvchi shaxs bilan to'lovni oluvchi shaxs yoxud ularning qonuniy vakillari o'rtasida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustama haq to'lagan holda yoxud bunday to'lovlarsiz hammasini qaytarib berish sharti bilan topshiriladigan pul summasi. Bank omonati shartnomasi bo'yicha birinchi tarafdan (omonatchidan) qabul qilib olgan yoki uning nomiga kelgan pul summasini (omonatni) qabul qilib olgan ikkinchi taraf (bank) shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida va tartibda omonat summasini qaytarish va unga foizlar to'lash majburiyatini oladi.

**BANK TIZIMI** - u yoki bu davlatda muayyan bir tarixiy davrda mavjud bo'lgan turli shakldagi banklar va bank institutlarining o'zaro bog'liq bo'lgan majmui. Bank tizimlarining o'ziga xos xususiyati, bank konsentratsiyasi bilan birga, ularning markaziy, tijorat, investitsiya, ipoteka, jamg'arma va boshqa bank tashkilotlari shaklida keng ixtisoslashuvi hisoblanadi. Bir tomondan, omonatlarini jalb etish, foydali va ishonchli mijozlar hamda yuqori daromad olish uchun banklar o'rtasida raqobat yuzaga kelishi, ikkinchi tomondan, banklar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni kuchaytirishga olib kelishi mana shundandir.

**BILIM OLISH HUQUQI** - davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish, ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish, ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek, ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb-hunar o'rgatish, barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lishi, oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadigan huquq. Boshqa davlatlarning fuqarolari O'zbekistonda xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega. Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O'zbekiston hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'iy nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi.

**BITIM** - fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlar. Bitimlar bir tarafdama, ikki tarafdama yoki ko'p tarafdama (shartnomalar) bo'lishi mumkin. Bitim tuzish uchun qonun hujjatlariga yoki

tarafdaming kelishuviga muvofiq bir tarafning xohishi zarur va yetarli bo'lsa, bunday bitim bir tarafdama bitim hisoblanadi. Shartnoma tuzish uchun ikki taraf (ikki tarafdama bitim) yoki uch yoxud undan ko'p taraf (ko'p tarafdama bitim) kelishib xohish bildirgan bo'lishi kerak.

**BOJ** - O'zRning bojxona chegarasidan tovarlar olib o'tilayotganda bojxona organlari tomonidan undiriladigan to'lov. O'zRda import boji, eksport boji, mavsumiy va alohida (maxsus, antidemping, kompensatsiya) boj qo'llaniladi. Import boji xalqaro shartnomalarga muvofiq belgilanadi. Import va eksport bojining stavkalari O'zR Prezidentining qarori bilan belgilanadi. Mavsumiy bojlar O'zR VM tomonidan belgilanib, tovarlar olib kirish va olib chiqishni tezkor tartibga solish uchun qo'llaniladi. Bunda boj tarifida nazarda tutilgan boj stavkalari qo'llanilmaydi. Mavsumiy bojlar ular belgilangan vaqtdan e'tiboran olti oydan ortiq amal qilishi mumkin emas. Alohida bojlarning qo'llanilish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

**BOZOR IQTISODIYOTI** - erkin tovar pul munosabatlariga asoslangan, iqtisodiy monopolizmni inkor etuvchi, aholini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilgan va boshqariladigan iqtisodiy tizim.

**DAVLAT BOSHQARUV ORGANI** - bu hokimiyat organlari tizimining bir qismi bo'lgan, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni ijro etish va ijrosini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan tashkil etiladigan, boshqaruv harakatlarining maxsus shakl va uslublaridan foydalanib, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida boshqaruv funksiyalarini amalga oshiradigan, tegishli tuzilishga, vakolatlarga va davlat xizmatchilari shtatlariga ega bo'lgan tashkilotdir.

**DAVLAT BUDJETI** - davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**DAVLAT MUKOFOTI** - "O'zbekiston Qahramoni" unvoni, O'zRning ordenlari, medallari, faxriy unvonlari va Faxriy yorlig'i. O'zRning fuqarolari mehnat va jangovar xizmatlari, samarali davlat, ijtimoiy va ijodiy faoliyatlari uchun davlat mukofotlari bilan taqdirlanishlari mumkin. O'zbekiston uchun xizmat ko'rsatgan ebet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham O'zRning davlat mukofotlari bilan taqdirlanishlari mumkin. Davlat mukofotlari Oliy Majlis tomonidan ta'sis etiladi. Davlat mukofotlari bilan O'zbekistonning Prezidenti taqdirlaydi. Bir shaxs ayni bir orden, medal yoki Faxriy yorliq bilan, qoida tariqasida, bir marta taqdirlanadi. Faxriy unvonlar takroran berilmaydi. O'zbekistonning davlat mukofotlari bilan taqdirlash shaxsning vafotidan keyin ham amalga oshirilishi mumkin.

**DAVLAT ORGANI** - davlat tomonidan tashkil etiladigan, davlat nomidan ish ko'rib uning manfaatini qo'riqlaydigan tuzilma. Davlat boshqaruv organi davlat apparatining bir qismi bo'lib, o'z burchlarini bajarish uchun davlat tomonidan farmoyish berish huquqiga ega.

**DAVLAT SIRI** - bu davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan chegaralab qo'yiladigan alohida ahamiyatli, mutlaqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va o'zga xil ma'lumotlardir. Davlat siri - oshkor etilishi respublika harbiy iqtisodiy salohiyatining sifat bolatiga salbiy ta'sir etishi yoki O'zRning mudofaa qobiliyati, davlat xavfsizligi, iqtisodiy va siyosiy manfaatlari uchun boshqa og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar. Davlat sirlari O'zRning mulkidir. O'zRning davlat sirlari - davlat, harbiy va xizmat sirlarini qamrab oladi. Maxfiylashtirilishi fuqaroning shaxsiy xavfsizligiga tahdid soladigan axborot davlat sirlariga mansub deb topilishi mumkin emas.

**DAVLAT SUVERENITETI** - davlatning boshqa davlatdan, uning ichki va tashqi ishlari hamda tashqi munosabatlarida to'la mustaqilligi. Suverenitet davlat hokimiyatining muhim belgisi sanaladi.

**DAVLAT TILI** - davlat hokimiyati organlari, muassasalar, korxonalar va tashkilotlarning rasman ish yuritish tili, muayyan mamlakatda qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyatlari faoliyatida, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berish uchun rasmiy belgilangan til.

**DAVLAT CHEGARASI** – bu O‘zR hududi doirasini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo‘shlig‘ida) belgilovchi chiziq va bu chiziq bo‘ylab o‘tuvchi vertikal sath. Davlat chegarasini belgilash va o‘zgartirish O‘zRning xalqaro shartnomalariga asosan Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi. Davlat chegarasi joylarda aniq ko‘rinib turadigan chegara belgilari bilan ko‘rsatib qo‘yiladi. Chegara belgilarining shakllari, o‘lchamlari va ularni o‘rnatish tartibi qonun hujjatlari hamda O‘zRning xalqaro shartnomalari bilan belgilanadi. Davlat chegarasi orqali shaxslar, transport vositalari, tovarlar, boshqa mol-mulk va hayvonlarni o‘tkazish belgilangan o‘tkazish punktlari orqali amalga oshiriladi.

**DAVLAT QO‘MITASI** respublikaning markaziy ijro etuvchi organi. Davlat boshqaruvining tegishli tarmoqlarida (sohalarida) yagona davlat siyosatini yurgizadi va ushbu maqsadda qonunga ko‘ra tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

**DAVLAT HUDUDI** – qonuniy ravishda davlat suvereniteti ostida bo‘lgan yer kurrasining bir qismi. Davlat hududi tarkibiy qismlariga davlat chegarasi doirasida joylashgan quruqlik, suv, yer osti va havo kengliklari kiradi.

**DEMOKRATIYA** – konstitutsiyaviy tuzumning xalq hokimiyatchiligi va siyosiy plyuralizm, fuqarolarning erkinligi va tengligi, inson huquqlarining daxtsizligi kabilarni e‘tirof etishga asoslangan davlatning siyosiy rejimi.

**DENONSATSIYA** (fr. *denoncer* – bekor qilmoq) xalqaro shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi. Denonsatsiya shartnomaning o‘ziga muvofiq yoki xalqaro huquqning boshqa normalariga ko‘ra amalga oshiriladi. Denonsatsiya shartnomaning buzilishi hisoblanmaydi, balki shartnomaning huquqiy bekor qilinishi hisoblanadi.

**DEPUTAT** (lot. *deputatus* – vakil) – qonunchilik yoki davlatning boshqa vakillik organiga saylangan shaxs, aholining ma‘lum qismi – o‘z saylov organi saylovchilarning yoki butun millatning vakili. Deputat – bu Oliy Majlis, Jo‘qorg‘i Kengesi, tegishli xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashiga saylangan hamda O‘zR qonunlariga muvofiq tegishli saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston fuqarosi. Deputatning vakolatlari u Oliy Majlisga, Jo‘qorg‘i Kengesga, xalq deputatlari viloyat, tuman yoki shahar Kengashiga saylangan kundan boshlanadi. Deputatning vakolatlari yangi chaqiruv Oliy Majlis, Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarining deputatlari saylangan kunda yoki “O‘zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to‘g‘risida” Qonunda nazarda tutilgan hollarda tugaydi. Deputatning vakolatlarini boshqa shaxsga topahirish mumkin emas. Deputatlar o‘z vakolatlarini, qoida tariqasida, ishlab chiqarish yoki xizmat faoliyatini to‘xtatmagan holda amalga oshiradilar. Deputat saylovchilar oldida mas‘ul va hisobdordir. Deputat muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan bayon qilgan nuqtai nazari uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

**DINIY TASHKILOT** – fuqarolarning dinga e‘tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuziladigan ko‘ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o‘quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar).

**FAVQULODDA HOLAT** odamlar qurbon bo‘lishiga, ularning sog‘lig‘i yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan voki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan holat.

**FAXRIY UNVON** – fuqarolarni mehnatdagi xizmatlari, samarali davlat, ijtimoiy va ijodiy faoliyatlari uchun rag‘batlantirish maqsadida O‘zRning quyidagi faxriy unvonlari ta‘sis etilgan: “O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi”, “O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi”, “O‘zbekiston iftixon”, “O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti”, “O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi”, “O‘zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi”, “O‘zbekiston Respublikasi xalq rassomi”, “O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi”, “O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi”, “O‘zbekiston Respublikasi xalq hofizi”, “O‘zbekiston Respublikasida kommunal, maishiy va savdo sohasida xizmat ko‘rsatgan xodimi”, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan aloqa xodimi”, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist”, “O‘zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan irrigator", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ixtirochi va ratsionalizator", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan iqtisodchi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan me'mor", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan paxdakor", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan pillachi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlash xodimi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustози", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan transport xodimi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fuqaro aviatsiyasi xodimi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan chorvador", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jalik xodimi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan quruvchi".

**FRAKSIYA** – siyosiy partiyadan ko'rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasi. Siyosiy partiyadan ko'rsatilgan va O'zR Oliy Majlisining QPga saylangan deputat faqat shu partiya fraksiyasining a'zosi bo'lishi mumkin. QPning kamida to'qqiz nafar deputati fraksiyani tuzish huquqiga ega. Fraksiyalar ro'yxatdan o'tishi kerak.

**FUQAROLAR YIG'INI** – aholi manfaatlarini ifodalash va uning nomidan tegishli hududda amal qiladigan qarorlar qabul qilish huquqiga ega yig'in. Fuqarolar shaharchalar, qishloqlar, ovullar va mahallalarda o'zini o'zi boshqarishga doir o'z konstitutsiyaviy huquqini fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlariga muvofiq fuqarolar yig'inlari (vakillar yig'ilishi) orqali amalga oshiradilar. Fuqarolar yig'inida shaharcha, qishloq va ovul, shuningdek, shahar, shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla hududida doimiy yashayotgan, voyaga yetgan shaxslar qatnashadilar. Shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolar yig'ini tegishli ravishda shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlariga qonun hujjatlari bilan berilgan istalgan masalani o'zi ko'rib chiqish uchun olish va hal etish huquqiga ega.

**FUQAROLIGI BO'LMAGAN SHAXS** – O'zbekiston hududida yashab turgani holda O'zbekiston fuqarosi bo'lmagan va chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo'lmagan shaxs. Fuqaroligi bo'lmagan shaxs – biron-bir davlatning fuqarosi yuridik maqomiga ega bo'lmagan jismoniy shaxs. Fuqaroligi bo'lmagan, O'zRda doimiy istiqomat joyiga ega bo'lgan shaxslarning O'zbekiston hududida tug'ilgan bolasi O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi.

**FUQAROLIK** – shaxs bilan davlatning doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi, bu aloqa ularning o'zaro huquqlari va borib-berilishi ifodalanadi. Hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas. O'zRning fuqaroligi fuqarolikni olish asoslaridan qat'iy nazar barcha uchun tengdir. Fuqarolik masalalari yuzasidan O'zRning Prezidenti farmon chiqaradi.

**FUQAROLIK HOLATI AKTLARINI QAYD ETISH** – fuqarolik holati hujjatlarini yozish organlari tomonidan fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish daftariga (hujjatlar daftariga) tegishli yozuvlarni kiritish hamda shu yozuvlar asosida fuqarolarga guvohnomalar berish. FHDYO organlarining vazifasi fuqarolik holatlari dalolatnomalarini qayd etish yo'li bilan fuqarolarga huquqiy xizmat ko'rsatishdir. FHDYO organlari tizimini tuman va shahar FHDYO bo'limlari, Nikoh uylari, QorR Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari FHDYO arxivlari tashkil qiladi. FHDYO organlari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmaydi. FHDYO organlari faoliyatiga rahbarlik qilish va ularni nazorat qilish Adliya vazirligi va adliya boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

**HAYVONOT DUNYOSI** – kelib chiqishi hayvonlarga mansub bo'lgan organizmlar, sut emizuvchilar, parrandalar, sudralib yuruvchi hayvonlar, ham quruqlikda, ham suvda yashovchi hayvonlar, baliqlar, umurtqasizlar va ularning populyatsiyalari; yovvoyi hayvonlardan tashkil

topadigan tabiiy hayvon galalari yoki ularning har qanday to'ralari; yovvoyi hayvonlarning kam-yob yoki yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan turlari; yovvoyi hayvonlar yashash faoliyatining mahsulotlari. Hayvonot dunyosi davlat mulki umummilliy boylik bo'lib, undan oqilona foydalanilishi lozim va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Huquqlarni amalga oshirish chog'ida hayvonlar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lishga yo'l qo'yilmaydi.

**HARBIY XIZMAT** - O'zbekiston fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turidir. Harbiy xizmatning muddatli harbiy xizmat, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat, kontrakt bo'yicha harbiy xizmat va O'zbekiston Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati turlari joriy etilgan. Tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga 18 yoshdan 27 yoshgacha bo'lgan, salomatligiga ko'ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladilar.

**HOKIM** - bu tegishli viloyat, tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi va ayni bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyat boshlig'i. Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar. Tuman, shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordir. Viloyat, tuman, shahar ijroiya hokimiyatiga hokim boqchilik qiladi. Hokim VM belgilaydigan miqdorda birinchi o'rinbosar va o'rinbosarlarga ega bo'ladi. Xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O'zbekiston Prezidenti va VM qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O'zbekiston davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydi. Viloyat, tuman, shahar hokimi qarorlar qabul qiladi va farmoyishlar chiqaradi. Hokim o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan hujjatlar viloyat, tuman, shahar hududida joylashgan barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir. Viloyat va Toshkent shahar hokimining birinchi o'rinbosari hamda o'rinbosarlari hokim tomonidan O'zRning Prezidenti bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, bu xususta qabul qilingan qaror tegishli xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kintiladi.

**HUJJAT** - huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan fakt va voqealarni tasdiqlovchi, lozim darajada tuzilgan va zaruriy rekvizitlari (shtamp, imzo, muhr, sana, tartib raqami) mavjud bo'lgan yozma hujjat.

**HUQUQ** - davlat tomonidan butun jamiyat miqyosida o'rnatiladigan va muhofaza qilinadigan hamda bajarilishi barcha uchun majburiy bo'lgan tartib-qoidalar, normalar tizimi.

**ISTE'MOLCHI** - foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'lmagan holda shaxsiy iste'mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo'lgan fuqaro (jismoniy shaxs).

**ISHONCH YORLIG'I** - favqulodda va muxtor elchi yoki favqulodda va muxtor vakil tayinlangan mamlakatga jo'nab ketguniga qadar O'zR TIV unga beradigan davlatning rahbariga topshirishi uchun beradigan, O'zR Prezidenti imzolagan hamda O'zR Tasbqi ishlar vaziri imzosi bilan tasdiqlanadigan hujjat.

**JAMIYAT** - tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar mahsuli. U kishilar o'rtasidagi o'zaro harakatlarning mahsuli, ular hayotining ma'lum bir tashkiliyati, mohiyat jihatidan kishilar va ularning guruhlari o'rtasidagi turli xil (iqtisodiy, oilaviy, ma'naviy, sinfiy, diniy va boshqa) munosabatlar va aloqalar yig'indisidir.

**JAMOAT BIRLASHMASI** - o'z huquqlari, erkinliklarni hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalariidagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma. Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va

nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, fizkultura-sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e'tirof etiladi.

**JINOIY JAVOBGARLIK** – jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibati.

**JINOYAT** – O'zRning Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli'ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik).

**JINOYATCHILIK** – ma'lum bir davlatda muayyan davr mobaynida sodir etilgan barcha jinoyatlarning yig'indisi.

**KASABA UYUSHMASI** – ko'ngilli jamoat tashkiloti bo'lib, ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish sohasidagi faoliyat turiga qarab, o'z a'zolarining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bog'langan mehnatkashlarni birlashtiradi. Barcha kasaba uyushmalari teng huquqlardan foydalanadilar. Kasaba uyushmalarining huquqlarini cheklaydigan yoki shu huquqlarning amalga oshirilishiga to'sqinlik qiladigan tarzda har qanday aralashuv man etiladi.

**KONSTITUTSIYA** – mamlakatning oliy yuridik kuchga ega bo'lgan bosh qonuni. O'zR Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega bo'lgan va O'zRning butun hududida qo'llanadigan normativ-huquqiy hujjatdir.

**KONSTITUTSIYAVIY SUD** – qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radigan sud hokimiyati organi. Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston qonunlarining va Oliy Majlis palatalari qarorlarining, O'zbekiston Prezidenti farmonlarining, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O'zbekiston davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O'zbekistonning Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi, Qoraqalpog'istonning Konstitutsiyasi O'zbekistonning Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'istonning qonunlari O'zbekistonning qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi. O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarining normalariga sharh beradi, O'zbekistonning Konstitutsiyasi va qonunlari bilan o'zining vakolatlari doirasiga kiritilgan boshqa ishlarni ko'rib chiqadi. Konstitutsiyaviy sud faqat O'zbekiston Konstitutsiyasiga amal qilgan holda ishlarni hal etadi va xulosalar beradi.

**KOOPERATIV TASHKILOT** – yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan, jamoa mulki huquqi asosida o'ziga qarashli mulkka egalik qiladigan, undan foydalanadigan va uni tasarruf etadigan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt. Kooperatsiya jismoniy va yuridik shaxslarning iqtisodiy hamda ijtimoiy faoliyatning turli sohaslarida umumiy maqsadlarga erishish uchun tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan, mulkning shirkat (jamoat) shakliga asoslangan ixtiyoriy birlashmalaridan (kooperativlaridan) iboratdir. O'zbekistonda aholining mahsulotlar, ishlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun, shuningdek foyda (daromad) olish maqsadida tuziladigan matlubot, ishlab chiqarish va aralash ishlab chiqarish-matlubot kooperativlari amal qiladi. Kooperatsiya, shuningdek, o'z a'zolarining uy-joy-maishiy va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan kooperativlarni, (uy-joy-qurish uy-joy kooperativlarini, garaj qurish, chorbog' qurish va shu kabi kooperativlarni) ham o'z ichiga oladi.

**MADANIY MEROS** – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar (moddiy madaniy meros); tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek, ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar (nomoddiy madaniy meros).

**MAJBURIY MEHNAT** – biron-bir jazoni qo'llash bilan tahdid qilish orqali (shu jumladan, mehnat intizomini saqlash vositasi tariqasida) ish bajarishga majburlash. O'zRning amaldagi qonunlariga ko'ra, majburiy mehnat taqiqlanadi. Majburiy mehnat deb hisoblanmaydigan hollar qonunda ko'rsatilgan.

**MAJBURIYAT** - fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzidor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakattan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Majburiyatlari shartnomadan, ziyon yetkazish natijasida hamda qonunda ko'rsatilgan boshqa asoslardan kelib chiqadi.

**MANSABDOR SHAXS** - tashkiliy-boshqaruv yoki ma'muriy-xo'jalik vakolatlari berilgan va mas'ul mansabdor shaxs alomatlariga ega bo'lmagan shaxs.

**MAHALLIY BUDJET** - davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lar jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi viloyat, tuman, shahar budjeti va uning ijrosiga doir hisobotlarni tasdiqlaydi. Viloyat, tuman, shahar budjeti loyihalarini tayyorlash, uning ijrosini hokim amalga oshiradi.

**MITING** (ing. *meeting*) - biror-bir muhim voqea, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish uchun o'tkaziladigan yig'ilish. Miting deyilganda, odatda, bayramona kayfiyatda yoki davlat hokimiyat organlaridan norozi bo'lgan ma'lum bir siyosiy guruhning yoki ommaviy harakat yoxud ishlab chiqarish tashkilotlarining shahar markazlariga chiqib, o'z talablarini bildirishi tushuniladi.

**MOLIYA TIZIMI** - turli moliyaviy institutlar majmui. O'zR moliya tizimi quyidagi bo'g'inlardan tashkil topgan: a) davlat budjeti, uning tuzilmasiga kiruvchi respublika budjeti, QorR budjeti va mahalliy budjetlar; b) davlat maqsadli jamg'armalari va budjetdan tashqari jamg'armalar; v) xo'jalik yuntuvchi subyektlar va iqtisodiyot sohalari moliyasi; g) kredit (davlat krediti va bank krediti); d) mulkiy va shaxsiy sug'urta.

**MULK** - yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan, binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob-uskunalar, xomashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek, intellektual mulk obyektlari. Mulk daxtsizdir va qonun bilan qo'riqlanadi. Mulkning daxsizligi mulkdorga qarshi turgan barcha subyektlarning mulk huquqini buzishdan o'zlarini saqlashlaridan iboratdir. Mol-mulk mulk huquqi asosida bir shaxsga yoki ikki va undan ortiq shaxslarga qarashli bo'lishi mumkin. Mol-mulk fuqaro, yuridik shaxs yoki davlatning mulki bo'lishiga qarab mulk huquqini, mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqini vujudga keltirish va bekor qilish xususiyatlari qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi. Mulk huquqi muddatsizdir.

**MULKDOR** mol-mulkka o'z ixtiyoriga ko'ra egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan shaxs. Mulkdor o'z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday xatti-harakatlarini qilishga haqlidir. O'ziga qarashli mol-mulkni saqlash, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mulkdor zimmasidadir.

**MUOMALAGA LAYOQATSIZ DEB TOPILGAN FUQARO** - ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan va sud tomonidan qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro. Bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi. Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro nomidan bitimlarni uni vasiysi amalga oshiradi. Fuqaroning muomalaga layoqatsiz deb topilishiga sabab bo'lgan asoslar bekor bo'lsa, sud uni muomalaga layoqatli deb topadi va unga belgilangan vasiylikni bekor qiladi.

**MUXOLIFAT** - yangitdan shakllantirilgan hukumatning tutgan yo'li va dasturiga yoki uning ayrim yo'nalishlariga qo'shilmaydigan, o'zlarini muxolifat deb e'lon qilgan siyosiy partiyalar fraksiyalari, shuningdek, O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar. O'zini parlamentdagi muxolifat deb e'lon qilgan siyosiy partiya fraksiyasi qonunda fraksiyalar uchun nazarda tutilgan vakolatlar bilan bir qatorda huquqlarga ham ega. Parlamentdagi

muxoliflarning qonun bilan kafolatlangan huquqlari parlamentdagi ko'pchilik tomonidan kamsitilishi mumkin emas.

**MUQOBIL XIZMAT** – fuqarolarning umumiy harbiy majburiyatni bajarishining chaqiruv bo'yicha harbiy xizmat o'rniga iqtisodiyot, ijtimoiy sohaning turli tarmoqlarida kam malaka talab etiladigan (vordamchi) ishlarni, shuningdek, falokatlar, halokatlar, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan alohida turidir. 18 yoshdan 27 yoshgacha bo'lgan, harbiy ro'yxatda turuvchi va xizmatga chaqirilishi lozim bo'lgan fuqarolar, agar ular diniy ta'limoti qurol-varog'dan foydalanish va Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga yo'l qo'ymaydigan, ro'yxatga olingan diniy tashkilotlar hisobida tursalar, muqobil xizmat huquqiga ega. Muqobil xizmatning muddati 24 oyni, oliy ma'lumotli fuqarolar uchun esa 18 oyni tashkil etadi.

**OQSOQOL** – fuqarolar yig'ini raisi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi demokratizm, oshkoralik va teng saylov huquqi asosida o'tkaziladi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari fuqarolar yig'ini tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa fuqarolar vakillari yig'ilishi tomonidan ikki yarim yil muddatga saylanadi.

**PARLAMENT** – O'zR Oliy Majlisi — qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi O'zRning oliy davlat vakillik organi bo'lib, ikki palatadan — O'zR Oliy Majlisining QP (quyi palata)dan hamda O'zR Oliy Majlisining Senati (yuqori palata)dan iborat bo'ladi.

**PREZIDENT** – davlat rahbari. Bu atama lotincha *praesidens* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "oldinda o'tiruvchi" degan ma'noni bildiradi. Amerika Qo'shma Shtatlari prezidentlik lavozimini ta'sis etgan yunonning birinchi mamlakatidir. O'zbekistonda Prezident lavozimi 1990 yil 24 martda ta'sis etildi. O'zbekiston Prezidenti lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin. O'zbekiston Prezidenti 5 yil muddatga saylanadi.

**PROKUROR** – O'zR Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida O'zR qonunlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Prokuror surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida qonunning buzilishini, kim tomonidan sodir etilganligidan qat'iy nazar, bartaraf etish uchun qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni o'z vaqtida ko'rish shart. Prokuror o'z vakolatlarini har qanday organ va mansabdor shaxsdan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo'ysunib va O'zRning Bosh prokurori ko'rsatmalariga tayangan holda amalga oshiradi.

**QAMOQ** – shaxsni batamom ajratgan sharoit ostida saqlashdan iborat bo'lib, hir oydan olti oygacha muddatga belgilanadi (jinoiyatda).

**QONUN** eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda O'zR Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o'tkazish orqali qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjat. O'zRning Konstitutsiyasi, O'zRning qonunlari, O'zR Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonunlar hisoblanadi.

**QONUN CHIQRUVCHI HOKIMIYAT** – O'zbekiston Oliy Majlisi — qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi O'zRning oliy davlat vakillik organi bo'lib, ikki palatadan — Oliy Majlisning QP (quyi palata)dan hamda Oliy Majlisning Senati (yuqori palata)dan iborat bo'ladi.

**QONUNCHILIK TASHABBUSI HUQUQI** – QPda qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zR Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy organi orqali QorR, QP deputatlari, O'zR VM, O'zRning Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan qonun loyihasini QPga kiritish orqali amalga oshiriladi. Davlat daromadlarini kamaytirish yoki davlat xarajatlarini ko'paytirish, shuningdek, budget moddolari bo'yicha o'zgartirishlarni nazarda tutuvchi qonunlarning loyihalari faqat O'zR VMning ijobiy xulosasi bo'lgan taqdirda kiritilishi mumkin.

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING BUDJETI** – davlat budgetining QorR pul mablag'lari jang'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, budgetda daromadlar



manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**QO'SHMA MAJLIS** - bu Oliy Majlis palatalari (Senat va QP) a'zolarining bir majlisida birgalikda ishtirok etishi. QP va Senatning qo'shma majlislari O'zR Prezidenti qasamyod qilganda, O'zR Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so'zlaganda, Bosh vazir va Oliy Majlisning QP o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda QP deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zR Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritilganda o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga binoan qo'shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o'tkazilishi mumkin. Palatalarning qo'shma majlisi ochiq va oshkora o'tkaziladi. Palatalarning qo'shma majlisi, agar unda tegishincha QP deputatlari va Senat a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi. Palatalarning qo'shma majlislarida, agar qo'shma majlisda boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, QP Spikeri va Senat Raisi navbatma-navbat raislik qiladi. Palatalarning qo'shma majlisida eshitilgan masalalar muhokamasi natijalari yuzasidan palatalarning qo'shma qarori qabul qilinishi mumkin. Bunda ovoz berish, qoida tariqasida, alohida-alohida o'tkaziladi.

**RAIS** - O'zRning Konstitutsiyasida boshlig'i rais deb ataladigan quyidagi lavozimlar tilga olingan: QP qo'mitalarining raislari, Senat Raisi, Senat qo'mitalarining raislari, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi, Hisob palatasi raisi, Milliy xavfsizlik xizmati raisi, Markaziy bank Boshqaruvining raisi, Konstitutsiyaviy sud raisi, Oliy sud raisi, Oliy xo'jalik sudi raisi, fuqarolar yig'ini raisi.

**RATIFIKATSIYA** - O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekistonning xalqaro shartnomalari Oliy Majlis tomonidan ratifikatsiya qilinadi. O'zbekistonning xalqaro shartnomasini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi Oliy Majlisning to'xtami - qaror shaklida qabul qilinadi. O'zbekistonning hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomalari; davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risidagi shartnomalar; O'zbekistonning mudofaa qobiliyatiga daxldor masalalar bo'yicha shartnomalar; kuch ishlatishdan yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan o'zaro voz kechish to'g'risidagi shartnomalar; tinchlik shartnomalari va kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnomalar; O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan hududiy chegaralanishi to'g'risidagi shartnomalar; O'zbekistonning davlatlararo ittifoqlarda, xalqaro tashkilotlarda va boshqa birlashmalarda ishtiroki to'g'risidagi shartnomalar; ijrosi amaldagi qonunlarning o'zgartirilishini yoki yangi qonunlar qabul qilinishini taqozo etadigan, shuningdek, O'zbekistonning qonunlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalarni belgilaydigan xalqaro shartnomalar ratifikatsiya qilinadi.

**RESPUBLIKA BUDJETI** - davlat budjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**REFERENDUM** - O'zRning qonunlarini va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir. Referendum saylovlar bilan bir qatorda xalq irodasining bevosita ifodasidir. Referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo'ladi va faqat referendum yo'li bilan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Referendum O'zRning butun hududida o'tkaziladi. O'zRning butun hududida joriy etilgan harbiy vaqt yoki favqulodda holat sharoitlarida, shuningdek, harbiy vaqt tugagan yoki favqulodda holat bekor qilingandan keyin uch oy davomida referendum o'tkazilmaydi. Referendum natijalari rasman e'lon qilingandan keyin bir yil davomida mazmun yoki ma'nosiga ko'ra xuddi shunday savol qo'yilgan referendum o'tkazilmaydi. Referendum fuqarolarning o'z xohish-irodasini umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri bildirishi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Qonunlar belgilangan tartibda O'zRning referendumini o'tkazish yo'li bilan qabul qilinishi mumkin.

**SENAT** - hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) tarkib topadi. Senat a'zolari QorR, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda -- olti kushidan saylanadilar. Senatga saylov QorR Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so'ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Senatning o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan va alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zR Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zR hududida muqim yashagan O'zR fuqarosi Senat a'zosi bo'lishi mumkin. Senatning vakolat muddati -- besh yil.

**SENATOR** - O'zbekiston Oliy Majlisining Senatiga saylangan va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zR Qonuniga muvofiq MSK tomonidan ro'yxatga olingan, shuningdek, O'zbekiston Prezidenti tomonidan Senatga tayinlangan O'zbekiston fuqarosi. Saylov kuni 25 yoshga to'lgan hamda kamida 5 yil O'zbekiston hududida muqim yashagan O'zbekiston fuqarosi Senat a'zosi bo'lishi mumkin. Senator Senatning vakolatlari muddatiga saylanadi (tayinlanadi). Senatorning vakolatlarini boshqa shaxsga topshirish mumkin emas. Senator qonun hujjatlariga muvofiq Senatda doimiy asosda ishlashi mumkin. Senatda doimiy asosda ishlovchi senator o'z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas. Senator Senatning majlisida ko'rib chiqilayotgan barcha masalalar bo'yicha hal qiluvchi ovoz huquqidan foydalanadi.

**SENZURA** - nashrga tayyorlangan qo'lyozmalar va materiallarni senzura bilan o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Jurnalistdan xabarlar va materiallarni oldindan kelishib olishini, shuningdek, material yoxud xabarning matnini o'zgartirishni yoxud ularni butunlay nashrdan olib qolishni (efirga bermaslikni) talab qilishga hech kimning haqqi yo'q. Tanqidiy materiallar e'lon qilganligi uchun jurnalistni ta'qib qilishga yo'l qo'yilmaydi. O'zRda senzura yo'l qo'yilmaydi.

**SESSIYA** (lot. *sessio* - majlis so'zidan; ingl. *session*) - ayrim davlatlarda parlament (yoki uning palatalari) ishining asosiy tashkiliy shakli hisoblanadi.

**SIYOSIY BOSHQANA** - tegishli shaxsga davlat hududida cheklanmagan vaqt mobaynida bo'lish (yashash), mazkur shaxs va uning oila a'zolariga shu davlat himoyasidan foydalanish imkoniyatini berish. Siyosiy boshqama so'ralishi va berilishi uchun shaxsning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va o'tiqodi asos bo'ladi.

**SIYOSIY PARTIYA** - O'zbekiston fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar musharakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir. O'zbekiston fuqarosi bir paytning o'zida faqat bitta siyosiy partiya a'zo bo'lishi mumkin. Siyosiy partiyalarga a'zolik yakka tartibda qayd etiladi. Siyosiy partiyalar O'zbekiston Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi. Siyosiy partiya ro'yxatdan o'tgan kundan e'tiboran yuridik shaxs maqomini oladi va u o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

**SOLIQ** - Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va bog'raz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovi. Har bir shaxs qonunda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi shart. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar aniq bo'lishi kerak. Soliq solish umumiydir. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

**SOLIQ TIZIMI** - O'zRning butun hududida barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagona bo'lgan tizim.

**SPIKER** - saylovdan keyingi birinchi majlisda QPning deputatlari orasidan yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan QPning vakolat muddatiga

saylangan QPning boshlig'i. QP Spikeri o'z vazifasini bejarish davrida siyosiy partiya a'zolikni to'xtatib turadi hamda siyosiy partiya fraksiyasi va deputatlar guruhi tarkibiga kirishi mumkin emas. Spiker QP qo'mitalarining tarkibiga saylanishi mumkin emas. Spiker yashirin ovoz besh orqali QP deputatlarining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan QP qaroriga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin. Spiker o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan farmoyishlar chiqaradi.

**TADBIRKORLIK** - tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

**TENG SAYLOV HUQUQI** - O'zbekiston fuqarolari jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'iy nazar, teng saylov huquqiga egadirlar. Har bir fuqaro — saylovchi bir ovozga ega.

**VAZIRLIK** - respublikaning markaziy ijro etuvchi organi. Davlat boshqaruvining tegishli tarmog'iga (sohasiga) rahbarlik qiladi, shuningdek, qonunda belgilangan doirada tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

**VASIYLIK** - ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ularga ta'minot, tarbiya hamda ta'lim berish. shuningdek, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Vasiylik o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalarga nisbatan belgilanadi.

**VIJDON ERKINLIGI** - fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqi. Fuqaro o'zining dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi. Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek, ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'mini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitishga yo'l qo'yilmaydi. Dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zR fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod erkinligi huquqidan foydalanadilar hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ladilar.

**VOYAGA YETMAGANLAR** - o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar.

**XALQARO SHARTNOMA** - xalqaro huquq subyektlarining huquqlari va majburiyatlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuv bo'lib, ular ishtirok etuvchi subyektlarning soniga qarab ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalarga bo'linadi. Xalqaro shartnomalar mazmuniga qarab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shartnomalar bo'lishi. shuningdek, boshqa masalalar bo'yicha tuzilishi mumkin. Muddatiga qarab shartnomalar muddatli va muddatsiz bo'ladi. Xalqaro shartnomalar boshqa turlarda ham tuzilishi mumkin. O'zRning xalqaro shartnomasi — respublikaning bir yoki bir necha davlat, xalqaro tashkilot yoxud xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan xalqaro munosabatlari sohasidagi huquq va majburiyatlariga doir teng huquqli va ixtiyoriy kelishuvdir. O'zbekistonning xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalariga, O'zbekiston Konstitutsiyasiga, "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonunga, shartnomaning o'z qoidalariga muvofiq tuziladi, bajariladi, to'xtatiladi, to'xtatib turiladi va denonsatsiya qilinadi. Xalqaro shartnomalar: shartnoma, bitim, konvensiya, protokol, memorandum, deklaratsiya, xatlar va notalar almashuvi deb nomlanishi va shunday ko'rinishda tuzilishi, shuningdek, boshqacha nomlanishi mumkin. Xalqaro shartnomalar qoida tariqasida yozma shaklda tuziladi. O'zRning xalqaro shartnomalarini tuzish huquqi davlatga tegishlidir.

O'zbekistonning Prezidenti davlat boshlig'i sifatida xalqaro munosabatlarda O'zbekiston nomidan ish ko'radi va xalqaro huquqiy normalar hamda O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq maxsus vakolatlarsiz muzokaralar olib boradi va O'zbekistonning xalqaro shartnomalarini imzolaydi.

**XUSUSIY MULK** - o'z mol-mulkiga xususiy tarzda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan iborat. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor o'z mulkidan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mahrum etilishi mumkin. Xususiy mulk fuqarolarning yollanib ishlashdan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishdan olgan daromadlari hamda kredit muassasalariga qo'ygan mablag'laridan, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlardan kelgan daromadlardan, meros bo'yicha va amaldagi qonun hujjatlarida man etilmagan o'zga asoslarga muvofiq mol-mulkka ega bo'lishlari hisobiga hosil etiladi va ko'payib boradi. Fuqarolarning xususiy mulki ularning davlat mulkini xususiy lashtirishda ishtirok etishi hisobidan vujudga keltirilishiga ham yo'l qo'yiladi. Xususiy mulk bo'lishi mumkin bo'lmagan obyektlar O'zbekiston qonunlari bilan belgilab qo'yiladi.

**YURIDIK SHAXS** - o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarini bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot.

**O'ZINI O'ZI BOSHQARISH** fuqarolarning O'zbekiston qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir. Fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, bevosita hamda o'zlarining saylab qo'yiladigan vakillari orqali o'zini o'zi boshqarishni amalga oshirishda teng huquqlarga egadir. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishga doir huquqlarini cheklash taqiqlanadi.

**O'SIMLIK DUNYOSI** - yovvoyi organizmlar daraxtlar, butalar va o'tsimon urug'laydigan o'simliklar, qirquqloqsimonlar, yo'sinsimonlar, suvo'tlar, lishayniklar va zamburug'lar o'zining barcha xilma-xil turlari bilan; yovvoyi organizmlardan tashkil topadigan tabiiy o'simlik jamoalari yoki ularning har qanday majmui; kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik turlari; yovvoyi o'simliklarning mevalari, urug'lari va boshqa qismlari yoki ular hayoti faoliyatining mahsullari. O'simlik dunyosi davlat mulki umummilliy boylik bo'lib, undan oqilona foydalanish zarur va u davlat muhofazasidadir.

**SHARTNOMA** - ikki yoki undan ortiq shaxsning huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuv. Fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirler. Shartnoma tuzishga majbur qilishga yo'l qo'yilmaydi. Taraflar qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan shartnomani ham tuzishlari mumkin. Shartnoma tuzilgan paytundan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo'lib qoladi.

**SHIKOYAT** - fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash to'g'risidagi talabi etilgan murojaati.

**CHAQIRUV YORLIG'I** - O'zRning diplomatiya vakolatxonasi boshlig'i quyidagi hollarda O'zR Prezidentining Farmoni bilan chaqirib olinadi: a) diplomatiya vakolatxonasi boshlig'i almashtirilganda; b) diplomatiya vakolatxonasi boshlig'i nomatlub shaxs (persona non grata) deb e'lon qilinganda; d) davlatlar o'rtasidagi diplomatiya munosabatlari uzilganda; e) davlatlar o'rtasida urush holati e'lon qilinganda; f) davlat xalqaro huquq subyekti sifatida yo'qolganida. O'zRning chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalarining boshqa a'zolari O'zR Tashqi ishlar vazirining buyruqlari bilan chaqirib olinadilar.

1. Каримов И.А. Юсак маънавият - енгилмас куч. - Т.: "Маънавият", 2009.
2. Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2010.
3. Каримов И.А. ЎзР Президенти И.А.Каримовнинг БМТ Бош Ассамблеясининг Мингйиллик ривожланиш мажлисидаги нутқи. [2010 йил 20 сент.]; Хорижий иқтимоий-сиёсий доиралар вакилларининг муносабатлари ва шарҳлари / И.А.Каримов. - Т.: "Ўзбекистон", 2010.
4. Алшев Б.А., Раҳмонов А.Н. Ўзбекистонда ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятини барпо этишнинг юсак натижалари. "Буюк ва муқаддасан, мустақил Ватан" (юпмай-оммабон рисола). - Т.: "O'qituvchi" нашриёт-матбаа иккундй уйи, 2011.
5. Алшев Б.А., Раҳмонов А.Н. Фуқаролик жамияти қуришнинг сиёсий-ҳуқуқий жиҳатлари. - Т.: "IQSOD-MOLIYA", 2013.
6. Аҳмедов Д.Қ. Ўзбекистон Республикаси Конституциясига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тартиби. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. - Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
7. Аҳмедов Д.Қ. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва халқ ҳоқимиятчилиги. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. - Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
8. Аҳмедшайева М.А. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва инсон ҳуқуқлари. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. - Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
9. Зокиров И.Б. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва фуқароларнинг иқтисодий-иқтимоий ҳуқуқлари. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. - Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
10. Исломов З.М. Конституция ва қонуннинг устуңлиги. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. - Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
11. Международное публичное право: Учебник. Коллектив авторов. Ответственный редактор: д.ю.н. Х.Т.Адилқариев. - Т.: «Zarqalam»; ТТЮИ; ЦИПЧПЦ, 2003.
12. Мирзо Ф., Хидишов С.М. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва оммавий ахборот воситалари. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. - Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
13. Мустақиллик: шзоҳли алимий-оммабон дугат // Муаллифлар: М.Абдуллаев, М.Абдуллаева, Ф.Абдуллаева, Г.Абдуразоқова ва бошқ.; Р.Рўзиев ва Қ.Хоназаров умумий таҳририда. Тўдирилган учинчи нашри / - Т.: «Шарқ», 2006.
14. Муҳамедов Ҳ.М. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва давлат суверенитети. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. - Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
15. Нажимов М.К., Утемуратов М.А. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва Қорақалпоғистон Республикаси. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. - Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.

16. Одиқориев Х.Т. Икки палатали парламент широктида қонуночилик жараёни. – Т.: «O'ZBEKISTON» нашриёт-матбаа ишкорий уйи, 2005.
17. Одиқориев Х.Т., Очлов Б.Э. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи (халқаро оммавий ҳуқуқ): Дарслик. – Т.: «ХЕГА-ПРИНТ», 2002.
18. Олломов Я., Беков И.Р. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва маҳаллий давлат ҳокимияти. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
19. Отақўжяев Ф.М. Конституция ва оила. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
20. Раҳимова М. Халқаро ҳуқуқ. – Т.: «Академия», 2005.
21. Раҳмонов А.Н. Инсоннинг асосий ҳуқуқлари – олий қадрият сифатида. Ўзбекистон Фанлар академияси И.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти ташкил этган «Инсон манфаатларининг ҳимояланиши – фуқаролик жамияти шаклланишининг муҳим омил» мавзусидаги республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2007.
22. Раҳмонов А.Н. Ўзбекистон ва Германияда парламентнинг ҳукуматга ишончисизлик билдириш ҳуқуқи (қиссий таҳлил). «Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини ривожлантиришнинг иқтимоий-сиёсий, иқтисодий-ҳуқуқий ва маънавий омиллари» мавзусида республика илмий-амалий семинари материаллари. – Т.: «Иқтисодиёт», 2011.
23. Раҳмонов А.Н. Ўзбекистон Республикасининг Конституциясини ўрганиш. – Т.: «Янги аср авлоди», 2013.
24. Раҳмонов А.Н., Абдурашядов Т. Ўзбекистонда сайлов тизмининг конституциявий асослари. «Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини ривожлантиришнинг иқтимоий-сиёсий, иқтисодий-ҳуқуқий ва маънавий омиллари» мавзусида республика илмий-амалий семинари материаллари. – Т.: «Иқтисодиёт», 2011.
25. Раҳмонов А.Н., Ҳасанова З. Давлат бошқаруви демократлаштириш – давр талаби. «Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини ривожлантиришнинг иқтимоий-сиёсий, иқтисодий-ҳуқуқий ва маънавий омиллари» мавзусида республика илмий-амалий семинари материаллари. – Т.: «Иқтисодиёт», 2011.
26. Рустамбоев М.Ҳ. Конституция ва Ўзбекистон Республикасининг Президенти. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
27. Рустамбоев М.Ҳ. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва прокуратура. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
28. Рустамбоев М.Ҳ., Адламуратов А.Т. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва суд ҳокимияти. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
29. Сабуров Н., Сайдуллоев Ш. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: фуқароларнинг шахсий ҳуқуқ ва эркинликлари. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
30. Самдов А.Х. Конституция ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор М.Ҳ.Рустамбоев. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
31. Самдов А.Х. Халқаро ҳуқуқ. Чықмалар ва тарифларда. Ўқув қўлланма. Т.2. – Т.: «Адолат», 2001.
32. Самдов А.Х. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва сайлов тизими. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. М.Ҳ.Рустамбоев. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
33. Турсунов А.С. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: муҳофа ва халфисизлик. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
34. Турсунов А.С. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва ташқи сиёсат. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.
35. Уразов Ш.З. Конституция независимого Узбекистана. – Т.: «Адолат», 1993.

36. Файзуев Ш.Х. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва жамиятининг иқтисодий негизлари. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.

37. Шарифхўжаев М. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати. – Т.: «Шарқ», 2005.

38. «Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг айрим моддаларига ўзгариш ва қўшимчалар киратиш тўғрисида (78, 80, 93, 96 ва 98-моддаларига)»ги Қонуни: «Халқ сўзи», 2011 йил 19 апрель, № 76 (5243).

39. Ўзбекистон Республикаси: мустақил давлатнинг бунёд бўлиши / Қ.А.Аҳмедовнинг умумий таҳрири остида / – Т.: «Ўзбекистон», 1992.

40. Ўзбекистон Республикаси Президентини И.Каримовнинг ЎзР Олий Мажлиси Қонуналик вазирлиги ва Сенатининг 2010 йил 12 ноябрдаги қўшма мажлисидаги «Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси» мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув-услубий мажмуу. Т.: «Иқтисодийёт» нашриёти, 2010.

41. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ён иккинчи чакриқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида қабул қилинган 2003 йил 24 апрелдаги Ўзбекистон Республикасининг Қонунига мувофиқ Конституциянинг ХVIII, XIX, XX, XXIII бобларига тузатиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгариш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган). Т.: Ўзбекистон, 2012.

42. Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига шарҳ / А.А.Азизхўжаев, Ф.Абдумажидов, М.А.Аҳмадшоева ва бошқ.; Масъул муҳаррир А.А.Азизхўжаев; ЎзР Адлия вазирлиги. Тошкент давлат юридик ин-ти. -- Тошкент: Ўзбекистон, 2008.

43. Ўзбекистон юридик энциклопедияси / Нашр учун масъул Р.А.Муҳитдинов ва бошқ.; масъул муҳаррир Н.Тойчиев. Т.: Адолат, 2010.

44. Ҳамидова М.А., Асадов Ш.Ф. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: фуқаролар ҳуқуқ ва эркинликларининг кафолатлари. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.

45. Ҳамидова М.А., Баратов М.Х. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва фуқароларнинг бурчлари. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. - Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.

46. Ҳамидова К.Т. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва жамоат бирлашмалари. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.

47. Ҳожиев Э.Т. Конституция ва Ўзбекистон Республикасининг маъмурий-ҳудудий тuzилиши. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.

48. Ҳожиев Э.Т. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: молия ва кредит. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор А.Х.Самдов. - Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005.

49. Ҳуқуқшуносликка оид ўзлашма терминлар. Тузувчилар: Бектемиров Ҳ., Холмедов Ҳ., Содиков С. - Т.: «Адолат», 1999.

## O'zbekiston Respublikasining KONSTITUTSIYASI

### MUQADDIMA

O'zbekiston xalqi:  
inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalari sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib,

hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda,  
o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib,  
demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib,  
xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda,  
respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib,  
insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab,  
fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida,  
o'zining muxtor vakillari siymosida O'zbekiston Respublikasining mazkur  
Konstitutsiyasini qabul qiladi.

### BIRINCHI BO'LIM

#### ASOSIY PRINSIPLAR

##### *1 bob*

#### DAVLAT SUVERENITETI

**1-modda.** O'zbekiston — suveren demokratik respublika. Davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi.

**2-modda.** Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

**3-modda.** O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir.

**4-modda.** O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.



**5-modda.** O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari — bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega.

**6-modda.** O'zbekiston Respublikasining poytaxti — Toshkent shahri.

## *II bob* **XALQ HOKIMIYATCHILIGI**

**7-modda.** Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

**8-modda.** O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.

**9-modda.** Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

**10-modda.** O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.

**11-modda.** O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi.

**12-modda.** O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas.

**13-modda.** O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

**14-modda.** Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

### *III bob*

## KONSTITUTSIYA VA QONUNNING USTUNLIGI

**15-modda.** O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

**16-modda.** Mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

### *IV bob*

## TASHQI SIYOSAT

**17-modda.** O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin.

## *IKKINCHI BO'LIM*

## INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIK LARI VA BURCHLARI

### *V bob*

## UMUMIY QOIDALAR

**18-modda.** O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

**19-modda.** O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

**20-modda.** Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

## *VI bob* **FUQAROLIK**

**21-modda.** O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'iy nazar, hamma uchun tengdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi.

**22-modda.** O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi.

**23-modda.** O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar.

## *VII bob* **SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLAR**

**24-modda.** Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

**25-modda.** Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibaga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

**26-modda.** Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsга o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdağı tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

**27-modda.** Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniş va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazilishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

**28-modda.** O'zbekiston Respublikasi Fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir.

**29-modda.** Har kim fikrlash, soʻz va eʼtiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim oʻzi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega. amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli boʻlgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

**30-modda.** Oʻzbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor boʻlgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

**31-modda.** Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga eʼtiqod qilish yoki hech qaysi dinga eʼtiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yoʻl qoʻyilmaydi.

## *VIII bob* **SIYOSIY HUQUQLAR**

**32-modda.** Oʻzbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda oʻz vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish oʻzini oʻzi boshqarish, referendumlar oʻtkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yoʻli bilan amalga oshiriladi.

**33-modda.** Fuqarolar oʻz ijtimoiy faolliklarini Oʻzbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yigʻilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtaiy nazaridangina bunday tadbirlar oʻtkazilishini toʻxtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

**34-modda.** Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamaytishi mumkin emas.

**35-modda.** Har bir shaxs bevosita oʻzi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Anizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda koʻrib chiqilishi shart.

## *IX bob* **IQTISODIY VA IJTIMOY HUQUQLAR**

**36-modda.** Har bir shaxs mulkdor boʻlishga haqli.

Bankka qoʻyilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

**37-modda.** Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniish huquqiga egadir.

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

**38-modda.** Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi.

**39-modda.** Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega.

Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas.

**40-modda.** Har bir inson malakali fibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

**41-modda.** Har kim bilim olish huquqiga ega.

Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

**42-modda.** Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.

### *X bob*

## **INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLARI**

**43-modda.** Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi.

**44-modda.** Har bir shaxsга o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

**45-modda.** Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.

**46-modda.** Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirler.

### *XI bob*

## **FUQAROLARNING BURCHLARI**

**47-modda.** Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar.

**48-modda.** Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar.

**49-modda.** Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar.

Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidir.

**50-modda.** Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.

**51-modda.** Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburdirlar.

**52-modda.** O'zbekiston Respublikasini himoya qilish — O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.

## **UCHINCHI BO'LIM**

### **JAMIYAT VA SHAXS**

#### **XII bob**

#### **JAMIYATNING IQTISODIY NEGIZLARI**

**53-modda.** Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan barbarav muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

**54-modda.** Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

**55-modda.** Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir.

#### **XIII bob**

#### **JAMOAT BIRLASHMALARI**

**56-modda.** O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar,

faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi.

**57-modda.** Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.

**58-modda.** Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

**59-modda.** Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba tashkilotlariga a'zo bo'lish ixtiyoriydir.

**60-modda.** Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini moliyaviy ta'minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar.

**61-modda.** Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi.

**62-modda.** Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi.

## **XIV bob**

### **OILA**

**63-modda.** Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.

**64-modda.** Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi.

**65-modda.** Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

**66-modda.** Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

### *XI bob*

## **OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI**

**67-modda.** Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar.

Senzuraga yo'l qo'yilmaydi.

### **TO'RTINCHI BO'LIM**

## **MA'MURIY-HUDUDiy VA DAVLAT TUZILISHI**

### *XVI bob*

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA'MURIY-HUDUDiy TUZILISHI**

**68-modda.** O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat.

**69-modda.** Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o'zgartirish, shuningdek, viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi.

### *XVII bob*

## **QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI**

**70-modda.** Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi.

**71-modda.** Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z Konstitutsiyasiga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid bo'lishi mumkin emas.

**72-modda.** O'zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida ham majburiydir.

**73-modda.** Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi va chegaralari uning roziligsiz o'zgartirilishi mumkin emas. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi.



**74-modda.** Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining umumiy referendumida asosida ajralib chiqish huquqiga ega.

**75-modda.** O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasidagi nizolar murosaga keltiruvchi vositalar yordamida hal etiladi.

## **BESHINCHI BO'LIM**

### **DAVLAT HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI**

#### **XVIII bob**

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI**

**76-modda.** O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan - Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati -- besh yil.

**77-modda.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonunga muvofiq saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib. Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda -- olti kishidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati. shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas.

**78-modda.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

2) O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

3) O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;

4) O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

5) O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash;

6) O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;

7) boj, valuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish;

8) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;

9) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish;

10) O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish;

11) tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirish;

12) davlat mukofotlari va unvonlarini ta'asis etish;

13) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

14) O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;

15) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash, shuningdek, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazirning hisobotlarini eshitish va muhokama qilish;

16) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarini saylash;

17) O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;

18) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash;

19) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

20) xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;

21) ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatida ko'rib chiqiladi.

**79-modd.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mutlaq vakolatlariga: \*

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdiriga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

3) o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

4) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

**80-modda.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlariga:

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisini va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash;

3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;

4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudini saylash;

5) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisini tayinlash hamda uni lavozimidan ozod etish;

6) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

7) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

8) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish;

9) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish;

10) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish;

11) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

12) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish;

13) o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish.

14) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi.

**81-modda.** Vakolat muddati tugagach, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tegishincha yangi chaqiriq Qonunchilik palatasi va Senati ish boshlaguniga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlislari tegishincha Qonunchilik palatasiga saylovdan keyin ikki oydan kechiktirmay va Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislari sessiyalar davrida o'tkaziladi. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentabning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati majlislari zaruratga qarab, lekin yiliga kamida uch marta o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishda barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida, shuningdek, ularning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, respublika Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi raislari, Bosh prokurori, Markaziy bank Boshqaruvining raisi ishtirok etishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida Senat Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va uning organlari majlislarida Qonunchilik palatasi Spikeri ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati alohida-alohida majlis o'tkazadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlislari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so'zlaganda o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga binoan qo'shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o'tkazilishi mumkin.

**82-modda.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

**83-modda.** Qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi

deputatlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

**84-modda.** Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati ma'qullagan qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga o'n kun ichida yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o'ttiz kun ichida imzolanaadi va e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qaytariladi.

Agar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonunni qayta ko'rib chiqishda Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qonunni yana ma'qullasa, qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Qonunchilik palatasi tomonidan yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan Qonunchilik palatasi va Senat yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin. Palatalar kelishuv komissiyasi takliflarini qabul qilganda qonun odatdagi tartibda ko'rib chiqilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o'z e'tirozlari bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli.

Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahrirda tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'n to'rt kun ichida imzolanishi va e'lon qilinishi kerak.

Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir.

**85-modda.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'z tarkibidan Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rinbosarlarini saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasining vakolati muddatiga saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri yashirin ovoz berish orqali Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Qonunchilik palatasi qaroriga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri:

- 1) Qonunchilik palatasining majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;
  - 2) Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;
  - 3) Qonunchilik palatasi qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;
  - 4) O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Qonunchilik palatasi qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;
  - 5) parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq Qonunchilik palatasi guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;
  - 6) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va o'zga tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda Qonunchilik palatasi nomidan ish ko'radi;
  - 7) Qonunchilik palatasi qarorlarini imzolaydi;
  - 8) ushbu Konstitutsiya va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri farmoyishlar chiqaradi.

**86-modd.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati o'z tarkibidan Senat Raisi va uning o'rinbosarlarini saylaydi. Senat Raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi o'rinbosarlaridan biri Qoraqalpog'iston Respublikasining vakili bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi va uning o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Senat vakolati muddatiga saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Senat qarorlariga binoan muddatidan ilgan chaqirib olinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi:

- 1) Senat majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;
  - 2) Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;
  - 3) Senat qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;
  - 4) O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Senat qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;
  - 5) parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq Senat guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;
  - 6) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda Senat nomidan ish ko'radi;
  - 7) Senat qarorlarini imzolaydi;
  - 8) ushbu Konstitutsiya va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi farmoyishlar chiqaradi.

**87-modda.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o'z vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan qo'mitalarni saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Senat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o'z vakolatlari muddatiga senatorlar orasidan qo'mitalarni saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati, zarurat bo'lgan taqdirda, muayyan vazifalarni bajarish uchun deputatlar, senatorlar orasidan komissiyalar tuzadi.

**88-modda.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlariga va Senati a'zolariga ularning deputatlik yoki senatorlik faoliyati bilan bog'liq xarajatlar belgilangan tartibda qoplanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari hamda Senatta doimiy asosda ishlovchi Senat a'zolari o'z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi daxlsizlik huquqidan foydalanadilar. Ular tegishincha Qonunchilik palatasi yoki Senatning roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab tutilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazo choralari tortilishi mumkin emas.

### *XIX bob*

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING PREZIDENTI**

**89-modda.** O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi.

**90-modda.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan besh yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi.

**91-modda.** Prezident o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo'lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi.

**92-modda.** Prezident O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig'ilishida quyidagi qasamyodni qabul qilgan payidan boshlab o'z lavozimiga kirishgan hisoblanadi:

"O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman"

**93-modda.** O'zbekiston Respublikasining Prezidenti:

1) fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafolidir;

2) O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi;

3) mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

4) muzokaralar olib boradi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

5) o'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

6) O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

7) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalar yuzasidan ma'ruzalar taqdim etadi;

8) respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi; vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi;

9) Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

10) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi va lavozimidan ozod qiladi;

11) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi;

12) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;

13) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga Konstitutsiyaviy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari, Oliy xo'jalik sudi raisi va sudyalari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining raisi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;

14) viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo'jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi;

15) O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda



lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;

16) respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to'xtatadi, bekor qiladi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli;

17) O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e'lon qiladi; qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli;

18) O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qiladi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig'iga kiritadi;

19) favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik haloqat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashni ko'zlab, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig'iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

20) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;

21) O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig'i bilan mukofotlaydi, O'zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

22) O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi;

23) amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi;

24) O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatini tuzadi. Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig'iga kiritadi;

25) ushbu Konstitutsiya va O'zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Prezident o'z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

**94-modda.** O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va fermoyishlar chiqaradi.

**95-modda.** Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yoxud ular bir necha marta O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, shuningdek, Qonunchilik palatasi bilan Senat o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilgan taqdirda yangi saylov uch oy mobaynida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emas.

**96-modda.** O'zbekiston Respublikasining amaldagi Prezidenti o'z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uch oy muddat ichida. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunga to'liq muvofiq holda mamlakat Prezidenti saylovi o'tkaziladi.

**97-modda.** Vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan Prezident umrbod Senat a'zosi lavozimini egallaydi.

... :

## *XX bob*

### **VAZIRLAR MAHKAMASI**

**98-modda.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi.

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy

partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqqandan keyin o'n kun muddat ichida uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun taklif etadi.

Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi.

Yangi Bosh vazir nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko'rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi.

Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi.

## XXI bob

### MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ASOSLARI

**99-modd.** Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

**100-modd.** Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi: qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash; hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish; mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish; mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash.

normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

**101-modda.** Mahalliy hokimiyat organlari O'zbekiston Respublikasining qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar. respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar.

Yuqori organlarning o'zlariga berilgan vakolat doirasida qabul qilgan qarorlari quyi organlar ijro etishi uchun majburiydir.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolat muddati – 5 yil.

**102-modda.** Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishlilikiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanlarga bo'ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

**103-modda.** Viloyat, tuman va shahar hokimlari o'z vakolatlarini yakkaboshchilik asoslarida amalga oshiradilar va o'zlari rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardirlar.

Hokimlarning va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining faoliyatini tashkil qilish, ularning vakolat doirasini va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini saylash tartibi qonun bilan belgilanadi.

**104-modda.** Hokim o'ziga berilgan vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi.

**105-modda.** Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SUD HOKIMIYATI**

**106-modda.** O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

**107-modda.** O'zbekiston Respublikasida sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi **Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha** oliy sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, harbiy va xo'jalik sudlaridan iborat.

Sudlarni tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

**108-modda.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi.

Konstitutsiyaviy sud siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan — Konstitutsiyaviy sud raisi, rais o'rinbosari va sudyalardan, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasining vakilidan iborat tarkibda saylanadi.

Konstitutsiyaviy sudning raisi va a'zolari deputat bo'la olmaydilar.

**Konstitutsiyaviy sudning raisi va a'zolari siyosiy partiyalar va harakatlarning a'zosi bo'lishlari va boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashlari mumkin emas.**

**Konstitutsiyaviy sud sudyalari daxtsizlik huquqidan foydalanadilar.**

**Konstitutsiyaviy sud sudyalari o'z faoliyatlarida mustaqildirlar va faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo'ysunadilar.**

**109-modda.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi:

1) O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va O'zbekiston Respublikasi **Oliy Majlisi** palatalari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, Hukumatning va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

2) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

3) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;

4) **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida** boshqa ishlarni ham ko'rib chiqadi.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari matbuotda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Ular qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas.

Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish va uning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.

**110-modda.** O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi.

U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy va O'zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi majburiydir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlari, viloyatlar, shaharlar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

**111-modda.** Mulkhilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'rtasidagi, shuningdek, tadbirkorlar o'rtasidagi, iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini hal etish Oliy xo'jalik sudi va xo'jalik sudlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

**112-modda.** Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi.

Sudyalar senator, davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas.

Sudyalar siyosiy partiyalarning a'zosi bo'lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek, ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Sudya vakolat muddati tugagunga qadar sudyalik vazifasidan qonunda ko'rsatilgan asoslar bo'lgandagina ozod etilishi mumkin.

**113-modda.** Hamma sudlarda ishlar ochiq ko'riladi. Ishlarni yopiq majlisda tnglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi.

**114-modda.** Sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

**115-modda.** O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

**116-modda.** Ayblanuvchi himoyalaniish huquqi bilan ta'minlanadi.

Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi. Advokaturani tashkil etish va uning ish tartibi qonun bilan belgilanadi.

## *XXIII bob* **SAYLOV TIZIMI**

**117-modda.** O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda — dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. Saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so'ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bir vaqtning o'zida ikkidan ortiq davlat hokimiyati vakillik organining deputati bo'lishi mumkin emas.

Saylov o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

## *XXIV bob* **PROKURATURA**

**118-modda.** O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi.

**119-modda.** Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori boshchilik qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Prokurori O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasining oliy vakillik organi tomonidan tayinlanadi.

Viloyatlarning prokurorlari, tuman va shahar prokurorlari O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Prokurorining, viloyat, tuman va shahar prokurorlarining vakolat muddati — besh yil.

**120-modda.** O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'ysunib amalga oshiradilar.

Prokurorlar o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a'zolikni to'xtatib turadilar.

Prokuratura organlarini tashkil etish, ularning vakolatlari va faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.

**121-modda.** O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy kooperativ tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo'linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi taqiqlanadi.

Qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko'rsatishlari mumkin.

## *XXI bob* **MOLIYA VA KREDIT**

**122-modda.** O'zbekiston Respublikasi o'z moliya va pul-kredit tizimiga ega.

O'zbekistonning Davlat budgeti Respublika budgetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetidan va mahalliy budgetlardan iborat.

**123-modda.** O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli.

**124-modda.** O'zbekiston Respublikasining bank tizimini respublika Markaziy banki boshqaradi.

## *XXVI bob* **MUDOFAA VA XAVFSIZLIK**

**125-modda.** O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi.

Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi.

**126-modda.** O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada qurolli kuchlariga ega.

## *OLTINCHI BO'LIM*

### **KONSTITUTSIYAGA O'ZGARTIRISH KIRITISH TARTIBI**

**127-modda.** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan qonun yoki O'zbekiston Respublikasining referendumini bilan kiritiladi.

**128-modda.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli taklif kiritilgandan keyin oliy oy mobaynida Konstitutsiyaga o'zgartirishlar hamda tuzatishlar kiritish to'g'risida keng va har tarafdin muhokamasi hisobga olgan holda qonun qabul qilishi mumkin. Agar Oliy Majlis Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklifni rad etsa, taklif bir yil o'tgandan keyingina qayta kiritilishi mumkin.



*O'quv-uslubiy nashr*

**ALIQUL RAHMONOV**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING  
KONSTITUTSIYASINI O'RGANISH**

**Muharrir**

**Gavhar MIRZAYEVA**

**Badiiy muharrir**

**Husan MEHMONOV**

**Tex. muharrir**

**Surayyo AHMEDOVA**

**Musahhah**

**Feruza SHOSAIDOVA**

**Kompyuterda sahifalovchi**

**Abduqodir YULDASHEV**

**Bosishga 28.03.2014-y.da ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/16.**

**Bosma tobog'i 9,0. Shartli bosma tobog'i 3,89.**

**Garnitura Times Uzb95-. Ofset qog'ozi.**

**Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 19.**

**Bahosi kelishilgan narxda.**

**-Yangi asr avlodi- NMMda tayyorlandi va muqovalandi**

**Litsenziya raqami: Al № 198, 2011-yil 28.08.da berilgan.**

**100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.**

***Murojaat uchun telefonlar:***

**Nashr bo'limi - 278-36-89; Marketing bo'limi - 128-78-43**

**faks — 273-00-14; web-saytimiz: [www.yangiasr.uz](http://www.yangiasr.uz)**

**e-mail: [yangiasravlodi@mail.ru](mailto:yangiasravlodi@mail.ru)**

ALIQUL RAHMONOV



ЎЗБЕКИСТОН  
РЕСПУБЛИКАСИНИНГ  
КОНСТИТУСИЯСИНИ  
ЎРگانИШИ



YANGI ASR AVLODI

ISBN 978-9943-27-109-8



9 789943 271098